


URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek tilshunosligi kafedrası

A. Primov, X. Qodirova

**TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

o'quv-uslubiy qo'llanma



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

A. Primov, X. Qodirova

**TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI**

o‘quv-uslubiy qo‘llanma

Urganch – 2019

UDK: 811.212.

KBK: 84.34 P-99

Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Mas’ul muharrir A.O‘rozboyev. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2019.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma universitetlarning filologiya fakultetlari o‘qituvchilari va talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib unda “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” fani bo‘yicha o‘tkaziladigan ma’ruzalar o‘rin olgan. Shuningdek, qo‘llanmadan tadqiqotchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalanishi mumkin.

Этот учебно-методическая пособие предназначен для преподавателей и студентов филологических факультетов вузов и включает в себя лекции на тему «Актуальные проблемы языкознания». Пособие также может быть использовано исследователями, преподавателями академических лицеев и профессиональных колледжей в качестве дополнительной литературы.

This teaching aid is intended for teachers and students of philological faculties of universities and includes lectures on the topic "Actual problems of linguistics." The manual can also be used by researchers, teachers of academic lyceums and professional colleges as additional literature.

Tuzuvchilar: f.f.n., dots. A. Primov,
o‘qit. X.Qodirova

Taqrizchilar: f.f.d. A. O‘rozboyev,
f. f. n., dots. I.Hajiyeva

ISBN 978-9943-987-70-8

UrDU Filologiya fakulteti kengashining 2019-yil 25-apreldagi yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Azamat Primov, Xurshida Qodirova

© “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2019.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	5
Kirish.O‘zbek tilshunosligi taraqqiyot bosqichlari.....	6
O‘zbek tilining lingvokulturologik tadqiqi muammolari.....	12
O‘zbek tilining sotsiopragmatik tadqiqi muammolari.....	22
O‘zbek tilining neyrolingvistik tadqiqi muammolari.....	52
O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish muammolari.....	58
O‘zbek tilining lingvokognitiv o`rganish muammolari.....	61
O‘zbek tilining psixolingvistik tadqiqi muammolari.....	83
Foydalaniladigan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati	93

SO‘ZBOSHI

O‘zbek an’anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan, taraqqiyot yo‘lini tanlagan va belgilangan maqsad asosidagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgan o‘zbek substansial tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo‘nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ular diqqat-markazida “lison-nutq” masalasini turli daraja va ko‘rinishda namoyon qiluvchi “til va jamiyat”, “til va madaniyat”, “til va shaxs”, “milliy til va milliy tafakkur”, “til va sun’iy intellekt” kabi **substansial asoslarda** hal qilinuvchi muammolar turadi. Jahon tilshunosligida XX asr so‘ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmatlari – lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvokogni-tologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg‘or fan yo‘nalishlari aynan shu masalalar tadqiqi bilan shug‘ullanmoqda.

Istiqlol natijasi o‘laroq, o‘zbek tilshunosligi tom ma‘noda mustaqil milliy fan sifatida o‘zini namoyon qildi. Eng muhimi, tilimizning milliy tabiatiga to‘laqonli ilmiy-nazariy baho berildi. Qo‘lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o‘rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining keng qamrovli tadqiqiga o‘tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o‘zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg‘or va samarador tadqiq usullari asosida tekshirishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikning ayrim juz‘iy muammolariga dolzarblik tusi berilayotgani holda, mavjud ilmiy salohiyat muhim muammolar echimiga yo‘naltirilmayapti, sohaning istiqbolini belgilaydigan asosiy vazifalar hamon kun tartibidan chetda qolmoqda. SHuning uchun ushbu kursda o‘zbek tilshunosligining yangi asrda hal etilishi lozim bo‘lgan, to‘la ma‘noda dolzarb muammolari haqida so‘z boradi.

Biz ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmani tilshunoslikning so‘nggi yutuqlariga tayangan holda tayyorlashga harakat qildik. Biz ushbu kitobchada N.Mahmudov, H.Dadaboyev, A.Nurmonov, Sh.Safarov, B.Mengliyev, D.Xudoyberganova, M.Hakimov, M.Yuldashev kabi o‘zbek tilshunosligining zabardast vakillari tadqiqotlaridan va xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridan unumli foydalandik. Shuning uchun o‘zimizni muallif deb emas, musannif deb hisoblaymiz. Ushbu kitobchanning yuzaga kelishi uchun tadqiqotlaridan foydalangan barcha ustozlarga minnatdorchilik bildiramiz.

1-MAVZU. KIRISH.O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

REJA:

1. “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” kursining maqsad hamda vazifalari
2. XX asrgacha bo‘lgan ibtidoiy o‘zbek tilshunosligi maqsad va vazifalari, yutuqlari.
3. Ilk empirik tilshunoslik maqsad va vazifalari, yutuqlari.
4. O‘zbek nazariy tilshunosligi maqsad va vazifalari, yutuqlari.
5. Ikkinchi empirik o‘zbek tilshunosligi maqsad va vazifalari, yutuqlari.

“O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” kursi nazariy soha bo‘lib, uning maqsadi talabalarni davr talablaridan kelib chiqadigan, o‘zbek tilshunosligi fani zimmasiga qo‘yilayotgan yangi ijtimoiy buyurtma bilan tanishtirish uchun yangi lingvistik paradigma va yo‘nalishlar haqida ilmiy-metodologik ma’lumot berishdan iborat.

Fanning vazifalari quyidagilardir:

- o‘zbek tilshunosligi bosqichlari haqida ma’lumot berish;
- o‘zbek formal tilshunosligi maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish;
- o‘zbek substansial tilshunosligi maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish;
- jahon tilshunosligi yutuqlari va o‘zbek tilshunosligi oldiga qo‘yilayotgan talablar;
- jahon tilshunosligi yangi paradigmatlari haqida axborot berish;
- o‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlarining dolzarb muammolari haqida ma’lumot berish.

“O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” fani gnoseologiya, tasavvuf, mantiq (formal, dialektik), ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, axborot texnologiyalari fanlari bilan bog‘liq. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Til tarixi”, “Tilshunoslikka kirish”, “Umumiy tilshunoslik” fanlari bilan uzviy ketma-ket bog‘lanadi.

Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uni o‘qitishning ahamiyati. “Tilshunosligining dolzarb muammolari” fani gnoseologiya, tasavvuf, mantiq (formal, dialektik), ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, axborot texnologiyalari fanlari bilan bog‘liq. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Til tarixi”,

“Tilshunoslikka kirish”, “Umumiy tilshunoslik” fanlari bilan uzviy ketma-ket bog‘lanadi.

Talabalarda “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” fani bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, kuchaytirish, “Tilshunoslikning dolzarb muammolari”ning o‘ziga xos nazariyasi, til materiallarini ilmiy tahlil etish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita amaliy va ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu fanni o‘rganish va tadqiq etish bugungi kun nuqtayi nazaridan juda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

“Tilshunoslikning dolzarb muammolari” kishilik jamiyatining amaliy ehtiyojlari ta’sirida yuzaga kelgan tilshunoslikning mustaqil bir sohasidir. Kishilik jamiyatining taraqqiy eta borishida “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” fanining echishi lozim bo‘lgan masalalari ham, shu masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan yo‘l-yo‘riqlari va metodlari ham o‘sib, rivojlanib boradi. Bu muammolarni an’anaviy hamda yangi muammolarga ajratish mumkin.

An’anaviy muammolar qatoriga tilshunoslik tomonidan asrlar davomida yechib kelingan, lison hamda nutq hodisalarini imkoniyat doirasida tadqiqi va hamisha jamiyatning o‘quv-o‘qituv ishlarini talab darajasida tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy ishlarni kiritish mumkin.

Yangi muammolar qatorida quyidagilarni sanash mumkin: mashinaviy tarjimaning lingvistik asoslarini yaratish, informatsion tillar va ularning inson tabiiy tiliga munosabati, terminologiyasi va uning axborot izlashga munosabati, hujjatlarni avtomatik indekslashtirish, hujjatlarni avtomatik tarzda referatlash va annotatsiyalash, axborot tizimi ishlarini lingvistik jihatdan ta’minlash, avtomatik axborot izlash uchun lug‘at - tezauruslar tuzish, matnni avtomatik sintezlash va lisonning nutqiy voqelanishining mukammal tadqiqi kabilar.

Fanni o‘rganish jarayonida yana quyidagilarni ham bilib olamiz:

O‘zbek tilshunosligining fan sifatidagi tarixiy taraqqiyoti bosqichlari va ularga xos vazifalar.

XX asr 50-80 yillari o‘zbek tilshunosligini muammolari, yechimi, amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili talqini.

XX asr oxirlari o‘zbek tilshunosligi muammolari, yechimi haqida.

XXI asr boshlari o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari tadqiqining boshlanishi, borishi, natijalarining yangiligi.

Formal, substansial va antrpotsentrik tilshunoslik. Ularning umumiy jihatlari va farqlari.

Jahon lingvistikasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri, dunyo tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb maslalani ijobiy hal etishga munosib ulushini qo‘shib kelayotgan o‘zbek tilshunosligi ham o‘tgan asr davomida rang-barang dunyoqarashlar, ta’limotlar, nazariyalar ta’sirini boshidan kechirdi, umumlingvistik jarayonlar qamrovida qoldi.

O‘zbek nomli etnosotsial jamoa, ya’ni millatga taalluqli, uning boy tarixini o‘zida aks ettiruvchi, kundalik aloqa-muloqat ehtiyojini to‘lato‘kis qondiruvchi, uni birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi o‘zbek tilining tabiatini, shakllanish, taraqqiy topish bosqichlari kechagi va bugungi holati, ertangi istiqboli xususida aniq hamda ravshan tasavvurga ega o‘zbek tilshunosligi uchun hozirgi zamon jahon tilshunosligida yuz berayotgan o‘zgarishlar yot emas. Hech ikkilanmay ta’kidlash lozimki, o‘zbek tili tizimida nafaqat qardosh turkiy tillarga oid xususiy jihatlar, shuningdek dunyoning besh qit’asida mavjud mustaqil tillarga doir umumiy qonuniyatlar ham qaror topgan.

Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilshunosligi bosib o‘tgan murakkab yo‘lga ilmiy yondashishda, obyektiv baho berishda unga xos qonuniyatlarni umumlingvistik hodisalar, jarayonlardan ajratib qo‘ymaslik yoki yulib olmaslik talab qilinadi.

Ma’lumki, XX asr boshlarida sotsiologiya va psixologiyadan uzoqlashgan lingvistika “Til o‘zida va o‘zi uchun” shiorini o‘zining yagona obyekt sifatida e’lon qildi. F. de Sossyur ilgari surgan umumiy semiologiya loyihasi semiotikada qisman ifodasini topgan bo‘lsa-da, lingvistika o‘z mustaqilligini yo‘qotmadi, semiotikadek umumiy fanning qismiga aylanib ketmadi. Y.D.Aprsyanning qayd etishicha, struktur paradigma tufayli sodir bo‘lgan qayta qurish an’anaviy lingvistik muammolarni yanada chuqurlashtirdi, boyitdi va kengaytirdi; lingvistikani “ilmiy haqiqatni izlash, axtarish metodologiyasi” bilan qurollantirdi.

XX asr oxiriga kelib tilni belgilar tizimi tarzida tadqiq etish masalasi tadqiqotchilarni ortiqcha qiziqirmay qo‘ydi. Lingvistika yana psixologiya va sotsiologiya bilan yaqindan munosabatga kirishishga intila boshladi.

Kognitivistika Sossyurning til-nutq, sinxroniya-diaxroniya, sintaksis-semantika, leksika-grammatika kabi til dixotomiyalaridan voz kecha boshladi. Tilni insonning kognitiv qobiliyatlaridan biri sifatida baholadi, tilshunoslikni esa kognitologiyaning bo‘lagi deb e’lon qildi. Natijada, tilshunoslik tag‘in o‘z mustaqilligini yo‘qotay dedi. SHunga qaramay til haqidagi fanning yakkalikdan chiqishiga, unga tegishli

ijtimoiy ahamiyatning yanada o'sishiga shak-shubha yo'q edi. XX asr lingvistikasi bosib o'tgan yo'lni kuzatar ekanmiz, undagi bir qator xususiyatlarni e'tirof etish lozim bo'ladi:

1. Tilshunoslik har doim boshqa, xoh gumanitar, xoh tabiiy fanlar bilan bajonidil aloqaga kirisha oldi. Biologiya, sotsiologiya, psixologiya bilan lingvistikaning yaqindan aloqasi bois biolingvistika (bu yo'nalish o'zbek tilshunosligida hozircha shakllangan emas), sotsiolingvistika, psixolingvistika tarkib topdi. 60-yillardan e'tiboran injener lingvistikasi, keyinroq matematik lingvistika, buning zaminida esa, kompyuter lingvistikasi vujudga keldi. Bunday aloqalar natijasi o'laroq tilshunoslikka oid tadqiqotlarda turli-tuman tushunchalarni ifodalovchi terminlar o'z ifodasini topdi. SHunga qaramasdan, tilshunoslikda uning predmetiga mos xususiyatlargina saqlanib qolaverdi, mos tushmaydiganlari o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketdi yoxud sof lingvistik mazmun bilan qanoatlandi.

2. Kiritilayotgan tushuncha uchun aniq ta'rifning yo'qligi uning samarali qo'llanishiga to'sqinlik qilolmadi, "lisoniy bilish", "lisoniy qiyofa", "borliqning lisoniy tasviri", "diskurs", "konsept" singari terminlar mohiyati qator izlanishlar negizida aniqlashtirib borildi.

3. Tilshunoslikda L.Elmslevning glossematika nazariyasidan boshqa biron bir lingvistik loyiha va lingvistik ta'limot o'zining mantiqiy poyoniga erishmadi, amalda mujassam bo'lmadi. SHunday qilib, lingvistika uchun mustaqillik maqomining tabiiyligi, va aksincha, boshqa fanlarning ta'siri sezilarli bo'lsa-da, ammo muvaqqat xarakterdaligi ayon bo'ldi.

Zikr etilgan jihatlar o'zbek tilshunosligida ham o'z ifodasini ma'lum darajada namoyon etdi.

Milliy istiqlol tufayli o'z taraqqiyot yo'liga tushib olgan ona tilining tabiatiga mos mezonlarni ishlab chiqish, unut bo'lgan boyliklarini qayta tiklash, sofligini ta'minlash, kelajak istiqbollari belgilash kabi ustivor jihatlarga «Davlat tili haqidagi», "Ta'lim to'g'risidagi" qonunlarda, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda boshqa ko'pgina hujjatlarda alohida e'tibor qaratildi.

O'zbek tilshunosligi so'nggi yillar davomida ma'lum darajada o'sib, taraqqiyot ta'sirida paydo bo'layotgan masalalarni hal etishga diqqatini qaratdi. Jahon tilshunosligidagi singari o'zbek tilshunosligida ham endilikda e'tibor til strukturasi muammosidan tilning inson faoliyatining turli sohalaridagi vazifasiga ko'cha boshladi. Tilning sistem xarakteri, til birliklarining paradigmatic va sintagmatic

xususiyatlari, o‘zaro munosabatini atroflicha tahlil etish kun tartibidan barqaror joy oldi.

Bugun zamonaviy jahon tilshunosligidan muhim o‘rin olayotgan jihat bu inson faoliyatining turli sohalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ilmiy ma‘lumotlar singishi va o‘zaro ta’siri hisoblanadi. Lingvistikaning turli fan sohalarini bilan munosabatga kirishi natijasida tilshunoslikda etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter tilshunosligi kabi paydo bo‘lgan yangi yo‘nalishlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga puxta bilim berish, yosh iste’dodlarni mazkur sohalarga dadil yo‘llash lozim. Bugun oliy o‘quv maskanlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida unga tizim sifatida yondashish, tizim qonunlari negizida til va uning birliklari hamda hodisalarini talqin etish, shakl va mazmun asimmetriyasi, ona tilining funksional ko‘pqirraligi haqida chuqur ilm berish, nazariy jihatdan etuk lingvistlar tayyorlashda tarixiy tilshunoslik tutgan mavqeni aniq belgilash zarur.

Oliy ta’lim tizimini tashkil etishning ustuvor vazifalaridan biri tarzida talaba bilimining sintezi, fanlararo aloqa omilining e’tirof etilishidir.

O‘zbek lingvistlari oldida hozirgi vaqtda tilni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammal o‘zlashtirishni ta’minlovchi ta’lim maqsadiga mos dastur, qo‘llanma va darsliklar, o‘quv-metodik ishlari barpo etishdek dolzarb vazifa turibdi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun oliy o‘quv yurtlari hamda O‘zRFA tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasidagi aloqalar samaradorligini oshirish, salohiyatli kuchlarni birlashtirish, moddiy-texnika bazasini hamkorlikda yaratish va undan unumli foydalanish zarur bo‘ladi.

Oliy ta’lim tizimida til o‘qitishdan bosh maqsad talabani o‘rta maktab ta’limida egallagan to‘g‘ri so‘zlash, savodli yozish, aniq tafakkur qilish malakasini yuqori bosqichga ko‘tarishdir. Bunda, shubhasiz, o‘zbek tilining unga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini puxta egallash, og‘zaki va yozma nutqda ularga qat’iy rioya qilish, adabiy tilning me’yorlariga oid bilimlardan yaxshi xabardor bo‘lish alohida ahamiyatga ega.

Jahon tilshunoslari safida XXI asrga shaxdam qadam qo‘ygan o‘zbek olimlari oldida ham o‘tgan asrda o‘z echimini uzul-kesil topmagan “Til va jamiyat”, “Inson va uning tili” kabi masalalar bilan bog‘liq vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Xo'sh, tilshunoslardan tinimsiz mehnat, ulkan chidam va iqtidorni talab qiluvchi lisoniy masalalarni ijobiy hal etish maqsadida avvalambor til qurilishining qaysi jihatlariga diqqatni qaratish, qanday izlanishlarni ro'yobga chiqarish lozim bo'ladi?

1) zamonaviy lingvistikadagi yangi yo'nalishlar bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar ko'lamini aslo sekinlatmagan tarzda, an'anaviy tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlar sur'atini yanada kengaytirish;

2) XVIII asr oxiridagi I.Gerder hamda umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V.Gumboldt tomonidan ilgari surilgan tilning xalq madaniyati, urf-odati, rusumi, xarakteri bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganuvchi etnolingvistikani shakllantirish va rivojlantirish;

3) komparativistika, ya'ni qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nuqtayi nazardan qardosh turkiy tillarni o'zbek tili bilan muqoyasa qilish borasida keyingi paytlarda yo'l qo'yilayotgan sustkashlikka barham berish, nafaqat o'zbek va turk, shuningdek o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq, tatar tillari materiallarini qiyoslashga jiddiy e'tiborni qaratish, natijada turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasini o'zbek tilida yaratish;

4) o'zbek tilshunosligini uning bosh yo'nalishlaridan biri turkologiyasiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek turkologlari erishgan yutuqlar turkologiyada munosib baholangan. Ular haqida mavridi kelganda alohida mulohaza bildirish mumkin. Hozir esa, mazkur yo'nalish oldida o'z echimni kutayotgan jihatlargagina diqqatni tortmoqchimiz:

a) skiflar, saklar, sarmatlar, kushonlar, toxarlar davriga taalluqli onomastikani atroflicha o'rganish, qadimgi yunon, xitoy olimlari, muarrixlarining turkiy qabilalar haqidagi ma'lumotlarini sinchiklab tahlil qilish;

b) oltoy tillarining genetik qarindoshligi, turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillarining yagona til asosida shakllanganligi to'g'risidagi mavjud dunyoqarash kesimida chuqur ilmiy izlanishlar olib borish;

d) turkologiya bo'yicha bibliografik sravochnik tayyorlash, keng jamoatchilikni turkologiyaning tarixi, hozirgi holatidan xabardor qilish va h.k.;

5) XX asrning 20-30 yillari o'zbek matbuoti tili, milliy uyg'onish davri alifbo va imlo masalalari, adabiy til va jonli so'zlashuv tili muammolari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni jadallashtirish;

6) muayyan tilning rivojlanishi darajasi undagi lugʻatlarning rang-barangligi, miqdori bilan oʻlchanishini eʼtibordan qochirmagan holda, lingvistikaning turli sohalariga xizmat qiluvchi lugʻatlar tuzish, soʻnggi texnika vositalari bilan taʼminlash, xalqaro axborot tizimiga integratsiyalashish va undan foydalanish;

7) oʻzbek tilining dinamik holatini tadqiq etishda bebaho manba hisoblanuvchi yozma obidalarni atroflicha, chuqur ilmiy asosda oʻrganish, yoshlarni bu yoʻnalishga dadil jalb etish;

8) belgilar sistemasidan iborat sifatida eʼtirof etilyotgan tilning kommunikativ va ekspressiv funksiyalarini ochib beruvchi izlanishlarga jiddiy eʼtiborni jalb etish;

9) soʻnggi paytlarda oʻz holiga tashlab qoʻyilgan terminalogiyada mavjud boshboshdoqlikka barham berish, terminlarni muvofiqlashtirish va unifikatsiya qilish va h.k.

Jahon lingvistikasi yutuqlarini oʻrganayotgan, ularni har tomonlama tahlil etayotgan, ayni chogʻda, tilshunoslikda yuz berayotgan keskin metodologik bahslarda munosib oʻrin egallashga intilayotgan til haqidagi fanimizning XXI asrda jiddiy yutuqlarni qoʻlga kiritishiga shak-shubha yoʻq.

2-MAVZU. OʻZBEK TILINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI MUAMMOLARI

Reja:

1. Lingvokulturologiya va uning oʻrganish obyekti haqida.
2. Til va madaniyat mushtarakligi.
3. Til madaniyatning tarkibiy qismi sifatida.
4. Til madaniyat ifodalovchisi va tashuvchisi sifatida.
5. Madaniyatlar dialogida tilning funksiyasi.
6. Til birligining madaniy semasi masalasi.
7. Etnik madaniyat va muloqot madaniyati muammolari.

Antropotsentrik tilshunoslikning etakchi yoʻnalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya (*lot. lingua* – til + *lot. cultura* – ishlov berish + *yun. logos* – taʼlimot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohaları hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan oʻzaro aloqasi va taʼsirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida oʻrganuvchi sohadir¹. Tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, mazkur soha XX asrning

¹ Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.

so‘nggi choragida shakllandi, “lingvokulturologiya” termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ldi¹. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar². Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyay, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi³.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi⁴.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir⁵. Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi⁶. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va

¹ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

² Қаранг: Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.

³ Қаранг: Маслова В.В. Лингвокультурология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243; Махмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.

⁴ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

⁵ Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.

⁶ Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9.

madaniyatning o‘zaro ta’siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o‘rganiladi. SHu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi¹.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomenini bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”². G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiya markazining madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”³. Lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti haqidagi fikrlar borasida bir to‘xtamga kelingan bo‘lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo‘q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o‘rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o‘rganadi, deb hisoblaydi. SHuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishini ta’kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o‘rganilishi lozim ekanligini ta’kidlaydi⁴.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi⁵. Mazkur o‘quv qo‘llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo‘nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko‘rsatilgan⁶.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko‘rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning

¹ Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9-10.

² Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

³ Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

⁴ Бу хақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

⁶ Маслова В.А. Кўрсатилган ўқув қўлланма.

lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miqlar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Solievning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan¹.

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin².

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. SHunday bo‘lgach,

¹ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – С. 25.

² Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”¹.

Lingvokulturologiyaning bevosita matn bilan bog‘liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: “Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi”². V.A.Maslovaning, xususan, o‘xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e‘tiborga molikdir. Olima o‘xshatishlarning matn yartilishidagi o‘rniga yana to‘xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta‘minlovchi vosita maqomida bo‘lishini aytadi³. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o‘xshatish va uning qisqargan shakli bo‘lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo‘la oladi. O‘xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir hodisa bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovanning so‘zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning “akkumulyatori”dir⁴.

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo‘lib, o‘zida muayyan millat til egalariga xos bo‘lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtda xususan rus tilshunosligida bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. (Pretsedent matnlar haqida ishimizning 4-bobida batafsil mulohaza yuritiladi).

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir masala sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta‘limiy xarakterdagi til birligi bo‘lib, o‘zida intertekstuallikni namoyon etadi⁵.

¹ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10.

² Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – С. 5.

³ Маслова В.А. Кўрсатилган асар. – С. 32.

⁴ Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.

⁵ Sentencia haqida qarang: Saliyeva Z.I. Konseptualnaya znachimost’ i natsionalno-kulturnaya spetsifika sententsii v angliyskom i uzbekskom yazykax: Avtoref. dis. ... kand. fилол. наук. – Tashkent: UzGUMYA, 2010. – 25с.

Z.I.Salieva ingliz va o‘zbek tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o‘rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g‘oyalarning yozuvchi tomonidan o‘zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning “Navoiy” romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi¹. Bu xususiyatni o‘zbek tilida yaratilgan boshqa asarlarda ham ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo‘lgan tuzilishi, olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir². Har bir tabiiy til olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi.

Fikrimizcha, matn-o‘xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo‘lgan matnlarni o‘rganish muayyan etnosga xos bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning etakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, *pretsedent* termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan rus tilida e’lon qilingan nomli maqolada qo‘llangan.

Rus tilshunosligida muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi.

Keyingi davr tilshunosligida onomastik birliklarga turli aspektlarda yondashilmoqda. Ulardan biri lingvokulturologiyadagi onomastik kod nazariyasi hisoblanadi. Bu qarashga ko‘ra nomlar, xususan, badiiy asardagi nomlar til birligi bo‘lishi bilan birga ikkilamchi semiotik tizim hisoblangan madaniyatning etnomadaniy axborot tashuvchi unsuri hamdir[1]. Mazkur qarashni ilgari surgan O.V.Suxarevaning fikricha,

¹ Салиева З.И. Кўрсатилган автореферат. – Б . 14.

² Қаранг: Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

nomlar integrativ yondashuvda, ya'ni ham madaniy, ham konseptual aspektida tadqiq etilishi lozim[2]. Olima, shuningdek, nomlarni etnokonnnotativlik nuqtayi nazaridan o'rganishni taklif etib, shunday yozadi: "Etnokonnnotativlik xususiyatiga ega bo'lgan badiiy onimlar muayyan lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga xos olamning lisoniy manzarasini namoyon etadi va ushbu til sohiblarining tafakkur tarzini teran anglash, ularning tajribaviy, tarixiy-madaniy va dunyoqarashiga oid bilimlarini anglash imkoniyatini beradi"[3].

Pretsedent nomlarni tadqiq etish o'zbek lingvomadaniyatiga xos jihatlarni yoritib berishda ham muhim o'rin tutadi. Fikrimizcha, quyidagilarni aniqlash bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi:

1. Pretsedent nomlarning qaysi lingvomadaniyatga mansubligi, uning sinxron holati masalasi. Ma'lumki, pretsedent nomlar milliy va universal turlarga bo'linadi. Hozirgi vaqtda Ayyub, Afrosiyob, Alpomish, Bog'i Eram, Boychibor, jomi Jam, Iskandar, Ka'ba, Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Odam Ato, Momo Havo, Masih, To'maris, Shiroq, Amir Temur, Hotam, Humo, Usmon, Cho'lpon kabi o'zbek va Sharq lingvomadaniyatiga; Gamlet, Gerakl, Ikar, Kolumb, Otello, Yago, Buratino kabi G'arb lingvomadaniyatiga oid nomlar faol qo'llanmoqda. Xususan, Mustaqillik davrida ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash yo'lidagi sa'y-harakatlar natijasi o'laroq o'zbek tilida To'maris, Shiroq, Muqanna, Amir Temur, Jaloliddin (Jaloliddin Manguberdi), Boychibor, Humo, Cho'lpon, Usmon (Usmon Nosir) kabi pretsedent nomlarning qo'llanish darajasi ortdi. Bu, avvalo, o'zbek xalqining milliy o'zligini, istiqlolning ijtimoiy ahamiyatini anglab etish kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan izohlanadi. Hozirgi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari orqali sport, san'at, siyosat, madaniyatga oid bir qancha nomlar o'zbeklar orasida ham mashhur bo'ldiki, ularning nolisoniy omillari, xususan, o'zbek lingvomadaniyatida tutgan o'rni alohida yondashuvni taqozo etadi.

2. Pretsedent nomlarning allyuziv nom vazifasida qo'llanishi. Pretsedent nomlarning funksional turlaridan biri bo'lgan allyuziv nomlarga nomlar badiiyatida uslubiy figura sifatida qaralsa, lingvokulturologiyada ular ikki madaniy – semiotik maydonni o'zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e'tirof etiladi. Bunda quyidagi ikki jihat e'tiborga olinmog'i lozim: a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi va b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi. Fikrimizni dalillash maqsadida quyidagi matnlarni keltiramiz:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,

Muttahamlar dunyosida, shoh Bobur.
Andijonu Hindu – yetti iqlimda
Topilmadi Sizga bir dodxoh, Bobur.
(S.Sayyid. “Shoh Bobur”).

Nizomiy bolidan halvo pishurmish,
Navoiy zabt etib turkiy jahonni.
(A.Oripov. “Ozarbayjon”)

Birinchi matndagi *Bobur* allyuziv nomi Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub matnni besh asr avval yaratilgan matn bilan – Boburning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” deb boshlanuvchi ruboiysi bilan bog‘lashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi matnda *Nizomiy*, *Navoiy* nomlari vositasida Navoiyning turkiy tilda “Xamsa” yaratish tarixiy faktiga ishora qilingan.

Pretsedent matn nazariyasi yuzaga kelgach, tilshunoslikda vertikal matn pretsedentlik xususiyatiga ega bo‘lishi lozimligi haqidagi fikrlar ilgari surildi. Darhaqiqat, allyuziv nom ostida yashiringan matn pretsedent, ya’ni xalqning lisoniy xotirasida saqlanuvchi, mashhur matndan iborat bo‘lmas ekan, asarda qo‘llangan allyuziya kutilgan natijani bera olmaydi. Bunda allyuziv faktning mashhurligi muhim ahamiyatga ega. Masalan:

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,
O‘z boshingga etgan kun.
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.

(M.Yusuf. “Vatanim”)

Ushbu matnda *o‘tgan kuning* birikmasi orqali ham qatag‘on davriga, ham “O‘tkan kunlar” romaniga, *Qodiriy* pretsedent nomi orqali esa uning fojiali o‘limi haqidagi faktga ishora qilingan. Qodiriy va uning romani haqidagi ma’lumotlarning mashhurligi she’riy matn mazmunining tushunilishida katta rol o‘ynaydi.

3. Pretsedent nomlarning etalon vazifasida kelishi. Pretsedent nomlar ma’lum sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qilish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli muayyan lingvomadaniyatda biror tushunchaning ramzi sifatida qo‘llanadi. Aytish joizki, turli matnlarda Hotam, Luqmoni Hakim, Rustam, Majnun, Layli, Ka’ba, Bog‘i Eram, jomi Jam kabi an’anaviy ramziy nomlarni qo‘llash bilan birga Kumush, Jaloliddin, Kolumb, Otello, To‘maris, Barchin kabi nomlarni ham muayyan tushunchaning ramzi sifatida qabul qilish o‘zbek lingvomadaniyatiga xos xususiyatlardan biriga aylandi. Jumladan,

bugungi kunda – *Kumush* iboli, andishali o‘zbek ayoli, *Jaloliddin* – jasur vatanparvar, *Kolumb* – kashfiyotchi, *Otello* – o‘ta rashkchi, *To‘maris* va *Barchin* nomlari esa mard, oriyati baland ayol ramzi sifatida qo‘llanmoqda. Bunday qo‘llanish mazkur pretsedent nomlarning o‘zbek lingvomadaniyatidan etalon sifatida o‘rin olishiga yo‘l ochadi.

Pretsedent nomlarning etalonlik xususiyati, ayniqsa, she‘riy matnlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Quyida shunday etalonlarning ayrimlariga misollar keltiramiz:

Asqar tog‘ – zabardastlik, ulug‘vorlik etaloni:

Bir yigitlar tug‘ilsinki, bir yigitlar.

Elkalari Asqar tog‘day, aqli raso,

Oriyatli, hamiyatli, nasli raso

Bir yigitlar tug‘ilsinki, bir yigitlar...

(M.Yusuf. “Bir yigitlar tug‘ilsinki...”)

Bog‘i Eram – go‘zal maskan etaloni:

O‘zbekiston shabcharog‘i, olmosi Farg‘onadir,

Erda yulduzlar kabi har erda gavhar yonadir.

Har taraf bog‘i Eram, har manzil koshonadir,

Quvnagan xalqning labida kanda bo‘lmay yonadir.

(G‘.G‘ulom. “O‘zbekiston shabcharog‘i...”)

Gerostrat – shuhratparastlik etaloni:

SHuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek

Diana ma‘badin yoqmoq shart emas.

Ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab,

SHu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas.

(G‘.G‘ulom. “Vaqt”)

Pretsedent birliklar orasida pretsedent matnlar muhim o‘rinni egallaydi. Y.N.Karaulov pretsedent matnlarga shunday ta‘rif beradi: “Birdan ortiq shaxsga tegishli bo‘lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan, ya‘ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo‘lgan va, nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar”[1] pretsedent matnlardir.

Havo mayin, muloyim, shoir aytganidek – “u endi yondirmas, yaltirar faqat”. (Erkin A‘zam. “Yozuvchi” hikoyasi)

Eng muhimi – natija, bayroq – g‘olibniki. SHu bayroq ostida nimalar va‘da qilinmaydi deysiz. Olisdan-olis tog‘ qishlog‘iga gaz olib boriladi, o‘ru qirlar osha tep-tekis asfalt yo‘l o‘tkaziladi, muallimu vrachlarning maoshi bir necha barobar oshiriladi... Xullas, mashhur

intermediyada kulgi qilinganidek, kelinning onasiga – konfet fabrikasi, tog‘asiga – aroq zavodi, o‘lgan buviga yangi kafan... SHunday mo‘jizakor, xotamtoy vallomatni saylamay bo‘ladimi, ayting?! (Erkin A‘zam, “Meni saylang, meni saylang...” Publitsistik miniatyura) Berilgan matnlarning birinchisida “u endi yondirmas, yaltirar faqat” ko‘chirmasi intertekstuallikni hosil qilgan. Bu ko‘chirmaning mazmuni, umuman, o‘quvchiga tushunarli. Lekin o‘quvchi ushbu ko‘chirma olingan she‘rning to‘liq matni bilan ham tanish bo‘lsa, uning mazmunini yanada chuqurroq anglashi mumkin, chunki she‘r muallifi – A.Oripovning keyingi misralarda tabiat tasviri orqali olisda qolgan yoshlikdagi tuyg‘ulariga ishora qilganligi yaqqol seziladi:

*Quyosh ham falakda bamisli ro‘yo,
U endi yondirmas, yaltirar faqat.
Do‘stlar, u ham endi quyoshmas aslo,
U olis yoshlikda qolgan muhabbat.*

(“Kuz manzaralari”)

Ko‘rinadiki, she‘r bilan tanish bo‘lmagan o‘quvchida matnga kiritilgan misra kuz havosining tasviri sifatida taassurot qoldiradi. She‘r bilan tanish bo‘lgan o‘quvchi esa ushbu misralar orqali umriga kuz fasli kirib kelgan hikoya qahramonining ruhiy holatiga nozik ishora borligini his qiladi.

Demak, E.A‘zamov tomonidan qo‘llangan “U endi yondirmas, yaltirar faqat” matni intertekstuallikni hosil qilgan bo‘lsa-da, A.Oripovning “Kuz manzaralari” she‘ri bilan yaxshi tanish bo‘lgan o‘quvchilargina bu matn yozuvchi tomonidan nima maqsadda qo‘llanganini fahmlay oladilar.

Keyingi matnda keltirilgan *kelinning onasiga – konfet fabrikasi, tog‘asiga – aroq zavodi, o‘lgan buvisiga – yangi kafan* ko‘chirmasi esa o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til sohiblarining asosiy vakillariga “Uchrashuv” nomli telefilm orqali juda yaxshi tanish. (Bu so‘zlar O‘zbekiston xalq artisti Ergash Karimov tomonidan aytiladi) SHu sababli mazkur matn mazmunini tushunish uchun maxsus bilim talab etilmaydi. Binobarin, bu matn ko‘pchilikka tanish ekanligi va shu boisdan qayta tiklanish xususiyatiga egaligi bilan pretsedent matnga misol bo‘la oladi. Umuman, o‘zbek tilidagi mashhur she‘r va qo‘shiqlardan, Qur‘on va Hadislar, latifalar, ertak, rivoyat, kinofilmlardan olingan matnlarni pretsedent matnlar sirasiga kiritish mumkin. Ular matn tarkibida aynan yoki o‘zgartirilgan holatda qo‘llanishi mumkin.

3-MAVZU. O‘ZBEK TILINING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI MUAMMOLARI

Reja:

1. Nutqiy vaziyat tushunchasi.
2. Nutq vaziyati va nutq.
3. Nutqning sotsial xususiyati va nutq vaziyati.
4. Nutqning sotsiopragmatik sistema ekanligi.
5. Til va shaxs.

O‘tgan asr so‘ngida bozor iqtisodiyotining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining ommalashuvi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashib, tilshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga e‘tiborni kuchaytirdi. Natijada fanda sotsiolingvistika, etnosotsiolingvistika, lingvopragmatika, pragmalingvistika, pragmatika, psixolingvistika kabi nomlar bilan yuritiluvchi yangi tarmoqlari shakllandi. Bu yo‘nalishlarni o‘zida mujassamlashtirgan yangi davr tilshunosligi nutqqa insoniy faoliyat – fikr almashish va o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta’sirchanligi, mantiqiyliги tadqiqini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Xususan, bugungi kunda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning implikaturalari bo‘lgan ko‘chma va tag ma’nomlarni, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi so‘zlovchining maqsadi bo‘lgan ma’lumot-axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi.

Struktur tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tilga boshqa hodisalardan, xususan, inson omilidan xoli qilingan “quruq”, statik sistema sifatida munosabatda bo‘lib keldi.

Tilning voqelanishda inson omili bilan bog‘liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo‘nalishning o‘rganish manbaini tashkil etadi. Ma’lumki, nutqiy muloqot o‘nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistemadir. Demak, insonning mental faoliyati bilan bog‘liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi kulturologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson subyektivi va obyektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi. Zero, nutqda subyektivlik va obyektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas, sistemaviylik

yaxlitlik xossasi bilan xarakterlanadi. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sistemalar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi.

Lisonning nutqiy voqelanishini unga hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmalari (fiziologik, ruhiy, professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati – nutq sharoiti, nutq uslubi) qurshovida tekshirish natijasida lisonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta'siri va roliga baho, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta'sirchanlik – bunyodkorlik ahamiyatiga ilmiy tavsif beriladi.

O'tgan asrning 80-yillarida umumiy va roman tilshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis, Moskva davlat universiteti professori R.A.Budagov yangidan kuch olayotgan «matn lingvistikasi»ni hech qanday tilshunoslikka aloqasi yo'q, istiqbolsiz soha ekanligini isbotlashga chinakamiga kirishdi. Uning fikricha, «qattiq mehnat evaziga mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan tilshunoslikning» yana qaytadan til tizimiga oid bo'lmagan hodisalar bilan qiziqishi uni boshqa fanlar bilan qorishib ketishiga sabab bo'lishi mumkin ekan (Budagov 1980: 85-86). Bilmadim, o'z gumonini maqolaning sarlavhasidayoq bayon etgan («Matn tilshunosligi qay darajada tilshunoslik?») Ruben Aleksandrovich pragmalingvistika haqida nima degan bo'lar edi? Lekin uning matn lingvistikasini chilparchin qilish maqsadida keltirgan izohlari olimning pragmalingvistik g'oyalarni puchga chiqarishga tayyorligining mantiqiy dalilidir. Bu vazifani R.A.Budagovning «materialistik tilshunoslik» targ'iboti borasidagi sodiq safdoshi MDUning yana bir professori O.S.Axmanova o'z shogirdlari bilan bajarishga urinib ko'rganligini ham fanga ma'lum (Aleksandrova 1985: 72-73).

Agarda tilshunoslikning mustaqilligini uning sofliqi, ya'ni sof lisoniy hodisalar tadqiqi bilan mashg'ul bo'lishi mazmunida tushunsak, unda tilshunoslikni faqatgina til qurilmasi tuzilishining tavsifi bilan shug'ullanuvchi fan sifatida e'tirof etishga majbur bo'lamiz. Ammo bunday majburiyatni kim bizga zo'r'lamoqda?! Insonning voqelikni bilishga ehtiyoji o'sib boradi. *Lison ham voqelik, u voqelikdagi mavjud hodisa.* Shunday ekan, til qurilmasi ne sababdan u yoki bu tuzilishni olishini yoki ushbu qurilma mexanizmlarini harakatga keltiruvchi energiya – kuchning manbai qaerda ekanligini, umuman lisoniy qurilmaning qanday va nima maqsadda «ishlatilishini» bilishga qiziqmaymizmi?!

Soʻzsiz, dunyoni bilish faoliyati tasnif va tavsifsiz kechmaydi. *Tasniflash harakati* – inson bilish faoliyatining muhim amalidir, zero, voqelikni idrok etish niyatidagi shaxs dastlab ushbu voqelikni boshqasiga qiyoslaydi va uning umumiy, xususiy belgilarini topish yoʻli bilan maʼlum turga kiritadi. Lisoniy hodisalarni bilish istagi ham aynan tasniflash harakatidan boshlanadi. Lisoniy birliklarning tuzilishini bilishda murojaat etiladigan dastlabki amallardan biri ham formal-mantiqiy tasniflash amali boʻldi. Ammo bu amalga tovush va grammatik tizimlar oson «boʻysunishgan» boʻlsa, lisoniy semantik hodisalarning unga «bosh egishi» oʻta qiyin kechdi. Natijada, lingvistika «qarama-qarshiliklar» qiyosiga asoslangan struktur uslubli tasnifdan tilni *harakatdagi tizim* sifatida tasavvur etish gʻoyasini targʻib etuvchi tizimlashtirishga oʻtishga majbur boʻldi. Biroq har ikkala holda ham tilshunoslik empirik tahlil doirasidan chiqib keta olmadi va uning asosiy tadqiq obyekti byevosita idrok etiladigan lisoniy struktura hamda grammatika va lugʻat hududidan joy olgan maʼlumotlar boʻlib qolaverdi. Bu hudud chegarasidan chetga chiqish hamda empirik kuzatish tajribasidan bir oz boʻlsa-da chekinish «nolingvistik», hatto «noilmiy» tamgʻalarini olishi ham hech gap emas edi.

Borliq haqidagi *tizimiy, metodologik va tanqidiy* bilimni oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan faoliyat boʻlgan fan faqatgina empirik kuzatish bilan cheklanib qolmasligi aniq boʻldi. Toʻgʻri-da, bilish faoliyati bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyatdir, u zohirdagi xususiyat, munosabatlardan botindagi mazmun-mohiyatga qarab yoʻl oladi. «Sharq Arastusi» nomini olgan Abu Nosir al-Forobiy «Kitob – al xuluf» asarida bilish harakati ikki yoʻnalish olishini va ulardan biri «byevosita sezishga yaqin turgan maqsadni, ikkinchisi esa ongli idrokka yaqinligini» oldingi oʻringa qoʻyishini qayd etgan edi. Undan toʻqqiz asr keyin yashagan Georg Gegel (ʻegel) 1807 yilda nashr qildirgan asari «ʻanomenologie des Geistes» «Ruh fenomenologiyasi» asarida bilish faoliyatining koʻp bosqichli ekanligi haqidagi fikrni takrorladi va bu faoliyatni haqiqat yashiringan, botinga qarab tushadigan zinapoyaga oʻxshatdi. Darhaqiqat, bilish faoliyatining koʻzlagan maqsadi va tutgan yoʻli voqelik hodisalarini kuzatib tavsiflashdan tashqari, ularning mohiyatini idrok etishdir.

Lison inson mavjudligini, uning ijtimoiy tajriba-faoliyatini taʼminlovchi hodisadir. Demak, lison tadqiqi bilan shugʻullanayotgani kimsa beixtiyor *oʻzini bilish* bilan mashgʻuldir, zero, lisoniy faoliyat

hodisasining mohiyati – uning ijrochisi – shaxs va ushbu shaxsning ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi.

Darvoqe, fenomenologiya ruhidagi g‘oyalar til haqidagi fanning sistem tilshunoslik, funktsional tilshunoslik kabi sohalariga qisman bo‘lsa-da, o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan edi. Uning ta’siri, ayniqsa, G.Giyom va A.A. Potebnya ta’limotlarida sezilarlidir. Binobarin, lisoniy faoliyat jarayonida bilish va ijodiy yaratish maqsadlarining qay yo‘sinda «omuxta» bo‘lishi hamda shu asosda insonning voqelikni qanday o‘zlashtirishi muammolari ustida bosh qotirgan A.A.Potebnya lisoniy belgilarning qo‘llanishidagi shakl va mazmun mutanosibliigi inson tafakkur faoliyatining qonuniyatlari bilan bog‘liq ekanligi haqidagi fikrni muhokamaga tashlaydi. Ukrain tilshunosi ko‘pchilik bildirayotgan «so‘z fikrni ifodalash va uni boshqalarga uzatish uchun kerak» qabilidagi g‘oyaning noto‘g‘ri ekanligini quyidagilar bilan izohlamoqchi bo‘lgan edi. Uningcha, so‘zning har bir qo‘llanishi yangi fikrning yaratilishidir va bu yangi fikr tafakkurdagi oldingi zahiralarining yangi tasavvur, yangi savollar asosida qayta guruhlanishi va o‘zgartirilishi natijasidir. «Shunga binoan, - deb yozadi A.A.Potebnya, - so‘z tayyor fikrni ifodalovchi va uzatuvchi vosita sifatida talqin qilinmasligi lozim; u dastlabki o‘rinda fikrlovchining o‘zi uchun kerak, chunki bu o‘zgarishlarni so‘z uning o‘zida hosil qiladi» (Potebnya 1990: 115). So‘zning fikrni uzatish vositasi bo‘la olishini faqatgina uning tinglovchini oldin so‘zlovchi bajargan mental faoliyatni takrorlash hamda o‘z aqliy zahiralaridagi materialdan foydalangan holda, o‘xshash fikr yaratishga undashida ko‘rish mumkin. «So‘zlash o‘z fikrini o‘zgaga etkazish bo‘lmasdan, balki unda uning o‘zining fikrini uyg‘otishdir» (O‘sha asar: 15).

Qisqasi, tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g‘oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdi. Bunday tayyorgarlik, izlanishlar zoe ketmadi, o‘tgan asrning oxiri tilshunoslik taraqqiyotida o‘ziga xos yangi bosqich, yangi rivojlanish davri bo‘ldi. Shu davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g‘oyalarni o‘zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo‘nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo‘nalishlardan biri, albatta, *pragmalingvistikadir*.

Pragmalingvistika, hech qanday gumonsiz «tetapoya» davridan o‘tdi, ushbu soha o‘z tadqiq obyektini (nutqiy muloqot tizimi) va tahlil metodlarini asosan aniqlab oldi. Pragmatik tahlil tamoyillarini belgilovchi asosiy metodologik g‘oya ham aniq: bu – *faoliyat*

nazariyasidir. Ammo pragmalingvistika hamon «navqironlik» davrida. Navqironlik esa – istiqbolli rejalarga to‘liqlikdir, hozircha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan tap tortmaslikdir. Darhaqiqat, barkamollikka intilayotgan pragmatika fani lisonning inson, jamiyat xizmatida bo‘lishidagi vazifasining qanday amalga oshirilishi borasida izlanishlarni davom ettirishga majbur. Bu izlanishlar lisoniy bilim sohasidagi ushbu yo‘nalishning yangi nazariy g‘oyalar bilan boyitilishini talab etadi.

Qo‘lingizdagi risolani yozishdan maqsad ham *hurmatli kitobxon*, sizni pragmalingvistik tahlil asoslari bilan *tanishtirish*, hozirgi paytda mavjud bo‘lgan muammoviy masalalar haqida *fikr bildirish*, pragmatikaning boshqa semiotik hodisalar qatoridagi *o‘rnini aniqlash* va uning lisoniy faoliyatda *ustuvorligini asoslash* kabi vazifalar ijrosidir. Xullas, bo‘lg‘usi pragmalingvist ushbu sohaning nazariy g‘oyalari, tahlil uslublari, metodologik tamoyillari haqida bilimga ega bo‘lmog‘i kerak. Faqat shundagina u til tizimi va lisoniy muloqot haqidagi fan – tilshunoslikning boshqa fanlar doirasidagi o‘rnini seza oladi hamda uning mazmun-mundarijasini voqelikni ilmiy tasavvur etish imkonini ta’minlovchi falsafiy – metodologik g‘oyalar tashkil qilishini idrok eta oladi. Buning uchun esa, o‘z navbatida, lison haqidagi fanning ilmiy tahlil obyekti, predmeti boshqacha tus olayotganligi hamda shu asnoda uning boshqa ilm sohalari davrasidagi mavqei ham o‘zgarayotganligini his etmoq darkor. Biroq har qanday nazariya, u qanchalik ilmiy-g‘oyaviy asoslangan bo‘lmasin, amaliyotdagi isbotga muhtoj, tahlil obyektining mohiyatini to‘liq tavsiflash uchun nazariya faktlarga, voqelikdagi hodisalarga murojaat qiladi. «Faust»dagi misralarni eslaylik:

Grau, teurer Feund, ist alle T’eorie,

Doch grun des Lebens goldner Baum.

Mazmuni: «*Nazariya, do‘stim, quruqdir (yalong‘ochdir), hayot daraxti esa – yam-yashil*».

Ha, pragmalingvistik tahlil nazariyasining yalong‘ochlash xavfidan qo‘rqib, kitobxonni ushbu tahlil amaliyoti bilan ham tanishtirish maqsadini ham ko‘zlamodaman. Buni, ayniqsa, nutq aktlari guruhlarini farqlash, muloqot tizimi birliklarini ajratish hamda deysis hodisasi tavsifiga oid qismlarda sezish mumkin.

Biroq hech qanday ilmiy tahlil to‘liq bo‘la olmaganidek, biror bir hodisaning ilmiy bayoni ham bir ma’noli bo‘la olmaydi yoki bir xil ohangda kechmaydi. Zero, voqelikning o‘zini ham bir mazmunda

anglash qiyin masaladir. Yakka ma'noli voqelikni faqatgina uni ideallashtirish yo'li bilangina tasavvur qilish mumkin. Mashhur mantiqshunos Rudolf Karnap (1891-1970) aytganidek, mantiqiy va sof matematik qonunlar albatta, umumiydir, lekin ular voqelik haqida hech qanday ma'lumot berish qobiliyatiga ega emasdir. Bu qonunlar «alohida tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarnigina ifodalaydilar... uch plyus birning har qanday voqelikda ham to'rt bo'lishiga ishonchimiz komil. Lekin bu tasdiq biz yashayotgan voqelik haqida biror narsani (ma'lumotni –Sh.S.) bera olmaydi» (Karnap 1971: 47-49).

Har qanday ilmiy tahlil o'rganilayotgan obyekt haqida, uning ma'lum voqelikda mavjud bo'lgan xususiyatlari haqida aniq ma'lumot bermog'i darkor. To'plangan ma'lumotlar asosida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan xulosalar shakllanadi. Xulosalarda obyektning tub, haqiqiy mohiyati va uni bilish jarayonida aniqlangan xususiyatlar aks etadi. Demak, haqiqiy mohiyatni bilish izmidagi tadqiqotchi gnoseologik hodisalar ontologik qiymatiga tayanadi. Xuddi shu sababga ko'ra ushbu risolada pragmalingvistik hodisalar tahlilida «erkin fikrlilik» tamoyiliga amal qilish maqsadini ko'zlamodaman. Ilmiy tafakkurdagi bunday erkinlik, tahlil etilayotgan obyektning ontologik mohiyatini nazardan qochirmasdan turib, muhokama qilinayotgan muammo echimiga turlicha yondashish, qo'llanilayotgan usullarning turli-tuman bo'lishiga imkon beradi. Qisqasi, bunday poliintentsiyali (ko'p maqsadli) tadqiq obyekt mohiyatini yorituvchi xususiyatlarning ko'pqirrali ekanligini anglashga yordam beradi. Eng asosiysi, bildirilayotgan fikrda mulohazali bo'lish va o'zgalar fikriga ham o'rin qoldirish o'quvchini bahsga tortish imkonini yaratadi.

Suhbatdosh kitobxonni topish har qanday muallif uchun sharaf bo'lsa kerak. Bunday istak Zahiriddin Muhammad Boburni ham ijodga undaganligining guvohimiz:

Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak.

O'rgangali ilm tolibi ilm kerak!

Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,

Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

Men ham bir tilshunos sifatida suhbatdosh topish ilinjidaman. Agarda ushbu risolani o'qigan har kim muallif bilan munozara yuritish niyatida bo'lsa, bunday «diskursiv qadam»ni minnatdorchilik bilan qabul qilaman, bajonidil suhbatdoshingiz bo'lishga tayyorman.


«So'zboshi»ning yakunida yana bir narsani qayd etishni istar edim. Ilmiy faoliyat jarayonida juda ko'p hamkasblarimning ishlari,

asarlaridan ilhom, intellektual ozuqa oldimki, ularning barchasining nomlarini zikr etish va tashakkur bildirishning imkoni bo'lmaydi. Ulardan uzr so'rayman. Lekin menga lison kabi ummonning siru asrorini bilish yo'llarini ko'rsatgan olimlar: *Viktor Maksimovich Jirmunskiy, Boris Aleksandrovich Serebrennikov, Solomon Davidovich Katsnelson, Agniya Vasilyevna Desnitskaya, Elena Samoylovna Kubryakova, Boris Aleksandrovich Ilish, Anatoliy Mitrofanovich Muxin, Yuriy Sergeyeovich Maslov, Aleksandr Mixaylovchi Shcherbak, Vladimir Mixaylovich Pavlov, Dmitriy Mixaylovich Nasilov, Inga Borisovna Dolinina, Viktor Samuilovich Xrakovskiy, Anatoliy Semyonovich Liberman, Aleksandr Vladimirovich Bondarko, Elizaveta Arturovna Referovskaya, Zinaida Yakovlyevna Turayeva, Tatyana Mixaylovna Belyayeva, Leonard Georgiyevich Gertsenberg, Varvara Vasilyevna Burlakova, Valentin Vasilyevich Bogdanov, Stanislav Vasilyevich Voronin* va boshqalarga ta'zimni unutmayman. Ustozlarim qatoriga kiyevlik professorlar *Georgiy Georgiyevich Pocheptsov, Vasiliy Egorovich Kovalenko, Aleksandr Nikolayevich Moroxovskiylarni* ham kiritishni istardim.

Mazmuniy sintaksis og'ushiga etaklagan Kalinin (hozirgi Tver) universiteti professori *Ivan Pavlovich Susovning* rahbarlik qilgan «Lisoniy muloqot semantikasi va pragmatikasi» muammoviy guruhining ishlarini ham o'qiganman hamda *V.I.Banaru* (Kishinyov), *O.G.Pocheptsov* (Kiyev), *A.A.Romanov* (Tver), *V.I.Karasik* (Volgograd), *L.G.Vasilyev* (Kaluga), *M.L.Makarov* (Tver), *A.A.Zalyevskaya* (Tver), *G.I.Bogin* (Tver), *S.A.Suxix* (Krasnodar), *V.V.Lazaryev* (Pyatigorsk), *A.A.Prokopchuk* (Xarkov), *A.A.Pospelova* (Leningrad), *Z.A.Xaritonchik* (Minsk), *D.G.Bogushyevich* (Minsk), *A.M.Shaxnarovich* (Moskva), *E.I.Belyayeva* (Voronej), *I.M.Kobozyeva* (Moskva), *V.Z.Demyankov* (Moskva), *I.K.Arkipov* (Leningrad) kabi olimlar asarlaridan foydalandim. Shuningdek, yurtdosh professorlar *J.Bo'ronov, A.Abdualazizov, G'.Salomov, E.Begmatov, H.Ne'matov, D.Ashurova, A.Bushuy, U.Yusupov, M.Umarxo'jayev, G.Boqiyeva, A.Mamatov, M.Rasulova, M.Jusupov, A.Sodiqov, S.Raximov* va boshqalarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalardan ham unumli foydalanishga to'g'ri keldi.

Demak, nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan «boyitilishi», idrok etilishi natijasidir.

Mazmunining bu yoʻsinda shakllanish jarayonini quyidagicha izohlash mumkin:



Yuqoridagi shakl guvohlik berishicha, nutqiy akt mazmunining tarkib topishi va uning voqelanishi byevosita soʻzlovchining muloqot maqsadi, istagi bilan bogʻliqdir. Shu sababli boʻlsa kerakki, pragmalingsvistlar va mantiqshunoslar hozirgacha lisoniy belgilarning nutqiy aktlar maʼnoviy tuzilishida tutgan oʻrni haqida bir toʻxtamga kelisha olmayaptilar. Jon Syorlning bu borada aytgan fikrini olaylik: «Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek, simvol (ramz), soʻz yoki gap emas, hatto simvol soʻz yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol, soʻz yoki gapning *nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilishi va qoʻllanishidir*. ...Yanada aniqrogʻi, gap belgisining maʼlum sharoitda yaratilish va qoʻllanishi nutqiy aktdir va nutqiy aktlar lisoniy muloqotning asosiy va eng kichik (minimal) birligidir». Demak, nutqiy akt nazariyasi uchun gap tayanch birlik emas, undan tayyor «material» sifatida foydalanilmaydi. Aksincha, gap aynan nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa. Shunday ekan, nutqiy akt mazmuni toʻligʻicha soʻzlovchining muloqot maqsadi bilan bogʻliq boʻlib qoladi.

J.Syorlning nutqiy akti muloqot tizimining asosiy, tayanch birligi sifatida qarash kerakligi haqidagi fikrini toʻligʻicha quvvatlash mumkin. Ammo nutqiy aktning diskursni (muloqot matni) tarkib toptiruvchi, tuzuvchi emas, balki uni qismlarga ajratuvchi hodisa deb talqin qilinishiga eʼtirozimiz bor. Holbuki, lisoniy hodisalar talqinida ularning yaratuvchanlik imkoniyatlariga alohida eʼtibor qaratmoq darkor. Nutqiy akt ham bundan mustasno emas, u ham matn tuzish, murakkab muloqot birligi boʻlmish diskursni tarkib toptirish vazifalarini bajaradi.

Nutqiy aktning bu turdagi vazifalarini aniqlash uchun intensiya tahliliga, yaʼni nutqiy harakat maqsadini aniqlashga yoʻnaltirilgan tahlilga murojaat qilmoq kerak. *Intentsional tahlil*da kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning soʻzlovchi maqsadi, istagi

bilan bog‘liq tomonlari o‘rganiladi. Odatda, ushbu tahlil uslubi asoschilari (Searl 1983) har bir nutqiy harakatga yagona bir maqsadga (yagona intentsiyaga) ega bo‘lgan birlik sifatida qarash tarafdoridirlar. Ammo men bu dunyoni juda erta tark etgan marhum do‘stim, Kiyev universitetining professori Oleg Georgeyevich Pocheptsov fikriga qo‘shilish istagidaman. Uning talqinicha, «nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad so‘zlovchi ko‘zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichidir» (Pocheptsov 1986: 75). Shuning uchun ham olim umumiy intentsiyani ikki qismga ya’ni «*boshlang‘ich intentsiya (maqsad)*» va «*natijaviy intentsiya*»ga ajratishni taklif qiladi. Intentsional tahlilning bu turi haqiqatdan ham nutqiy aktning mazmunini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan, «*Vokzalga qanday borsa bo‘ladi?*» gapi talaffuz etilganda, so‘zlovchining boshlang‘ich maqsadi tinglovchidan kerakli axborotni olish, ya’ni vokzalga qanday borishni bilib olishdir. Lekin asl niyat boshqacharoq: vokzalga etib olish. Xuddi shu niyat oxirgi yoki natijaviy maqsaddir. Demak, nutqiy harakat bajarilishini ikki bosqichli jarayon sifatida qarash mumkin: birinchisida boshlang‘ich maqsad ifodalansa, ikkinchisida natijaviy maqsad hosil bo‘ladi.

O.G.Pocheptsov boshlang‘ich maqsad harakati gapning strukturaviy semantik xususiyatlariga asosan mos kelishini qayd etadi. Binobarin, «*Vokzalga qanday borsa bo‘ladi?*» nutqiy tuzilmasining boshlang‘ich intentsiya akti so‘rovdur, «*Bugun universitetda uchrashuv bo‘ldi*» tuzilmasiniki – darak, xabar berish bo‘lsa, «*Kitobimni qaytar!*» tuzilmasida boshlang‘ich intentsiya so‘zsiz, buyruq, talab qilishdir. Ammo natijaviy maqsad harakatlari birinchidan, son jihatidan ko‘p, ikkinchidan, ular uchun gapning struktur-semantik tuzilishi hech qanday ahamiyatga ega emas. Natijaviy intentsiyaning shakllanishi gaplarning nafaqat ma’no xususiyatlari, balki ularning faollashuv muhiti, nutq konteksti bilan ham bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, natijaviy maqsad akti, lisoniy harakatlar bilan bir qatorda, nolisoniy harakatlarni ham qamrab oladi.

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingvistlar e’tirof etishadi. Ularning ko‘pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular – *lokutiv*, *illokutiv* va *perlokutiv* harakatlardir.

Biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo‘li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu

faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir (locutionary act). Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo'lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi. Masalan, «*Issiq choy damladim*» gapi faqatgina yozuvda qolsa, lokutsiya yo'q. Ammo mazmundor gaplar bekordan bekorga tuzilavermaydi, ularni tuzishdan va talaffuz etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi (bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud). Ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv akt natijasidir. Illokutsiya shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Masalan, yuqorida keltirilgan «*Issiq choy damladim*» gapini talaffuz etish vositasida shu voqea haqida xabar berish, choyga taklif qilish, suhbatdoshning qanday choy ichishini (issiq yoki sovuq) bilish kabi kommunikativ istaklarni ifodalash imkoni bor. Aynan shu kommunikativ maqsaddan qaysi biri ma'lum sharoitda voqelanishiga nisbatan nutqiy tuzilmaning *illokutiv kuchi* (illocutionary force) aniqlanadi.

Har qanday muloqot harakati natijaviy (oxirgi) maqsadni ko'zlab bajarilishi haqida yuqorida gapirildi. Bu maqsadga erishish uchun so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir o'tkazmog'i darkor. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi *perlokutiv akt* nomini olgan. Biz «*Issiq choy damladim*» gapi talaffuzining natijasini tinglovchi ushbu nutqiy harakatni biz istagan maqsadda (masalan, tinglovchi choyning issiqligini eshitib, uni ichishga rozi bo'lishida) qabul qilishda ko'ramiz. Demak, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatidir.

«Illokutsiya» tushunchasi nutqiy akt nazariyasida eng keng tarqalgan tushunchadir. Nutqiy akt strukturasi markazida ham illokutiv harakat turadi. Hatto illokutiv akt to'lig'icha nutqiy harakatning muqobili sifatida qaralish hollari ham uchraydi va nutqiy aktlar tasnifi illokutiv maqsad ko'rsatkichlariga asoslanadi (Searle 1969: 16; Wunderlich 1976: 75; Pocheptsov 1986: 27).

«Illokutiv akt» tushunchasi pragmalogikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida ta'riflanadi. O.G.Pocheptsovning ta'rificha, 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so'zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi (Pocheptsov 1986: 24).

Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, O.G.Pocheptsov illokutsiyaning nutqiy faoliyatdan farqini ko'rsatishga qanchalik harakat qilmasin, u hech qachon kommunikativ faoliyatsiz, insonlararo munosabatni yaratish muhitisiz yuzaga kelmaydi. Illokutiv akt byevosita muloqot strukturasi ishtirokchisi, kommunikatsiyani maqsadli va mazmunli ko'chishini ta'minlovchi nutqiy faoliyat bo'lagidir.

Illokutiv akt hosil bo'lishi uchun ma'lum bir nutqiy tuzilmaning aniq ko'rinishdagi «illokutiv kuchi» (illocutunary force) namoyon bo'lmog'i darkor. Masalan, «*Issiq choy damladim*» kalimasi vositasida choyga taklifni izhor qilish maqsadini ifodalanayotganda, gap tuzilmasining ushbu mazmun ifoda vositasi bo'la olish imkoniyati, ya'ni «kuchi» voqelanadi. Illokutiv maqsad esa fikriy hodisa bo'lib, nutqiy harakatning mazmuni, mundarijasini belgilaydi. Z.Vendler talqinicha, illokutiv maqsad aslida, «mental harakat bo'lib, so'zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi» (Vendler 1985: 243). Illokutiv maqsad nutqiy harakat kuchini namoyon qilish qanchalik muhim bo'lmasin, lekin bu maqsad ushbu kuchning faqatgina bir qismi, bo'lagidir. Zero, nutqiy harakat kommunikativ mazmunining to'liq hosil bo'lishi uchun maqsaddan tashqari, unga erishishni ta'minlovchi vosita va shart-sharoit ham mavjud bo'lishi talab qilinadi. Shuning uchun ham J.Syorl, D.Vanderveken va boshqalar nutqiy harakat illokutiv kuchini etti qismdan tarkib topuvchi hodisa sifatida qaraydilar. Bulardan birinchisi, albatta, kommunikativ maqsaddir, chunki busiz nutqiy harakatning o'zi ham bajarilmaydi. Keyingilari esa qandaydir darajada ushbu qismni to'ldiradilar, ular – illokutiv maqsadga erishish usuli (vositasi), illokutiv kuch voqelanishi jadalligi, voqelanishni ta'minlovchi propozitsion, haqqoniylik kabi mental sharoitlardir.

Illokutiv kuch qismlarining tuzilishi mantiqiy tartibga ega. Aynan shu tartib illokutiv harakatning mustaqilligini ta'minlaydi va uning propozitsiya aktisiz bajarilishiga imkon beradi. Binobarin, «*Afsuski!*», «*Voy, xudo!*», «*Tavba qildim!*» kabi nutqiy birliklar propozitsiya mazmuniga ega emaslar, lekin ular illokutiv jihatdan to'liq shaklga egadirlar, ya'ni ular ma'lum kontekstda kommunikativ maqsad va mazmunni ifodalaydilar.

Ayrim faylasuflar, J.Ostinga ergashib, gaplarning struktur-semantik turlari va bular vositasida bajarilayotgan nutqiy harakatlar o'rtasidagi munosabatni tizimiy xarakterga ega emas, bu munosabat nutqiy harakat illokutiv kuchida qariyb namoyon bo'lmaydi deb hisoblaydilar. Sintaksisning birgina tuzilmasi - alohida gap turli nutqiy muhitda turli

illokutiv kuchga ega bo'lishi va bu bilan turli kommunikativ maqsadni ifodalash vositasi bo'la olishi begumon. Ammo har qanday sintaktik birlikning pragmatik zahirasi chegaralangan, uning illokutiv kuchi muloqot maqsadini ifodalash imkoniyati cheksiz emas. Masalan, «*Bugundan boshlab sizlarni er va xotin deb e'lon qilaman*» yoki «*Binoda chekish ta'qiqlangan*» kabi gaplar maqto'v, so'rov, rozilik, va'da illokutiv maqsadlarini ifodalashi mumkinligini tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, gap struktur-semantik mundariyasi va uning illokutiv imkoniyatlari o'rtasida tizimiy bog'liqlik mavjudligini e'tirof etmoq kerak. Agarda shunday bog'liqlik bo'lmaganda, tinglovchiga so'zlovchining muloqot maqsadini, u bajarayotgan nutqiy harakat mazmunini anglash qiyin bo'lar edi.

Yuqorida aytilganidek, nutqiy harakat strukturasi uchunchi, eng oxirgi bosqichi perlokutiv aktdir. Nutqiy faoliyat ta'sirining natijasi sifatida tavsiflanadigan perlokutiv akt oldingilaridan (lokutsiya va illokutsiya) tubdan farq qiladi. Nutqiy ta'sir natijasini oldindan aytish qiyin, so'zlovchi nutqini eshitgan (yoki o'qigan) tinglovchining bo'lg'usi xatti-harakati, javobi turlicha bo'lishi mumkin. Pragmalingvistlarning o'zlari e'tirof etganlaridek, «perlokutiv akt illokutivdan farqli o'laroq, lisoniy hodisa emas, chunki biror bir perlokutiv natijaga hech qanday nutqiy harakatni bajarmasdan turib ham erishish imkoni bor» (Searle, Vanderveken 1985: 12). Perlokutsiyaning lisoniy tahlil doirasiga kirmasligini J.Lich ham qayd etadi: «Perlokutiv natija tahlili pragmatikaning vazifasiga kirmaydi, chunki pragmatik ta'sir kuchi (nutqiy harakatning – Sh.S.) maqsadi bilan bog'liq, natija bilan emas» (Leech 1983: 203).

Qiziq, nutqiy harakat ta'sirini pragmalingvistik tahlil doirasidan chetga surib qo'ysak, unda muloqot tizimini tumtoq qilib qo'ymaymizmi?! Muloqot so'zlovchiga ta'sir o'tkazish, uni biror javob harakatiga undash uchun bajariladi-ku! Nutqiy muloqot maqsadi *ikki sathlidir*, ya'ni nutqiy harakatda axborot uzatish va kommunikativ pragmatik maqsad voqelanadi. Birinchisida so'zlovchining maqsadi axborot etkazish yoki olish. Ammo axborot almashinuvi harakatlari faqat biror xabar berish yoki so'rash bilan chegaralanmaydi. Bu harakatlar ijrosidan so'zlovchi va tinglovchining talabini, qiziqishini qondirish maqsadi ham ko'zlanadi. Bu esa pragmatik vazifaning bajarilishidir. Demak, muloqot jarayonida pragmatik vazifalar kommunikativ maqsad doirasida voqelanadi. Shuning uchun ham nutqiy

harakat natijasida yuzaga keladigan perlokutiv ta'sirni pragmalingvistik tahlil doirasiga kiritgan ma'qul.

Pragmatika nutqiy ta'sir natijasining hosil bo'lishi ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga masalan, pragmatik mazmuni aniqlashtiruvchi illokutiv fe'llar kiradilar. Ushbu fe'llar nutqiy harakat tarkibida muhim rol o'ynaydilar, ular muloqot maqsadi mazmuni va bajaralayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko'rsatish xizmatini o'taydilar. Masalan, «*Kumushni ertaga kinoga olib boraman*» gapining talaffuzi vositasida va'da berish nutqiy harakati bajariladi, ammo ushbu harakat mazmunini aniq ifodalash uchun illokutiv fe'lni qo'llash imkoni ham bor: «*Kumushni ertaga kinoga olib borishga va'da beraman*». Xuddi shuningdek, «*Dars qilmaysanmi?*» sintaktik birligi so'roq, talab, ogohlantirish, taklif kabi nutqiy harakatlarni ifodalashi quyidagi yo'sinda aniqlashtirilishi mumkin: «*Dars qilmaysanmi, deb so'rayapman (sendan)*»; «*Dars qilmaysanmi? Buni sendan talab qilaman*» (o'qituvchining so'zi); «*Dars qilmaysanmi? Seni ogohlantiryapman*»; «*Dars qilmaysanmi? (kel, birgalikda qilishga taklif qilyapman)*».

Illokutiv fe'llarning ma'no tarkibida talaffuz etilayotgan nutqiy birlikning (gap yoki matnning) pragmatik-kommunikativ mazmunini ifodalovchi sema asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, «*Fan nomzodi R.Suvonovaga dotsentlik unvoni berilishiga roziman*»; «*Fan nomzodi R.Suvonovaga dotsentlik unvoni berilishiga qarshiman*»; «*Fan nomzodi R.Suvonovaga dotsentlik unvoni berilishini talab qilaman*» kabi tuzilmalar bir xil propozitsiyaga ega, ularning farqi faqatgina pragmatik mazmunda, ya'ni turli nutqiy harakatlar ifodalanishida va kommunikativ maqsadlarning har xil bo'lishiga turli illokutiv fe'llar (rozi bo'lmoq, qarshi bo'lmoq, talab qilmoq) qo'llanishi vosita xizmatini o'tamoqda. J.Syorl pragmatik mazmunining bu asnoda namoyon bo'lishini «ifodalanish tamoyili» (t'e 'rinci'le of ex'ressibility) faollashuvi natijasi deb hisoblaydi. Biroq, ushbu tamoyil nutqiy muloqot matnlarida har doim ham bir yo'sinda namoyon bo'lavermaydi. Binobarin, *buyurmoq, ogohlantirmoq, maslahat bermoq, taqiqlamoq, taklif qilmoq* kabi birliklar nutqiy tuzilma tarkibidan joy olib, uning mazmunini oydinlashtirish uchun xizmat qila olishi ma'lum. Lekin, «*Men maqtana olmayman, sendan aqlliroqman*» qabilida maqtanish nutqiy harakatining qo'llanishi ehtimoldan ancha yiroq. Balki, ushbu harakatni bajarayotgan

shaxsning maqtanishga haqqi bordir. U o'z suhbatdoshiga nisbatan aqlliligi haqiqatdir, lekin nutqiy muloqot odobi bunga yo'l qo'ymaydi.

Umuman olganda, nutqiy akt va uning mazmunini ifodalovchi vositalar o'rtasida funktsional va mazmuniy nomutanosiblik paydo bo'lishining sabablari turlicha. Bulardan biri, albatta, ayrim illokutiv fe'llarning ma'no strukturasi so'zlovchi o'zi bildirayotgan fikrning haqiqat ekanligiga ishonmayotganligiga ishora qiluvchi sema, bo'lak mavjudligidir. Masalan, *tahdid qilmoq, ig'vo qilmoq, so'kmoq, haqorat qilmoq, kamsitmoq* kabi birliklarni birinchi shaxsda qo'llash va shu yo'sinda nutqiy harakat mazmunini ochiq bayon qilish mumkin emas. Chunki «*Men senga tahdid qilayapman, o'ldiraman*» turidagi tuzilma nutqiy muloqot ma'nosiga xilof, bunday birliklar faqatgina uchinchi shaxs, ya'ni muloqot jarayonini kuzatuvchi tomonidan qo'llanishi mumkin: «*O'ldiraman, deb unga tahdid qildi*».

Pragmatik maqsad va mazmunning ekplitsit, ya'ni ochiq ifoda etilishida diqqat axborot almashinuvidan ushbu axborotni uzatish maqsadiga ko'chadi va kommunikatsiya maqsadi uzatilayotgan axborotning predmetiga aylanadi. Nutqiy harakat maqsadining ochiq bayoni turli ko'rinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi va bulardan eng asosiysi pragmatikada *performativ formula* (qolip) atamasini olgan.

J.Ostinning qaydicha, har bir nutqiy tuzilma illokutiv harakatni bajarish uchun xizmat qiladi va modal ko'rsatkichlar (mayl shakli, so'z tartibi, ohang va boshqalar) so'zlovchiga u qanday illokutiv maqsadni ifodalash niyatida bo'lganligini bildirish imkonini beradi. Bundan tashqari, shunday tuzilmalar mavjudki, ularning pragmatik mazmuni doimiy, qariyb barcha sharoitlarda bir xil illokutiv kuchga ega bo'ladi va odatda, bunday tuzilmalar tarkibida illokutiv fe'llar qo'llaniladi: «*Ishni bajarishingni talab qilaman*»; «*Homiylik ko'rsatishga va'da qilaman*»; «*Tug'ilgan kuning bilan tabriklayman*» va hokazo. Nutqiy akt nazariyasida bunday tuzilmalar «aniq performativ»lar deb ataladi.

Sotsiopragmatikada hurmat kategoriyasi. Muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro munosabatlar tengligini ta'minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar. Kommunikativ maqsad ifodasi ikki yo'sinda kechishi

ma'lum. Bularning biri intentsiyaning yashirin ifodasi bo'lsa, ikkinchisi fikrni ochiq izhor qilishdir. Yaqinda o'qituvchilarimizdan biri qiziq bir voqeani hikoya qilib berdi: Samarqandda o'tkazilgan anjumanda ishtirok etish uchun kelgan poytaxtlik yirik bir professor shahar markaziy univermagini aylanish istagini bildiradi-yu, yaqinda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, lekin hozircha OAKdan tasdiq olmagan haligi o'qituvchimiz unga hamrohlik qiladi. Univermagda poytaxtlik mehmon charm kurtkani yoqtiradi va uni kiyib, «Eh, attang, etarlicha pul olib kelmabman-ku», deb hamrohiga murojaat qiladi. Tagma'noni anglagan suhbatdosh to'g'risini aytib qo'ya qolibdi: «Domla, kechirasiz, mening ham pulim yo'q».

P.Braun va S.Lyevinsonlar, kommunikativ maqsadni ifodalash yo'llarining farqiga nisbatan «salbiy va ijobiy hurmat»ni (negative and 'ositive 'oliteness) farqlashni taklif etadilar. Ularning birinchisida o'zgalarning vaqtini olayotganligi, e'tiborni jalb qilayotganligi uchun, ularga etkazilayotgan «zarar»ning o'rnini to'ldirish ehtiyoji bajariladi. Binobarin, «*Kechirasiz, band ekanligingizni bilaman, lekin menga maqolani yozishga yordam bera olmaysizmi?*» Lekin xuddi shu iltimos intentsiyasi do'stona vaziyatda, ijobiy hurmat sharoitida boshqa ko'rinish oladi: «*Menga ushbu maqolani tugatishga yordamlashib yubor!*»

Ikki turdagi hurmat strategiyalarini faollashtiruvchi lisoniy vositalar tuzilishi jihatidan o'zaro farq qiladilar. Masalan, salbiy hurmat strategiyasini (negative 'oliteness strategy) faollashtiruvchi nutqiy tuzilmalar struktura jihatidan mukammalroq ko'rinishga ega bo'lib, ular ko'pincha bilvosita nutqiy aktlarni ifodalovchi tuzilmalar (so'roq gap,

shart mayli va hokazo) vositasida hosil bo‘ladi. Bilvosita ifodalanayotgan, mazmunan unchalik aniq bo‘lmagan, odatda shakliy jihatdan uzun nutqiy tuzilmalarning qo‘llanishi so‘zlovchi hurmat va qadriyatni saqlashga urinayotganidan darak beradi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mualliflar hurmat tamoyili pragmatik tahlilini nazariy jihatdan asoslab berishdan tashqari, ushbu tamoyilni faollashtiruvchi vositalar, ularni qo‘llash mexanizmlarini tizimlashtirgan holda tavsiflashga harakat qilib kelmoqdalar. Eng asosiysi, bu mavzudagi izlanishlar uzluksiz davom etmoqda, ilmiy nashrlar soni tobora o‘sib bormoqda (oxirgi bibliografik ko‘rsatkichlardan biri: Dufon, et al 1994).

So‘zsiz, hurmat tamoyili qoidalarining muloqot jarayonida faollashuvi boshqa qator sotsiopragmatik hodisalar qurshovida kechadi. Turli tamoyil va qoidalarning «uchrashuvi» odatda, muloqot samarasiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi, ammo bunday «uchrashuv»lar ba‘zan ziddiyatli kechishi ham mumkin. Binobarin, olijanoblik va kamtarlik qoidalari doimo ham o‘zaro hamroh bo‘la olmaydi, zero, o‘ta olijanoblik maqtanchoqlikka olib keladi. Maqtanchoqlik va kamtarlik bir-birini inkor etuvchi xususiyatlardir.

Xuddi shuningdek, hamkorlik tamoyiliga oid bo‘lgan sifat qoidasi hurmat tamoyilining ma‘qullash, tahsin qoidasiga mos kelmasligi holatlari uchraydi. Biror kishi yoki narsani maqtayotib, haqiqatdan uzoqlashishimiz, ya‘ni ushbu shaxsga (narsaga) unga xos bo‘lmagan sifatlarni «taqab» qo‘yishimiz ham hech gap emas. Boz ustiga, o‘ta kamtarlik, har qanday izohga rizolik ham sifat tamoyilidan chetlashishga, haqiqatdan uzoqlashishga olib keladi.

Xullas, sotsiopragmatik tamoyil va qoidalarning matnda faollashuvi muloqot maqsadiga erishish uchun xizmat qiladi. Ushbu tamoyil va qoidalarga amal qilishda ijtimoiy muhit va nutq vaziyati holatidan, ularni belgilovchi xususiyatdan kelib chiqmoq darkor. Muloqot vaziyati esa byevosita ma'lum ijtimoiy guruh, madaniyat uchun xos bo'lgan norma nuqtayi nazaridan baholanadi. *Norma* ma'lum sotsiumda qabul qilingan ijtimoiy xatti-harakatlar namunalarini belgilab beradi, u umumiy qabul qilingan qoidalar asosida lisoniy vositalar tanlovini boshqaradi. Norma hurmat tamoyili amaliyoti uchun tayanch nuqtadir va kommunikativ maqsad ifodasi shaklni belgilab beradi. Eng qizig'i, til birliklari qo'llanishini belgilovchi normalarning o'zlari ham umumiy aksiologik ko'rsatmalarga amal qiladilar. Baholovchi ko'rsatmalar esa ko'pincha u yoki bu madaniyatga xos bo'lishadi. Masalan, Amerika madaniyatida biror kishi to'satdan yiqilib tushsa, uning ahvolini so'rash uchun *Are you all right?* savolini berish mumkin. Ammo ushbu iborani o'zbek tiliga «Hammasi joyidami?» qabilida tarjima qilsak, yiqilgan odamning ustidan kulgan, uni haqoratlagan bo'lamiz. Bizning madaniyatimiz normasiga *binoan* «*Hech narsa bo'lmadimi? Og'rimayaptimi? YOrdam beraymi?*» qabilidagi savollar berish o'rinlidir.

Xullas, olamning rang-barang va unda kechayotgan voqehodisalarning turli-tuman bo'lgani kabi muloqot vaziyatlari ham turli xususiyatlarga egadir. Ular har xil sharoit, muhitlarda hosil bo'ladilar, muloqot ishtirokchilarining munosabatlari ijtimoiy mavqega bir xilda ega bo'la olmaydi. Aynan shu turli-tumanlik muloqot tizimining sotsiopragmatik ko'rsatkichlarini, ijtimoiy deysis qobig'ini tashkil

qiladi. Sotsiopragmatik belgilarni e'tiborga olmaslik nutqiy harakatlar jo'yaliligi tamoyilining talablari buzilishiga olib keladi. Professor N.Mahmudov yaqinda e'lon qilgan maqolasida nutqning jo'yalilik sifatini ta'minlash uchun so'zlovchi, ifodalamoqchi bo'lgan mazmundan tashqari, nutqiy vaziyatni, tinglovchi xususiyatlarini, uning ijtimoiy maqomi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi faktorlarni nazardan qochirmasligi lozimligini yana bir karra uqtirdi. Olim jo'yalilik tamoyili talabi qondirilmaganligi qanday oqibatga sabab bo'lishini kichkintoylarga «*Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz!*» kabi rasmiy muloqot shaklidagi jummalarni o'rgatishga intilish mavjudligi misolida izohlab berdi (Mahmudov 2007: 16).

Matnning pragmadiktal belgilari. Matnda so'zlovchi nazarda tutgan axborot har doim ham verbal ifoda tarkibida to'liq ma'noda oshkora bayonga ega bo'lavermaydi. Ko'pincha, oshkora bayon qilinmagan, ammo so'zlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmun ko'rinishlarini matn mazmuniy strukturasidan ilg'ab olish tinglovchi, nutq ishtirokchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun so'zlovchi, tinglovchi hamda nutq ishtirokchilari nutq vaziyati va sotsial kontekstdan to'liq xabardor bo'lish bilan birga, verbal ifodaning mazmuniy tuzilishidagi nozik ifoda qirralarini anglash uchun o'sha tilga xos ma'no ottenkalarini bilishi shart.

Har qanday matnda axborot so'zlovchining ichki maqsadi boshqaruvida ikki mazmuniy ko'rinishdan iborat bo'ladi. Bular yoyiq va yig'iq mazmun shakllaridir. Bunday mazmun shakllari so'zlovchining kommunikativ niyati bilan bog'liq ravishda matnning u yoki bu qismlarida namoyon bo'ladi. Axborot bayon etishning yoyiq shakllariga xos ifoda imkoniyatlari xilma-xil bo'lganidek, yig'iq yashirin ifoda usullari ham turlichadir. Yig'iq-yashirin

axborot kontekstlari turlicha shakllardan iborat bo'lganligi uchun unga nisbatan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda «bir umumiy tushunchani ifoda etuvchi umumyashirin («implikatsiya») atamasini qo'llaydilar.


O'zbek tilida yashirin mazmun ko'rinishlari alohida dissertatsion planda tadqiq etilmagan. Presuppozitsiya bilan bog'liq anchagina ishlar amalga oshirilgan, biroq klassik adabiyot namunalari kuzatilganda, bu yo'nalishga oid faktik materiallarga nihoyatda boy ekanligimizning guvohi bo'lindi. Hatto klassik adabiyotning nazariy yo'nalishiga oid juda ko'p asarlarda «yoyiq» va «yig'iq» atamalarning mumtoz shakllari mavjud ekanligi, bularning mumtoz adabiyotda «botiniy» va «zohiriy» atamalar bilan nomlanishni o'zbek tilida yoyiq va yig'iq mazmun ko'rinishlarini tadqiqot obyekti sifatida tanlangani mutlaqo to'g'riligini ko'rsatadi.

Implikativ mazmunning umumyashirin shakllariga xos matnlar tarkibiga matal, ibora, maqol, topishmoq kabilar kiritilib, ularda bayon qilingan yashirin ma'no ko'rinishlari farosatli va zukko tinglovchilarning barchasi uchun aniq bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bunday tipdagi yashirin mazmunni umumyashirin mazmun deb yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tagma'no. So'zlovchi nutq predmeti haqidagi axborotni til belgilari yig'indisi yordamida yuzaga chiqaradi. Bu ifoda semantik tuzilishidagi oddiy xabar mazmunini tashkil etadi. Oshkora (eksplitsit) shakl, asosan, ifoda diktumidan iborat bo'ladi. Diktum mohiyati propozitsiya mazmuni bilan yana ham o'zining aniq ma'nosiga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi xususiy munosabat propozitsional mazmun asosidagi diktumning qurshovida bayon qilinada va ba'zida bunday ifodalar yashirin mazmun ko'rinishi sifatida matn ichiga joylashtiriladi. «Matn ichidagi

matn» tushunchasi rus tilshunosligida «podtekst» atamasi bilan nomlanadi. Podtekst atamasi matn, kontekst va nutq atamalari ifodalagan tushunchalar mazmuni bilan bogʻlana olmaydi, ularning varianti sifatida ham qoʻllanmaydi. «Podtekst» atamasi ifodalagan tushuncha mazmuni matn ichidagi «yashirin matn» tushunchasini ifoda etadi. Bu hodisa kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqiy faoliyati, individual uslubi va shaxsning ichki his-tuygʻusi bilan uzviy bogʻliqdar. «Yashirin matn» tushunchasini aniq anglash va toʻgʻri tushunish maqsadida biz uni «tagmaʼno» atamasi bilan nomlaymiz. Tagmaʼno yashirin ifoda birliklaridan biri boʻlib, u oʻzining yuqoridagi belgi xususiyatlari bilan lingvistik pragmatikaning markaziy masalalaridan biri deb qaraladi.

Matndagi tagmaʼno oʻzining yuzaga kelishidagi belgi-xususiyatlariga koʻra quyidagi koʻrinishlarda namoyon boʻladi va nomlanadi (1-shakl).



1-shakl

1. Fonopragmatik tagmaʼno. Tagmaʼnoning bunday koʻrinishi soʻzlovchining talaffuz ohangi bilan bogʻliq boʻladi. Soʻzlovchi bunda matn tarkibidagi propozitsional akt elementlarini oʻziga xos ohang bilan - emfatik usul bilan talaffuz qiladi. Soʻzlovchi bunda matnning talaffuz ohangiga alohida urgʻu berish bilan tinglovchiga «men shunaqaman»

tipidagi tagma'noni uzatishga harakat qiladi. Tagma'noning fonopragmatik ko'rinishida matnning umumiy mazmuni ikkinchi planga o'tadi. So'zlovchi talaffuziga xos fonopragmatik ohang usuli birinchi darajali ma'no usuli deb qaraladi; Masalan: *Xurinso erini o'larday go'l podsho, o'zini nihoyatda quv vazir qilib ko'rsatishaa harakat qilar edi.*

Qalandarov keldi. Huriniso eri haqida aytilganlarini amalda ko'rsatmoqchi, yana "shunday odam ham menga bo'yin egadi" demoqchi bo'ldi, shekilli, uni g'azabiga oldi:

- *Kelar edingiz-da... SHu ham ishmi! Hamisha shunaqa qilasiz!.. Qachon tashlaysiz shu fe'lingizni?! - deb shovqin soldi. (A.Qahhor).*

Fonopragmatik tagma'noning ba'zi ko'rinishlarida so'zlovchi o'z nutqi orqali bayon qilingan propozitsiyaning emfatik usul bilan talaffuz qilishi natijasida - undagi alohida ohang samimiylik ma'nosini ifoda etadi.

2. Uslubiy pragmatik tagma'no. Tagma'noning bunday ko'rinishi so'zlovchining individual uslubi bilan bog'liq bo'ladi. Bunga ko'ra so'zlovchi tomonidan undash akti vositasi bilan talab qilingan ma'lum axborot ko'rinishi so'zlovchi nazarda tutgan mazmuni saqlagani holda boshqa propozitsional shakl bilan ifodalanadi. Tinglovchining aynan so'zlovchi nazarda tutgan axborot ko'rinishini boshqa propozitsional shakl orqali ifodalashi uning individual uslubiy mahorati sanaladi. SHuning uchun ham bunday shakldagi tagma'no ko'rinishlari uslubiy pragmatik tagma'no deb yuritiladi. Masalan:

- *Saodat, - dedim. Qaradi. O'choqda yongan olov issig'idanmi yoki*

uyatdanmi uning' yuzi qip-qizil olma edi. Qo'lidagi sochig'i bilan oldimg'a yaqin kelib to'xtadi. - Eshitdingmi, - dedim. Erga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yuriy boshladim-da, - Maylimi? - deb so'radim. Javob o'rniga

- Osh emay ketasizmi? - dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan «mayli» javobi edi. (A.Qodiriy).

Bu matndagi tinglovchi nutqiga xos "maylimi" javobining "Osh emay ketasizmi?" tipidagi mehribonchilik ma'nosini ifoda etuvchi boshqa

iropozitsional shakl vositasida bayon qilinishi uslubiy pragmatik tagma'no deb yuritiladi.

Uslubiy tagma'no ko'rinishlarida so'zlovchi o'z ichki maqsadi aks etgan mazmunni boshqa uslubiy shaklda ifoda etadi. Masalan:

Nihoyat Qalandarov g'ashi keleanini bildirmaslik uchun kulib dedi:

- *Xo'jayin, mehmonga ham so'z beramizmi, yo'qmi?* - dedi. (A.Qahhor). Bu matn parchasidagi uslubiy tagma'no ko'rinishi «gapni to'xtat» mazmunidan iboratdir.

3. Metaforik tagma'no. Tagma'noning bunday ko'rinishlarida so'zlovchi tinglovchini ma'lum bir predmetlarga o'xshatish asosidagi propozitsiyani berish bilan o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi. Natijada matn tarkibida metaforik tagma'no yuzaga keladi. Masalan:

Kolxozni opichlab katta qilgansiz!.. Kolxozning dardi qayer-da, qitig'i qayerda ekanini yaxshi bilasiz!.. «Bo'stonga o'xshagan kolxozlardan o'ntasini bitta sinchalog'ingiz bilan ko'tarasiz!.. Sinchalak degan qushni bilasizmi, oyog'i ipday... SHu qush «osmon tushib ketsa ushlab qolaman» deb oyog'ini ko'tarib yotar ekan! (A.Qahhor). Bu matnda metaforik tagma'no ko'rinishi mavjud bo'lib, u «Sen ham sinchalak degan nozik qushga o'xshaysan, shuning uchun ham qo'lingdan kelmagan ishga urinma» mazmunidan iboratdir.

Metafsrik tagma'noning matndagi ifodasi so'zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikrning ta'sir etish darajasini kuchaytiradi. Tinglovchining his-tuyg'usiga ta'sir etish va yangi nutq vaziyatini yuzaga chiqarishning (perlokutiv aktlar) boshlang'ich nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

Saida bir lahza o'ylanib qolganidan keyin miyivida kulib:

- *Dunyoda bunaqa jonivorlar ko'p. Arslonbek aka, - dedi, - xo'roz ham «Men qichqirmasam tong otmaydi» deb o'ylar ekan...* (A.Qahhor).

Metaforik tagma'noning ushbu ko'rinishi «tongning otishi uchun xo'rozning qichqirishi shart bo'lmaganidek» propozitsiyasi ta'sirida «siz bo'lmasangiz ham kolxozning ishlari bo'laveradi» mazmunidan iboratdir. Metaforik tagma'no ko'rinishlarida bayon qilinayotgan propozitsional akt o'xshatish mazmunidan iborat bo'ladi va ana shu o'xshatish kuchlilik belgisi asosida yuzaga chiqib, bunda so'zlovchi maqsadi aks etadi. Masalan:

- *Siz bolalik qilib, bunaqa xom xayollarga borib yurmang. Men aravadan boshqa ishga yaramaydigan pachoq otday ko‘rin-sam ham, uncha-muncha chavandoz minolmaydigan uloqchi otman! Uncha-muncha odamni erga chalpak qilaman!.. CHalpak! Buni bilib tushunib qo‘ying!* (A.Qahhor) Bu matnda bayon qilingan tagma‘no «Men bilan hazillashmang, kuchingiz etmaydi» mazmunidan iboratdir.

Metaforik tagma‘no noverbal ifoda ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Bunda so‘zlovchi xatti-harakatlari va imo-ishorasida uning ichki niyati aks etib tagma‘no yuzaga kelada Masalan:

SHu mahalgacha hech vaj bilan ko‘zga ko‘rinmagan oddiy bir Ketmonchi so‘z oldi...

- *Ko‘zbo‘yamachilik... Otiga majlis, otiga maslahat...*

... *Qalandarovning oppoq oqargan yuzi, qisiq ko‘zlari atrofidazi tabassumni ifodalashi kerak bo‘lgan ajin uning “echkining orqasi qichisa, cho‘ponning nonini eydi” deb turganini ko‘rsatar edi.* (A.Qahhor)

Verbal ifoda bo‘lsa ham, noverbal ifoda bo‘lsa ham ularning semantik strukturasi so‘zlovchi va tinglovchi nutqiga xos xususiy ma‘no ko‘rinishlari bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. SHuning uchun ham har qanday ifoda semantik tuzilishida nutqiy vaziyatga ko‘ra yashirin xususiy ma‘no komponentlari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

4. Individual xususiy tagma‘no. Individual tagma‘no ko‘rinishlari faqat ba‘zi shaxslar nutqidagina qo‘llanib, ularning xarakterini ochish uchun xizmat qiladi. Bunda so‘zlovchi nutqida qo‘llanayotgan tagma‘no shartli tagma‘no sifatida so‘zlovchi va tinglovchi uchun tushunarli bo‘lgani holda boshqa nutq ishtirokchilari uchun noma‘lum bo‘ladi. Masalan:

Birpas jimliqdan keyin Qalandarov gulzorning narigi tomonidagi idoraga qarab:

- *Eshon, hoy! - deb chaqirdi.* (A.Qahhor).

individual tagma‘noning ba‘zi ko‘rinishlari so‘zlovchi yoki tinglovchining xakteri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tinglovchining nima demoqchi ekanligi uning qanday so‘z bilan munosabat bildirish vositasida anglanadi. Bunday shartli tagma‘no ko‘rinishlari, asosan, so‘zlovchining xakteri bilan aloqador bo‘ladi. Bunday tagma‘nolar individual xususiy tagma‘no ko‘rinishlari sifatida faqat ba‘zi shaxslar nutqidagina taalluqli bo‘ladi. Individual xususiy tagma‘no ko‘rinishlaridan yozuvchi obraz xakterini ochish maqsadida foydalanadi:

Hoji bir qancha vaqt so‘zlash uchun o‘z og‘aziga tikiltirib o‘lturgandan so‘ng, agar ma‘qul tushsa «xo‘b» deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa, “xo‘sh” deydir, noma‘qul bo‘lsa “durust emas”

deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanadi.

O'zbek oyim o'zining itob va xitobiga eridan bir iljayib qo'yish javobini olib dami ichiga tushadir. (A.Qodiriy).

5. Ekspressiv tagma'no. Ekspressiv tagma'no ko'rinishlarida so'zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his-tuyg'ulari ham qo'shiladi. So'zlovchi propozitsional akti sodir etar ekan, o'zi qilgan ishlardan g'ururlanish, maqtanish ottenkalari aks etgan yashirin mazmuni propozitsional akt orqali bayon qiladi. Masalan:

Huriniso.

- Hammasi ham unib o'sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo'limining boshlig'i, biri deputat... Ha, aytganday, qaysi kuni Hakima kelgan edi, qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna etmabdi.

Hurinisoning bu ayollar haqidagi gaplaridan «Men o'qitgan ayollar mana shunaqa martabalarga erishdi» degan iftixordan ko'ra ko'proq, «baribir hammasidan yana o'zim dono» degan bir g'urur aks etar edi. (A.Qahhor).

6. Monologik akt ma'no ko'rinishi. Tagma'noning monologik nutq tipiga xos ko'rinishi ham mavjuddir.

«... bosilmag'uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir!» - bu jumlaning o'qug'anda, - undov bo'lsa sira tinchimangiz, - dedi-da iljayib qo'ydi. (A.Qodiriy).

Bu misolda Otabek «undog' bo'lsa sira tinchimangiz» deyish bilan «o'zimning ham Marg'ilondan sira ketgim yo'q edi, xayriyat» tarzidagi yashirin tagma'no ko'rinishini ifoda etadi. Ba'zi holatlarda so'zlovchi nazarda tutgan tagma'noning to'g'ridan to'g'ri ifodalanishi mumkin bo'lmay qoladi. Bunga tagma'no qaratilgan adresatning ijtimoiy mavqei yo'l qo'ymaydi. SHuning uchun ham bunday vaziyatlarda tagma'no «qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» qabilida bayon qilinadi. Tagma'no o'zining bunday xususiyatiga ko'ra ikkiga ajratiladi. Tinglovchiga to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan tagma'no bevosita ifodalangan tagma'no deb yuritiladi. Ikkinchisi esa bilvosita ifodalangan tagma'no deb yuritiladi.

Tagma'no matn semantikasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u bilan mantiqan bog'langan boshqa qator ma'lumotlar ta'sirida yuzaga chiqadi. Tagma'noning presuppozitsiyadan ajratilishi bular biri ikkinchisi uchun ahamiyatsiz degani emas. Balki presuppozitsiyaning «matn-mazmuniga aloqador va mantiqan bog'langan matn mazmunidan tashqaridagi ma'lumot»larning darakchisi deb qaraladi.

Tagma'no va presuppozitsiya. Presuppozitsiya va tagma'noni farqlab olish kerak. So'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat propozitsiya, presuppozitsiyadan tashqari yashirin ma'no komponentlari bilan ham murakkablashadi. Ana shu ma'no komponentlaridan biri matn orqali yashirin bayonga ega bo'luvchi tagma'no ko'rinishidir.

Tagma'noning matndagi bayoni ikki xususiyatga ega bo'ladi: birinchidan, ko'p hollarda tagma'no oshkora verbal bayonga ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda matndagi tagma'no ko'rinishi propozitsiyalarning mantiqiy tahlili yordami bilan aniqlanadi.

Saidani bu odamlarza begona toifadan qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi:

- Oshdan ichmadingiz-a... Bularning ovqati og'zingizga yoqmaydi... yoqmaydi! (A. Qahhor)

Bu matnda «sen butunlay boshqa toifadansan, shuning uchun ham kolxozchining ovqati senga yoqmaydi» mazmuni tagma'noni hosil qiladi. Bunday vaqtlarda tahlilning mohiyati nutq vaziyati bilan bog'lanadi. Nutq ishtirokchilari nutq vaziyati va mantiqiy tahlil yordamidagi hukmlar bilan tagma'no mohiyatini yoki nimaga ishora qilayotganligini anglab oladilar.

Nazariy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, presuppozitsiya matni semantik murakkablashtiradi. Bunday vaqtda ayrim so'z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o'zining eng ixcham shakliga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo'lishida presuppozitsiya yordamga keladi.

Tagma'noda esa propozitsiya sub'ekt vazifasini bajarib, propozitsiyaning bu vazifasi ikkinchi darajali holatga o'tadi. Bunda faqat propozitsiya shakligina saqlanib, uning mazmuni mohiyat e'tibori bilan tagma'noga qaratiladi. So'zlovchi nazarda tutgan axborot pragmatik qimmatga ega bo'lib, propozitsiya faqat shakliy struktura uchun xizmat qiladi, asosiy ma'no esa nomatniv holat ta'sirida hosil bo'lgan tagma'noga qaratiladi. Misol: *Hoy, Eshon!* Bu vaziyatda ham kimdir matndagi tagma'no mazmunini anglashdan mahrum bo'ladi:

Qalandarov mundayroq mehmon kelsa, yugurdagiga: «Eshon!» der ekan, bu shkkita non bilan bir choynak choy olib kel» degani, «Hoy, Eshon!» desa, osh buyurgani, «Eshon, hoy!» degani esa «hovliga borib, xotinimga ayt, nozik mehmon olib boraman» degani bo'lar zkan... Qalandarov gulzorning narigi tomonidagi idoraga qarab:

- Eshon, hoy! - deb qichqirdi.

Saidaning ko'ngli bir oz yorishdi, ichida: Muxbirning aytgani rost bo'lsa, demak, men nozik mehmon» bo'lsam kerak...» deb qo'ydi. (A. Qahhor).

Agar bu matnda bayon qilingan tagma'no mazmuni presuppozitsiyaga qiyos qilinsa, ular butunlay boshqa-boshqa hodisalar ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Matndagi bu yashirin ifoda ko'rinnshini «shartli ravishda individual xususiy tagma'no» deb yuritimiz.

Umuman, tagma'no presuppozitsiyadan farqli ravishda so'zlashuvchilarning ichki maqsadini yashirin ifodalash uchun xizmat qiladi. Tagma'no har qanday matnda ham bo'lavermaydi. Presuppozitsiya esa istalgan matn semantik tuzilishining mantiqiy tahlili yordamida aniqlanishi mumkin. Presuppozitsiya xabar qilinayotgan axborot maqomiga ega bo'lmaydi, uni ifodaning yashirin mazmuniga tenglashtirib bo'lmaydi. Presuppozitsiyani yashirin ifoda ko'rinishlaridan biri deb hisoblab bo'lmaydi.

Pragmatik to'siq. Pragmatik to'siq deb nomlanayotgan hodisaning mavjudligi yirik olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Jumladan, yirik adabiyotshunos olim o'zining «Adabiyot tildan boshlanadi» maqolasida shunday fikrlarni beradi. «Ko'p hollarda muallif bir-biriga bog'lab bo'lmaydigan tushunchalarni yonma-yon qo'yadi yoki shunday ifodalar qo'llaydiki, ular avtor aytmoqchi bo'lgan ma'noni aniq ifodalash o'rniga xiralashtiradi»¹. Mana shunday hodisalar yo'nalishiga oid dastlabki ma'lumotlar tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov asarlarida uchraydi¹. Unda bu hodisalar pragmatik to'siq deb nomlanmasa-da, o'rtaga tashlangan «g'ayriodatiy birikmalar», «o'ziga «yot» stilda qo'llangan so'zlar», «so'zning aniqligi» kabi mavzularning tahlil natijasi pragmatik to'siq xususidagi hodisaning mavjudligi haqida yana bir karra ma'lumot beradi. Umuman, pragmatik to'siq hodisasi nazariy jihatdan o'rganilmaganligi, ma'lum til faktlari yordamidagi tahlillarga muhtojligi masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Demak, birinchidan, yuqoridagi fikrlar mazmunida pragmatik to'siq xususidagi hodisaning mavjudligi tasdiqlanadi. Ikkinchidan, pragmatik to'siq hodisasidan yozuvchilar badiiy adabiyatda uslubiy vosita sifatida foydalanadilar. SHu nuqtayi nazardan pragmatik to'siq hodisasini tadqiq etish lingvistik pragmatika yo'nalishi uchun muhimdir. Kommunikant verbal ifodani berish bilan har doim ma'lum kommunikativ niyat (illokutiv) va nutqiy ta'sir etish (perlokutiv) aktini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Biroq ba'zi holatlarda so'zlovchi nazarda tutgan illokutiv hamda perlokutiv

¹Шарофиддинов О. «Адабиёт тилдан бошпанади». Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1987. 34-бет.

nutqiy aktlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi. Soʻzlovchining verbal ifodani bayon qilish uslubi asosidagi pragmatik toʻsiq kommunikant niyatini yuzaga chikishi uchun toʻsiq boʻladi. Bunda tinglovchi diqqati matn tarkibidagi asosiy mazmunga emas, balki nutq subʼektining nutqiy aktlarning talaffuz qilish uslubi taʼsirida yuzaga chiquvchi maʼlumotlarga jalb boʻladi. Mana shu asosda tinglovchi tasavvurida nutq subʼekti haqida baʼzi maʼlumotlar paydo boʻlib, bu pragmatik toʻsiq deb nomlanadi.

Pragmatik toʻsiq ifodaning shakliiy hosil boʻlishi bilan bogʻliq hodisa hisoblanadi. Pragmatik toʻsiq ifoda mazmunining toʻgʻri anglanishi uchun hamda soʻzlovchi nazarda tutgan xabar darajasini kamaytiruvchi nutq subʼekti haqidagi nomatniy maʼlumotlardir. Soʻzlovchining meʼyorsiz nutqiy xatti-harakatlari va ifoda talaffuzining meʼyorsiz uslubi rejalashtirilgan illokutiv mazmuniga toʻsiq boʻladi. Ifodaning hosil boʻlishi bilan bogʻliq hukm koʻrinishlaridan biri pragmatik toʻsiq boʻlib, u nutq predmeti haqidagi axborotdan farqlanadi. Nutq predmeti xususidaga axborot soʻzlovchining ichki maqsada bilan bogʻliq boʻlib, u maʼlum voqelik xususida tinglovchiga xabar beradi. Pragmatik toʻsiq mazmuni esa faqat tinglovchi pozitsiyasidagi nutq ishtirokchisining nutq subʼekti haqidagi tasavvuridan iborat boʻladi. «U yoki bu hodisani pragmatik toʻsiq sifatida tasnif qilishda¹ quyidagi faktorlar muhim oʻrin tutadi: 1. Rejalashtirilgan pragmatik effektning belgilari. 2. Soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar. 3. Tezaurus (intellekt imkoniyati) fondi va xarakteri. 4. Lingvistik materialning xususiyati»¹,

Pragmatik toʻsiq tushunchasi soʻzlovchi uchun nol qimmatga ega boʻlib, bunda faqat tinglovchi pozitsiyasi eʼtiborga olinadi. Masalan:

Qalandarov tuzgan nutq shunday boshlanar edi:

«Hindistonlik xotin-qizlar delegatsiyasiga «Boʻston» kolxozchilari va rahbarlaridan kolxozchilik salomi. Bizkim «Boʻston» kolxozchilari, idora xizmatchilari paxtakorlar kurultoyining tarixiy karorlaridan ilhomlanib, paxtachilikda oʻtgan yil orden-medallarga ega boʻldik, bu yil ham ob-havo sharoitiga qaramay, qoʻshimcha majburiyat olib, har gektaridan oʻttiz ikki sentnerdan bajarish uchun kurashib, hozir gʻoʻzalarni brigadalar boʻyicha yuz protsent koʻtarib oldik...» (A.Qahhor).

Hind xotin-qizlari delegatsiyasining kutib olinishi uchun Qalandarov tomonidan yozilgan nutq mazmuni raisni uslubiy-grammatik tomondangina emas, balki madaniy-maʼrifiy nuqtayi nazardan ham savodsizligini ifoda etadi. Pragmatik toʻsiq hodisasi asosiy propozitsiyaning tinglovchi tomonidan

¹Абдурахмонов Х., Мадмудов Н. Сўэ эстетикаси. Тошкент, 1981.

to'g'ri anglanishi uchun, to'siq vazifasini bajaradi. Bu hodisadan badiiy adabiyotda yozuvchining individual uslubi bilan bog'liq ravishda obrazning xarakterini ochish uchun uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Pragmatik to'siq tushunchasi, asosan, so'zlovchi hamda tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatda aniq ko'rinadi, ayniqsa, nutq ishtirokchilari tasavvurida olam hamda til bilimlarining darajalanishi pragmatik to'siqning asosi deb qaraladi.

Pragmatik to'siqlar ham implikativ mazmun ko'rinishlaridan biri bo'lib, u faqat tinglovchi uchun malum bo'lishi bilan ajralib turadi, Matn mazmunining anglanishida paydo bo'luvchi pragmatik to'siqni tagma'nodan farqlash lozim bo'ladi.

Matnning tagma'nosi oshkora va yashirin axborotning mantiqiy tahlili yordamida aniqlansa, pragmatik to'siq na propozitsiya mazmuni, na presuppozitsiya mazmuni va na tagama'no yordamida aniqlanadi, pragmatik to'siq mazmuni uslubiy vosita sifatida so'zlovchi shaxsi fikrlashi hamda talaffuz imkoniyatlari vositasida aniqlanadi.

Pragmatik to'siq so'zlovchining nutqiy axloqiy ko'rinishlaridan biri, sifatida uning ichki ma'naviy olami xususidagi ma'lumotdir. SHuning uchun ham nutq so'zlovchining ma'naviy qiyofasini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday qarash oxirgi paytlarda nashr qilingan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda ham uchraydi. Jumladan: «Jumla kishilar o'rtasidagi aloqa jarayonida vujudga keladi. SHuning uchun ham ularning har birida shaxsning izi o'z ifodasini topadi. CHunki «til - borliqning uni» (M.Xaydegter)», unda insoniyatning ma'naviy, ruhiy olami aks etadi¹.

O'zbek tili matnini pragmatik yo'nalishda o'rganish lisoniy birliklarining an'anaviy tilshunoslikda e'tibordan chetda qolgan jihatlarini yoritishda tadqiqotchi uchun katta imkoniyat beradi. Matn bunday usulda o'rganish ularning pragmasemantik sistemadagi o'rnini belgilashga yo'l ochadi.

Matn (sintaktik birliklar)ni sistema sifatida tadqiq etishda til sathi birliklarini muayyan pragmatik sema asosida lingvistik pragmatikaning nazariy va amaliy, umumiy va xususiy yo'nalishlarini ajratish hamda pragmatikaning til sathidagi tadqiqot obyektini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn (sintaktik birliklar)ni pragmatik nazariya yo'nalishida tadqiq etish obyektiv olamdagi borliq bilan uning inson ongidagi in'ikosini nutqiy munosabat shakli sifatida to'g'ri talqin etishga eng to'g'ri yo'ldir.

¹Махмудов Н.,Нурмонов А.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.Тошкент, 1995, 10-бет.

O'zbek tili matni (sintaktik birliklari)ga xos pragmatik xususiyatlarni o'rganish umuminsoniyat madaniyatining bir qismi bo'lgan nutq madaniyati, uslubshunoslik hamda insonning fikrlash faoliyati va ichki ruhiyatini nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi psixolingvistika masalalari bilan uzviy bog'lanadi.

Pragmatika nazariyasi kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos verbal va noverbal munosabatning mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Millatga bo'lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o'zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o'rganishga dunyo xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, ya'ni nutqning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq hodisalar talqini o'sha tilga xos milliy o'ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Ana shularni hisobga olgan holda pragmatika nazariyasining lisoniy tamoyillarini belgilash faqat o'zbek tilshunosligi uchungina emas, balki turkologiya uchun ham g'oyat dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Lisoniy pragmatika nazariyasi jahon tilshunosligida turli-cha qarashlar vositasida xilma-xil talqin etiladi. Nutqiy axloq shakllarining amaliy asosi sifatida nutq madaniyati bilan, so'zlash san'atining uslubiy vositalariga xos nazariy yo'nalishining mohiyati sifatida uslubshunoslik bilan, so'zning denotativ ma'nosi bilan shug'ullanuvchi yo'nalishlarining bir qismi sifatida semantika bilan pragmatikaning o'zaro munosabati ko'rsatiladi. Pragmatika tilshunoslikning boshqa bo'limlari singari o'zining lisoniy mohiyatidan iborat nazariy asosiga ega bo'lib, semantika va sintaktika qatorida lisoniy teng qimmatli maqomga egadir. Bunga ko'ra, pragmatika sintaktik birliklarga xos ifoda mazmunini nutq sub'ektining munosabati sifatida tadqiq etadi.

Lingvistik pragmatika tilshunoslik fanining nazariy jihatdan shakllangan alohida tarmog'i sifatida til sathlararo o'zaro chegaralangan munosabatda o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, tilning fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi sath birliklarining pragmatik vazifasi bilan uzviy bog'liq holda fonopragmatik, leksopragmatik, morfopragmatik hamda sintaksopragmatik talqin asosida pog'onali munosabatni hosil qiladi. Bu sath birliklarining pragmatik vazifasi lingvistik pragmatika nazariyasi uchun asos bo'ladi.

Lingvistik pragmatika mohiyatini ifoda etuvchi nutqiy akt nazariyasini tadqiq etish tilning ifodalash va anglash tabiatini ochish bilan uzviy bog'liqdir. Mavjudlikdagi real olam bilan aloqa-

dor barcha hodisalar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ular insonning sezgi organlari vositasi (ko‘rish, eshitish, his etish)da fikrlash faoliyatining quroli - ongida sintezlanadi va talaffuz akti vositasi orqali tilda qayta namoyon bo‘ladi. Nutqiy akti pragmatik nazariya sifatida o‘rganish borliq - ong - til hamda til - ong - borliq dialektik munosabatini ifodalash uchun yordam beradi.

Lingvistik pragmatika mohiyatini ifoda etuvchi hodisalarga xos masalalarni tadqiq etish adabiyotshunoslik, uslubiyat nuqtayi nazaridan badiiy asar tilining san‘at darajasida bezatilganligi, ishlanganligi, maqsad va g‘oyaga xizmat qilishini ko‘rsatish, sof tilshunoslik nuqtayi nazariga ko‘ra tilning grammatik qurilishidagi o‘ziga xosliklari hamda uni mantiqan to‘g‘ri qo‘llash, shuningdek, so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi ichki maqsadning ifodalanishida tilning barcha imkoniyatlarini belgilashdan iborat bo‘ladi. Lingvistik pragmatika nazariyasi bilan aloqador barcha hodisalar nutq ishtirokchilari orasidagi bayon qilish va anglash birligini ta‘minlashda uslubiy vositaga aylanadi. Ifoda mazmunining mantiqli va mantiqsiz qo‘llanishi bayon qilinayotgan axborotning ta‘sir etish darajasini oshiradi.

Nutqiy aktlar o‘zida pragmatikaning mohiyatini ifoda etadi. Nutqiy akt tushunchalarining yuzaga kelishi lingvistik pragmatika uchun nazariy asos hisoblanadi.

Nutqiy akt semiologik nutqai nazardan ma‘lum kichik guruhlardan iborat bo‘lib, ular yana o‘z tarkibida ichki mikrosistemani tashkil qiladi va nutqiy aktning ma‘lum tamoyillari asosida qayta katta sistemaga birlashadi. Bular talaffuz, kommunikativ niyat (illokutiv), his-tuyg‘uga ta‘sir etish akt (perlokutiv) laridan iboratdar.

Nutqiy akt jumladan katta, kichik, hatto uning bir qismi ham bo‘lishi mumkin, ko‘p holatlarda so‘z birikmasiga teng keladi. SHu belgilari bilan nutqiy akt sof ma‘noda sintaktik birlikni qamrab oladi va pragmatikaning obyektini sanaladi.

Nutqiy akt nazariyasi matnda presuppozitsiya va tagma‘noni o‘zaro farqlashni qat‘iy talab qiladi.

Tagma‘no ham, presuppozitsiya ham matn semantik tuzilishini murakkablashtirib, har ikkalasi ham so‘zlovchi munosabatini ifoda etadi. Tagma‘no matn ichidagi matn deb talqin etiladi. Presuppozitsiya esa propozitsiya bilan zidlanuvchi axborot ko‘rinishidir. Tagma‘no doimo nutq ishtirokchilaridan biriga noma‘lum bo‘lishi bilan ajralib turadi. Umuman, matn semantikasi bir tomondan presuppozitsiya, ikkinchi tomondan esa tagma‘no ko‘rinishlari bilan murakkablashadi, ularni alohida hodisalar sifatida o‘rganish va talqin etish lingvistik pragmatika masalalari

mohiyatining oydinlashuvida muhim o‘rin tutadi. SHuningdek, uslubshunoslik va pragmatika yo‘nalishining umumiy qirralarini ko‘rsatish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvistik borliq tushunchasi obyektiv olamdagi barcha predmet, hodisalarning kishilar orasidagi o‘zaro kommunikativ munosabatida namoyon bo‘lgan dunyoqarashning mahsulidir. Bu, albatta, tilning aloqa-aralashuv jarayonidagi funksional qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lib, sintaktik birliklar vositasi bilan ifodalanuvchi axborot shakllarida ko‘zga tashlanadi.

Matn (sintaktik birliklar)da ifodalangan propozitsiyani xiralashtiruvchi pragmatik to‘siq so‘zlovchi haqida ma’lumot beradi. Pragmatik to‘siq hodisasini va uni to‘g‘ri talqin etish kishilarning ichki ma’naviy olami va dunyoqarashini anglashning umumnazariy yo‘nalishin belgilashda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

4.MAVZU: O‘ZBEK TILINING NEYROLINGVISTIK TADQIQI MUAMMOLARI

Reja:

1. Neyrolingvistika fanining o‘rganish obyekti haqida.
2. Afaziya.
3. Nevrolingvistik dasturlar haqida.
4. NLD asoslari. Nevrolingvistik dasturlarning sohaviy qo‘llanishga ko‘ra turlari.
5. O‘zaro muloqot va biznesda nevrolingvistik dasturlar.
6. Ta’lim tizimida qo‘llaniladigan nevrolingvistik dasturlar.
7. Nevrolingvistik terapiya.

Neyrolingvistika fanining o‘rganish obyekti haqida. Neyrolingvistika neyron va lingvistika so‘zlarining O‘zaro birikuvidan, qo‘shilishidan hosil bo‘lib, inson miyasidagi nerv hujayralarining-neyronlarning tilni-so‘zlarni hosil qilishdagi vazifasini o‘rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni-til va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat iiladi, yetakchi hisoblanadi. Shunga ko‘ra neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa quroli-til orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy munosabatni yoritadi.

Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo‘limi bilan ham uzviy aloqada. So‘nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig‘ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog‘i vujudga keldi.

Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalarini o'rganadi. Sodda qilib aytganda, neyrolingvistikaning o'rganish obyektlaridan biri afaziya, ikkinchisi neyrolingvistik dasturlash (NLP)dir.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi bobokalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va bu kasalni davolashga e'tibor bergan bo'lsalar ham, lekin u alohida fan tarmog'i sifatida shakllana olmadi.

chuqur o'rganilgan.

Miya zararlanishining nutqqa ta'siri muammosi izchil ravishda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganildi.

2. Neyropsixologiya va u bilan bog'liq bo'lgan neyrolingvistika maxsus fan sifatida yaqindagina — o'tgan asrning yetmishinchi yillarida shakllandi. Bu fanning vujudga kelishida A. A. Leontev, A. R. Luriya, E. S. Beyn, R. M. Boskis, E. N. Venarskaya, O. S. Vinogradova, N. A. Eysler singari olimlarning xizmati kattadir.

Neyrolingvistika fani bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi ilk kitob A. R. Luriya tomonidan yozildi.

Nutqiy axborot jarayoni, ya'ni kishilarning o'zaro nutq yordamida bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o'rganish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan Tilshunoslik kishilarning asosiy aloqa vositasi bo'lgan til va uning bevosita aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni ajratgan holda, ichki tuzilish, tuzilish birliklari, bu tuzilish birliklarining nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, «ichki tuzilish»dan «tashqi tuzilish»ga o'tishning asosiy bosqichlari va yuqoridagi ikki tuzilishning o'zaro munosabatlari kabi qator masalalarni atroflicha o'rgandi.

Inson borliqni ongida aks ettiradi. Aks ettirish sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya esa bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko'rinadiki, obyektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi.

Nerv sistemasi odatda ikki guruhdagi nerv sistemalarini o'z ichiga oladi:

1) markaziy nerv sistemasi va 2) chegara nerv sistemasi. Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalari markazga qarab yo'nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga obyektiv borliqsagi narsa va

hodalarning muayyan belgilari haqidagi ma'lumotni beradi. Shuning uchun ham chegara nerv sistemasiga aloqador a'zolari tahlil qiluvchilar (analizatorlar) deb yuritiladi. Ular ko'rish, eshitish, ta'm-maza a'zolari sanaladi. Har bir analizatorida ikki turdagi nerv strukturasi ajratiladi.

1) axborotni mazkur sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi struktura;

2) borliq predmetlariga yo'naltiruvchi struktura (miyaning bilish zonasi).

Uchinchi sath sifatida murakkab anatomik tuzilishga ega bo'lgan til pardasi zonasi ajraladi. Bu zonada miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilar kompleksi birlashtiriladi va natijada sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o'tish imkoniyati tug'iladi.

Nutq hosil qilish, til xulqi aks harakat: markazdan chegaraga tomon harakat orqali yuzaga chiqadi. Miya analizatorlari qoplangan zonada shakllangan nutqiy dastur nutq praksizi zonasida konkretlashadi va nutq organlari (shuningdek yozma nutqni yuzaga chiqaruvchi sistema) ishtirokida proeksiya harakat sistemasi yordamida yuzaga chiqadi.

Miyaning praksiyali sistemasidan (sensor yoki harakatlanuvchi) farqli ravishda gnostikpraksik parda va pardali analizatorlarni yopish zonasi funksional assimetriya bilan xarakterlanadi: til sistemasi va nutq orqali ifodalangan tafakkur esa uning yarimshari bilan bog'langan.

Inson miyasi murakkab funksional sistema bo'lib, eng kamida uchta asosiy blok ishtirokida muttasil faoliyat ko'rsatadi. Ulardan biri pardaning tetiklanishini ta'minlaydi va tanlash, selektiv faoliyat shaklining uzoq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Boshqasi axborotni olish, qayta ishlash va saqlashni ta'minlaydi. Uchinchisi esa faoliyatni programmashtirish, boshqarish va nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Yuqorida bayon qilingan bloklarning zararlanishi ularning bir me'yordagi vazifasiga salbiy ta'sir qiladi. Birinchi blokka mansub apparatlarning zararlanishi psixik faoliyatni tanlash, selektiv imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchi blok apparatlarining zararlanishi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash qobiliyatini yo'qotadi. Uchinchi blokning zararlanishi esa programmashtirish, barqaror ravishda boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Ko'rinadiki, miyadagi har qanday zararlanish inson faoliyatining ma'lum qismiga salbiy ta'sir qiladi. Sensor proyeksiya sistemasining zararlanishi eshitish va ko'rish organining kuchsizlanishiga olib keladi. Buning natijasida og'zaki va yozma nutqni qabul qilish imkoniyati

pasayadi. Nutqiy agnoziya holatida bemor ko'rish va eshitish qobiliyatini yaxshi saqlagan holda, ona tilining tovush «qiyofasi»ni (nutqiy eshitish agnoziyasi) yoki yozma nutqda harf ko'rinishini «nutqiy ko'rish agnoziyasi» unutadi. Bunday vaqtda bemor gapirish yoki yozishi mumkin. Nutqiy eshitish agnoziyasiga uchragan bemor o'qishi, nutqiy ko'rish agnoziyasiga uchragan bemor esa og'zaki nutqini tushuntirish mumkin.

Nutqiy apraksiya ro'y berganda esa buning teskari holatiga duch kelinadi. Bunday vaqtda bemorning nutq organlari harakati va yozish harakati buziladi, tovush va so'zlarni talaffuz qila olmaydi va yoza olmaydi. Lekin atrofdagi odamlar nutqini tushunish, yozuvlarini o'qish qobiliyati saqlanib qolishi mumkin.

Analizatorlar yopqichlarining parda zonasi zararlanganda, afaziya holati kuchayadi. Bu vaqtda har qanday nutqiy faoliyat: eshitish, ko'rish faoliyati ham, talaffuz qilish, o'qish faoliyati ham so'nadi. Agar zararlanish manbayi o'rtacha bo'lsa bemorning so'zda tovushni farqlash qobiliyati yo'qoladi. Fonetik jihatdan yaqin bo'lgan so'zlarni aralashtirib yuboradi. Ba'zan afaziya holatida eshitgan yoki o'qigan narsalarning ma'nosini tushunmagan holda mexanik ravishda takrorlashi mumkin.

Neyrolingvistika uchun ikki til va ko'p til egalarining (poliglottlarning) miyasi zararlanishi katta material beradi. Bu vaqtda bemor bir tilni ma'lum darajada saqlagan holda, ikkinchi tilni butunlay unutish yoki bir necha tillarning elementlarini aralashtirib yuborishi mumkin.

Neyrolingvistika yuqoridagi holatlarni aniqlash bilan, bemorlarni samarali davolash uchun katta imkoniyat yaratib beradi. Lingvistika va tibbiyotning qo'lga kiritgan yangiyangi yutuqlari neyrolingvistikaning tekshirish usullarini takomillashtirib boradi. Hozirgi kunda neyrolingvistika psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g'oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, neyrolingvistika insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o'rganishning bir tarmog'i sifatida rivojlanib bormoqda.

Neyrolingvistik dasturlashni bizning tilimizga tarjima qilsak nervlar til va dasturlash degan so'zlar kelib chiqadi. Yoki tushunarli tilda aytadigan bo'lsak, insonni til va so'zlar yordamida dasturlash degan ma'noni beradi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini organgan kishilar neyrolingvistik dasturlashdan foydalanib oz maqsadlariga yetmoqdalar.

Quyida neyrolingvistik dasturlashning bir necha texnikalari bilan tanishamiz.

Bu texnika NLDning asosi deyish ham mumkin. Chunki uning yordamida insonga xohlaganicha ta'sir ko'rsatish imkoniyati bor va siz uning o'zini tutishini boshqara olasiz. Bu texnika gipnoz qilishning ham asosidir. Boshqa kishini boshqarish uchun oldin unga moslashish kerak bo'ladi. Moslashish uchun siz suhbatdoshingizning harakatlari ritmiga kirishingiz kerak. Bu uning holati, ko'z qarashi, gavgani ushlashi, qo'llarining holati, oyoqlarining holati, nafas olish ritmi va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin bunda uning kayfiyatiga kira olish eng asosiy ahamiyatga ega. Nafas olish ritmiga moslashish katta natijalar beradi.

Suhbatdoshingizning nafas olishini kuzatasiz va u nafas olganda jim turasiz, u nafas chiqarayotgan paytda esa gapirasiz. Natijada uning quyi ongida sizning gaplaringiz xuddi u tomonidan aytilayotganday taassurot qoldiradi. Aytaylik, suhbatdoshingizning jahli chiqyapti va dam solingan sharga o'xshab, shishib turibdi. Sizning maqsadingiz – uni jahldan tushirish. Bu holda siz ham o'z psixikangizni tezlashtirasiz va xuddi jahl qilgandagiday fiziologik holatga kirasiz. Bu sizning suhbatdoshingizga moslashishingiz bo'ladi. Shu holatda u bilan suhbatni davom ettirasiz va suhbat davomida asta-sekin o'z psixikangizni tormozlay borasiz.

Siz tinch holatga o'tganingizda suhbatdoshingiz ham tinchlanib qolganligini ko'rasiz. Agar suhbatdoshingiz jiddiy yuz ko'rinishiga ega bo'lsa siz ham jiddiylashing va bir oz o'tgandan keyin jilmaya boshlaysiz. Suhbatdoshingiz ham sizga ergashib jilmaya boshlaydi. Bu usul bilan har qanday odamda o'zingiz xohlagan har qanday kayfiyatni paydo qilishingiz mumkin. Eng asosiysi, dastlab suhbatdoshingizning kayfiyatini o'zingizda nusxalay olishingizdir.

Masalan, kichkina jiyanim unga berilgan buyruqlarning hammasini teskarisini qilishni yaxshi ko'radi. Shuning uchun uni uxlatish juda qiyin ish. Unga "uxla" deyishlari bilan uning uyquasi o'chib ketadi. Shunday paytda men u bilan gaplasha boshlayman va uning nafas olishi bilan o'zimmikini sinxronlashtiraman. Ozroq gaplashganimizdan keyin men asta nafas olishimni sekinlashtira boshlayman va shu vaqtda so'zlash tempim ham sekinlasha boradi. Birpas boshqa mavzularda gapirgandan keyin gap orasida esnab, uyqum kelganligini aytaman. Shunda u ham esnay boshlaydi. Men tormozlanishda davom etaveraman va salgina vaqt o'tgandan keyin u uxlab qoladi. Shunday qilib bolani uxlatish jarayoni 4-5 daqiqadan ko'p vaqt olmaydi.

Bu texnikani qo'llay olsangiz hamisha oshig'ingiz olchi bo'lishi tayin. Uning asosiy maqsadi suhbatdoshingizga biror narsani tanlash ixtiyorini berishingizdadir. Lekin bu tanlov – soxta tanlovdir. Siz taklif qilayotgan variantlar ichidan u faqat sizga kerakli bittasinigina tanlay olsin yoki ikkita variant ham bir xil natija berishi ko'zda tutilsin. Masalan, suhbatdoshingiz biror hujjatga imzo qo'yishi kerak. Siz undan – Bunga imzo qo'yishga rozimisiz? – deb so'rasangiz u albatta rad qiladi va bunday qilmasligi uchun mingta bahona topa oladi. Siz unga –

- Peroli ruchkada imzo chekasizmi yoki sharikli ruchkadami? – deb tanlash imkoniyatini berasiz. Endi u imzo chekish-chekmaslik haqida emas, balki qaysi ruchkada imzo chekish haqida o'ylay boshlaydi. Siz o'z mahsulotingizni birovga o'tkazmoqchisiz, lekin mijozning uni olish niyati yo'q. Siz undan qaysi ranglisini o'rab berishingiz kerakligini so'raysiz.

Bu mijozning olaman-olmayman fikrini qaysi ranglisini olamanga o'zgartirib yuboradi. Bunday soxta tanlov variantlarini sharoitdan kelib chiqib xohlaganingizcha o'ylab topishingiz mumkin. Mazkur usullarni tadbirkorlar, savdogarlar ko'p qo'llashadi.

Axborotni izlash, topish, to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan bog'liq bo'lgan nojo'ya hatti-harakt tufayli kelib chiqadigan ruhiy kasalliklarga qarshi ma'naviy immunitetni mustahkamlashning zamonaviy usullaridan biri neyrolingvistik dasturlashdir.

Neyrolingvistik dasturlashga oid dastlabki ilmiy ish hisobotlari o'tgan asrning 70-yillarida paydo bo'lgan. Amerika olimlaridan Jon Grinder va Richard Bendlerlar neyrolingvistik dasturlash aoschilari hisoblanadilar. Neyrolingvistik dasturlash yo'li bilan kishi ruhiyatiga ta'sir etkazuvchi mutaxassislarining fikriga ko'ra bunday dasturlar:

– biron narsa yoki hodisadan qo'rquv hissini yoki boshqa xil noxush hislarni bir soatga qolmay bartaraf etish;

– past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga, o'zlariga ma'lum cheklashlar qo'yib olgan katta yoshdagilarga ulardagi cheklanishlarni bir soatga ham etmaydigan vaqt mobaynida bartaraf etish;

– chekish, ichkilikbozlik, mechkaylik, uyqusizlik kabi ko'ngilsiz qusurlardan bir nechta seansdan so'ng qutulishlik;

– qattiq ruhiy tushkunlik bilan ifodalanuvchi kasalliklarni bir nechta seansdan so'ng yo'qotish va shular kabi yana bir qancha holatlarni bartaraf etish imkonini beradi. Kuzatishlar yana shu narsani ham tasdiqlaydiki, yuksak axloqiy did bilan tanlab ko'p kitob o'qigan kishilarning mafkuraviy immuniteti etarlicha mustahkam bo'ladi.

5-MAVZU. O`ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH MUAMMOLARI

Reja:

1. Rossiya va g'arbda korpus yaratish masalasi.
2. O'zbek tili korpusini yaratish muammolari va vazifalari.
3. Korpus tahlil (korpus analiz) yo'nalishi.

Korpus –bu bir nechayoki muayyan til matnlarining yig'indisiga asoslangan elektron shaklda to'plangan ma'lumot (so'rovnomalar)lar tizimidir. Milliy korpus esa muayyan tilning ma'lum davr (yoki davrlar)dagi maqomi, janrlari, uslublari, hududiy hamda ijtimoiy ko'rinishlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Milliy korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxasislari tomonidan tuziladiki, bu ilmiy tadqiqot va til o'rganish uchun xizmat qiladi.

Jahonning ko'pgina yirik tillari allaqachon ilmiy ishlanganligi, hajmi va ko'lamiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi o'zining milliy korpusiga ega. Masalan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan Britaniya milliy korpusi (BMK)dir. Aksariyat milliy korpuslar mazkur loyiha asosida shakllangan. Shuningdek, Praganing Karlova universiteti tomonidan tuzilgan Chex milliy korpusi ham slavyan tillari orasida ajralib turadi.

Milliy korpusning o'ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, u me'yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu korpus ma'lum tilda berilgan (turli badiiy janrlar: publitsistik, o'quv, ilmiy, ish yuritish, so'zlashuv, shevaviy kabi),ularning barchasi imkon darajasida ma'lum doiraga oid ma'lumotlarning proporsional matnlari hisoblanadigan og'zaki va yozma ko'rinishlarining barchasini o'z qamroviga oladi degani. Korpusning qoniqarli darajada bo'lishi uchun uning ko'lamiga e'tibor qaratish kerakligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak (masalan, o'n va yuz milliongacha so'z qo'llash kabi).Yoki rus tili milliy korpusi tuzuvchilari tomonidan ikki yuz million so'z kiritish rejalashtirilgan.

Ikkinchidan, korpus unga kiritilayotgan matnlarning o'ziga xos jihatlari to'g'risida muhim ko'shimcha ma'lumotlarni saqlaydi (bular annotatsiya yoki kiritma ko'rinishidagi matnlardir). Kiritma–korpusning asosiy bosh ma'lumotnomasi bo'lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog'ida mavjud bo'lgan oddiy matnlar (yoki "kutubxonalar") to'plamidan ajratib turadigan, masalan, bir muncha mashhur bo'lgan

“Maksim Morshkov kutubxonasi” yoki “Rus virtual kutubxonasi” kabilardan farqlanadigan matnlardir. Hozirgi vaqtda mutaxassislar tomonidan “Fundamental elektron kutubxona” yaratildi va u doimiy ravishda rus mumtoz adabiyoti namunalari bilan to‘ldirib borilmoqda. Unga muntazam tarzda va yuqori aniqlikda nashr etilayotgan adabiy matnlar kiritilib turadi. Biroq bu kabi kutubxonalarda qayta ishlanmagan matnlar ham mavjud bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishda bir muncha chegaralangandir. Shuni ta’kidlash kerakki, bu kabi kutubxonalar til xususiyatlaridan ko‘ra matnning mazmun-mohiyati bilan qiziquvchilar tomonidan yaratiladi. Milliy korpus kutubxonalardan farqli o‘laroq “qoniqarli” va “foydali” matnlar to‘plami emas. U, asosan, til o‘rganish uchun xizmat qiluvchi jihatdir. Bunda o‘rtamiyona yozuvchilarning romanlari ham, oddiy so‘zlashuvmatnlari va ijara shartnomalardan ham, mumtoz badiiy adabiyot namunalari qatorida foydalanilaveradi.

Korpusning rang-barang ilovalar bilan boyitilishi uning ilmiy va o‘qimishlilikini baholaydigan jihatdir. Rus tili milliy korpusida kiritmalarning to‘rt turidan foydalaniladi: 1) metamatnli; 2) morfologik; 3) talaffuz (aksentologik) va 4) semantik. YAqin kunlarda uning sintaktik ko‘rinishi kiritilishi ham rejalashtirilayapti. Kiritmalar tizimi borgan sari ko‘payib, takomillashib boraveradi.

Shu o‘rinda milliy korpus nega kerak degan savol tug‘iladi.

Milliy korpus, avvalo, tilning leksika va grammatikasi yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun kerak. SHuningdek, bir necha yuz yilliklar davomida tilda yuz beradigan uzluksiz o‘zgarishlar, jarayonlarni kuzatish imkonini beradi.

Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma’lumotlarni olish (masalan, leksik, grammatika, aksentologik, til tarixi kabi), zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositasida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilish va siqirlashtirishga xizmat qilishdan iborat. Avvallari tadqiqotchi zarur misollarni qo‘lda yozib olar, bu esa juda ko‘p mehnat talab qilgani holda oz miqdordagi materiallarni qayta ishlashga imkon berar edi.

Endilikda tahlil qilinayotgan materiallarning ko‘lami va ma’lumot topish tezligida muammolar bo‘lmaydi. Bu esa tadqiqodchi uchun beqiyos imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Milliy korpus til haqidagi bilimlarimiz imkoniyatini, shuningdek, uni statistik tahlil qilishning (o‘rganishning), hatto hozirga qadar o‘rganilmay kelinayotgan hodisalarning qurilishi va taraqqiyotidagi qonuniyatlarni, mavjud

xulosalarga bo‘lgan shubhalarni yoki taxminiy hodisalarni aniqlash imkonini beradi. Endilikda tilning grammatik qurilishi, hatto mashhur akademik lug‘atlar, hech istiholasiz muayyan tilning milliy korpusi asosida yaratilishi kerak bo‘ladi. SHu nuqtayi nazardan milliy korpus talabgorlari, albatta, muayyan tilning turli sohalari tadqiqotchi–lingvistlari hisoblanadi. Biroq korpusdan foydalanuvchilar professional mutaxassislar bilan chegaralanmaydi. Davr yoki ma’lum muallifning fiklari, til haqidagi ishonchli statistik ma’lumotlari adabiyotshunoslarni, tarixchilarni va gumanitar bilimlarning turli vakillarini qiziqtirishi mumkin. Milliy korpuslar milliy va chet tillarni o‘qitish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadiki, ko‘pgina darslik va o‘quv rejalari hozirda milliy korpusga moslangan bo‘lishi kerak. Korpus ko‘magida taniqli mualliflarning notanish so‘z yoki grammatik shakllarini ajnabiy ham, maktab o‘quvchisi ham, o‘qituvchi ham, jurnalist ham, redaktor yoki yozuvchi ham tez va oson tekshirib olishi mumkin bo‘ladi.

Demak, milliy korpus kasbidan yoki u oddiy qiziquvchimi, muayyan til korpusining tuzilishi va ishlashidan, undan foydalanuvchilarning millatidan qat’i nazar, o‘rganuvchilar uchun birdek foydalanish imkonini beradi.

Milliy korpus qanday rivojlanadi?

Rus tilining milliy korpusi, avvalo, o‘z ichiga XVIII asrning o‘rtalaridan to XXI asrning boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davr xoh o‘tgan, xoh yangi bo‘lishidan qat’i nazar, u sotsiolingvistik ko‘rinishdagi badiiy, so‘zlashuv, jonli so‘zlashuv, qisman dialektal matnlarni tashkil qiladi. Korpusga badiiy qimmatga ega bo‘lgan va til o‘rgatishga qiziqish uyg‘otadigan, orginal (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (proza va drama, keyinchalik she’riyat ham). Badiiy she’rlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalaridan publisistika, ilmiy ommabop va ilmiy adabiyotlar, shaxsiy chiqishlar (ma’ruzalar), shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, xujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Hozirga vaqtda rus tili milliy korpusi quyidagi kichik-kichik korpus (podkorpus)larni o‘z ichiga qamraydi:

1) **chuqur annotatsiya (tahlil)langan korpus** (bunda har bir gapning morfologik va sintaktik qurilishi uchun tahlil mavjud);

2) **rus va ingliz matnlarining parallel korpusi** (bunda rus yoki ingliz tillaridagi so‘z va so‘z birikmalarning tarjimalarini topish mumkin bo‘ladi);

3) dialektal matnlar korpusi (bunda Rossiyaning turli hududlarida

grammatik xususiyatlariga ko‘ra saqlangan dialektik matnlar mavjud);

4) **poetik matnlar korpusi** (bunda she‘riyatning nafaqat leksik va grammatik, balki uning turli janrlari (sonet, epigramma, amfibrax, ularning qofiya turlari) bilan bog‘liq jihatlar mavjud);

5) **rus tilini o‘rganish korpusi** (bunda asosiy e‘tibor rus tilining maktab programmasiga yo‘naltirilgan);

6) **og‘zaki nutq korpusi** (bunda magnit tasmasiga yozib olingan ommaviy va xususiy og‘zaki matnlari va 1930-2000-yillardagi kinofilmlar transkript (talaffuz) matnlari mavjud) va b.

Xullas, korpus tilshunosligi, uning milliy shakllarini yaratish, shuningdek, mavjud tajribalardan kelib chiqib o‘zbek milliy korpusining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni keng jamoatchilikka tadbiq qilish mutaxassislarning galdagi dolzarb vazifalaridan biridir. Natijada o‘zbek tili mumtoz va zamonaviy matnlari, turli janrlarda yaratilgan betakror durdona asarlar “ikkinchi hayot”ga yo‘llanma oladi va kelgusida o‘zbek tilining ham ko‘p ming (ikki yuz, besh yuz ming yoki million) so‘zli lug‘atlarini yaratish imkoni tug‘iladi.

6-MAVZU. O‘ZBEK TILINING LINGVOKOGNITIV O‘RGANISH MUAMMOLARI

Reja:

1. Matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari
2. Diskurs tushunchasi.
3. Konsept va uning matn orqali ifodalanishi.
4. Kognitiv tadqiq metodologiyasi.
5. Kognitiv metaforalar.

Ma‘lumki, dunyo tilshunosligida matnga dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Unga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy

e'tiborini shaxs omiliga qaratdi¹.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning etakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi².

Antropotsentrizm so'zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum - markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan³.

Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson – koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa O'rta asrlarda Evropada keng tarqaldi⁴.

Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antropotsentrik yo'nalish tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali etarli darajada emas.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bag'ishlangan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin o'zbek tilida yaratilgan matnlar shu vaqtga qadar antropotsentrik aspektda yaxlit holda tadqiq qilingan emas.

Dunyo tilshunosligida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi matn yaratilishi hodisasining talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan, matn tahliliga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning etakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va serqirra hodisa hisoblangan matn tadqiqida so'zlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – retsipient) dan iborat uchlik asosiy obyekt bo'lishi

¹ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

² Бу ҳақда қаранг: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

³ <http://ph.ras.ru/elib/0215.html>: Новая философская энциклопедия.

⁴ Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 8.

lozimligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanmoqda¹.

Taniqli rus tilshunosi Y.N.Karaulov til va shaxs masalalariga bag‘ishlangan maqolalar to‘plamiga yozgan so‘zboshisida «Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi» degan fikrni alohida ta’kidlagan edi². Darhaqiqat, til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma bo‘lishi bilan birga, so‘zlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy salohiyatini o‘zida to‘liq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matnning tashqi va ichki tuzilishini muayyan millatga mansub til sohiblarining lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zguga o‘xshatish mumkin.

Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga e’tiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalolingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funksionalizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Prof. Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi”³.

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritarkan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini

¹ Қаранг: Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – М., 2001. – Т.1. – С.72-81.

² Қаранг: Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.

³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 35.

tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi"¹.

Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omilini o'rganish yuqorida qayd etilgan tilshunoslik sohalari – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtda, tilga antropotsentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda.

Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi². Aytish joizki, ilmiy paradigмага “til sohibi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi³. SHaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi.

“Til sohibi” tushunchasi hozirgi vaqtda, asosan, quyidagi ma'nolarda ishlatilmoqda: a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya'ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant; v) o'z millatining milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug'at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili⁴. Hozirgi tadqiqotlarda tilshunoslikning turli yo'nalishlari shaxs omili masalasiga o'z xususiyatidan kelib chiqib yondashmoqda.

Matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy persepsiyasi muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxs – tinglovchi yoki o'quvchi omilini ham o'rganish muhimdir. Rus tilshunosi R.I.Galperinning fikriga ko'ra esa, qog'ozga yozilib, hali o'qilmagan matn harakatsiz matndir⁵. Xususan, yozma matn

¹ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

² Каранг: Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

³ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 5.

⁴ Воркачев С.Т. Кўрсатилган мақола. – Б. 8-11.

⁵ Гальперин Р.И. О понятии текст // Вопросы языкознания. – Москва, 1974. – №6. – С.22.

o'quvchi tomonidan o'qilmaguncha harakatga kelmaydi, unda ifodalangan mazmun va pragmatik maqsad, ohang orqali yuzaga kelgan kayfiyat retsipient tomonidan tushunilmaydi va his etilmaydi.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganish tadqiq obyektiga turli jihatlardan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda: "Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so'zlaydi"¹. SHu sababli ham muayyan shaxs uslubi u yaratgan matnlar asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning so'z qo'llash yoki jumla tuzish mahorati nuqtai nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. SHu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi nuqtai nazaridan o'rganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.

Ma'lumki, kognitologiya o'z mohiyatiga ko'ra semantika bilan uzviy bog'liqdir. A.V.Kravchenkning fikriga ko'ra "... kognitiv tilshunoslik o'z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo'yadi"². Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili sohiblarining "tafakkur grammatikasi"ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o'zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Zero, matnda konseptuallashgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham bo'lishi mumkin³. Matn yaratilishi jarayonini tadqiq etish orqali N.I.Jinkin tomonidan qayd etilgan universal predmet kodlarining lisoniy shakl olish bosqichlarini tahlil etish mumkinki, bu bosqichlar, xususan, badiiy matn yaratuvchi shaxs faoliyatida o'ziga xos tarzda amal qiladi⁴. Binobarin, muayyan shaxs nutqining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish o'zida ko'p hollarda implitsitlikni namoyon etuvchi badiiy nutq yaratilishi mexanizmiga oid ko'pgina qorong'i va sirli "hududlarni" yoritish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamoqdalar. Muayyan obyekt mohiyatini

¹ Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 108.

² Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск: ИГУ, 2001. – №1. – С.60.

³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. – Б. 245.

⁴ Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982.-157с.

yoritishda fanlararo hamkorlik o'z natijalarini bermoqda. Bu kabi yondashuvdan murakkab mavjudot bo'lgan shaxs fenomenining nutqiy faoliyatini tadqiq etishda ham foydalanish eng to'g'ri yo'ldir. Zero, inson nutqi uning o'zi kabi murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Bu borada tilshunoslik sohalarining hamkorligi o'z samaralarini berishi shubhasizdir.

Aytish lozimki, XXI asrning dastlabki yillarida o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi yo'nalishida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi: matn lingvopoetikasi, mazmuniy persepsiyasi, uning pragmatik, derivatsion va psixolingvistik xususiyatlari, matn modalligi va temporalligi haqida monografik aspektidagi ishlar yuzaga keldi¹.

Tilshunos olim N.A.Arutyunova ta'biri bilan aytganda, "... bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyat turi, kishilarning o'zaro munosabatlarida va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da qatnashuvchi nutq; voqelik bilan munosabatda olingan matn"² muammosini hamda lisoniy tafakkur egasi bo'lgan shaxs faoliyatini o'zaro aloqadorlikda tadqiq etish o'zbek tilshunosligida antropotsentrik tahlil tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, matnni uning yuzaga kelishi, idrok etilishi va tushunilishi nuqtai nazaridan o'rganish matn haqidagi nazariy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi. Diskursiv faoliyat egasi bo'lgan shaxs intellekti va fikrlash tarzining matn shakliga kirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq etish esa tafakkur modellarining o'zbek tilidagi in'ikosiga xos xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Fikrimizcha, bunda matnning nutq uslublariga ko'ra turlaridan biri bo'lgan badiiy matn tahlili o'zbek tilshunosligi uchun boy materiallar bera oladi.

Ko'plab tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaning etakchi yo'nalishlari hisoblanadi³. Biz ham bu fikrni e'tirof etgan holda psixolingvistika sohasini ham shu qatorga kiritish lozim, degan fikrni ilgari surish tarafdorimiz. Zero, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya juda

¹ Хакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. – 23 б.; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 24 б.; Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.; Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 24 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 45 б.

² Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов.энциклопедия, 1990. – С. 136-137.

³ Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

ko‘p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Yana shu narsani ta’kidlash lozimki, tadqiq obyektimiz bo‘lgan badiiy matn bevosita psixolingvistik omillarga ham daxldor hisoblanadi. “Psixolingvistika asoslari” kitobining mualliflari I.N.Gorelov, K.F.Sedovlarning ta’kidiga ko‘ra, psixolingvistika tilshunoslikdagi antropotsentrik yo‘nalishning yadrosini tashkil etadi¹. Shu boisdan mazkur tadqiqotda o‘zbek tilidagi matnlarni uch jihatiga ko‘ra, ya’ni kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari asosida tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Badiiy uslubda yaratilgan o‘zbek tilidagi nasriy va she’riy matnlar tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. O‘zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, bir dissertatsiya doirasida o‘zbek tilidagi matnlarning shaxs va u mansub bo‘lgan etnos bilan aloqador barcha jihatlarini batafsil tadqiq etishning imkoni yo‘q, albatta. O‘ylaymizki, matnning antropotsentrik tahlili mazkur tadqiqot bilangina cheklanib qolmaydi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida yana ko‘plab tadqiqotlar yaratilishi shubhasizdir.

Bevosita ushbu paragraf mazmuni, ya’ni matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, aytish joizki, o‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zining ilk qadamlarini qo‘ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalariidan biriga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda ushbu sohaning bir necha yo‘nalishlari mavjud.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o‘rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko‘ra, unda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub’ektlar – so‘zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi².

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir³.

Kognitsiya tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy

¹ Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие. – М.: Лабиринт, 2001. – С. 4.

² Демьянков В.З. Процудирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134.

³ Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 47.

o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi¹.

Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli ta'riflarga ega bo'lgan termin *konsept* hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi². Mazkur termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa³, uning hozirgi vaqtdagi izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin. Jumladan, N.YU.SHvedova konsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi⁴.

Prof. N.Mahmudov o'z maqolalaridan birida *konsept* termini eng ko'p definitsiyaga ega bo'lgan termin ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga etish ham mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan”⁵.

Rus tilshunosi L.V.Adonina *konsept* terminiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta'rifini keltiradi. SHuningdek, uning ma'lumotiga ko'ra, *konsept* termini o'n nuqtayi nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo'linadi va h.k.⁶

Biz o'z tadqiqotimizda konseptga YU.N.SHvedova tomonidan berilgan ta'rifni asos sifatida tanlaganmiz⁷.

¹ Kўrsatilgan lugat. – B.51.

² Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.35-47.

³ Демьянков В.З. Кўрсатилган мақола.

⁴ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

⁶ http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&view=full&id=149&Itemid=80

⁷ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

Konsept termini borasidagi fikrlar o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov, SH.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan¹. SHu boisdan biz konsept haqidagi o‘z qarashlarimiz bilan cheklanishni ma’qul hisoblaymiz. Fikrimizcha, konsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Lekin u ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli tuzilmadir. SHuningdek, konsept bir vaqtning o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv, psixolingvistik va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. SHuningdek, biz konseptning sub’ektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholaymiz. Zotan, til tizimining o‘zi yuqoridagi sifatlarni o‘zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikda lisoniy konseptuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy konseptuallashtirish obyektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir. U “...inson ongida to‘plangan ma’nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo‘lib, qisman universal, qisman milliy xarakterga ega bo‘ladi”².

Kognitiv faoliyatda kognitiv metaforalarning ahamiyati beqiyosdir. Kognitiv tilshunoslik asoschilaridan biri J.Lakoff o‘z tadqiqotlarida metafora faqat til hodisasi bo‘libgina qolmasdan, insonning bilish faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi vosita ekanligini chuqur asoslab bergan. Kognitologiya fani nuqtai nazaridan kognitiv metafora insonning o‘z bilimlarini namoyon qilishi va konseptuallashtirishi usullaridan biri hisoblanib, uning mohiyati bir obyektни boshqa bir obyekt vositasida tushunish va tushuntirishdan iboratdir³.

Dunyo tilshunosligida metaforalarga oid ko‘plab tadqiqotlar yaratilganiga qaramay⁴, ushbu hodisa tilshunoslarni tobora o‘ziga jalb etmoqda. Xususan, lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik sohalarining shakllanishi metaforalarni yanada chuqurroq o‘rganish, bu

¹ Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 29012. – № 5. Б. 3-16; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220.

² Рыбникова В.А. Языковая концептуализация социума (на материале английских дидактических текстов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2011. – 20 с.

³ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

⁴ Қаранг: Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 512.

hodisani tadqiq etishda metaforik mazmunli matnlarni ham e'tiborga olishni taqozo qilmoqda. (Metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni xususida ishimizning II bobida batafsil to'xtalamiz).

SHaxs omilini asosiy omillardan biri sifatida talqin etuvchi qarashlar ichida matn yaratilishining kognitiv talqini diqqatga sazovordir. Kognitiv talqin matn yaratilishiga "muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik" tamoyili asosida yondashib, unga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazar bilan qarash fikrini ilgari suradi¹. Jumladan: so'zlovchi maqsadining ifodasi bo'lgan matn, nutq yaratilishi mahsuli bo'lgan matn, tushunish obyekti bo'lgan matn, tushunish mahsuli bo'lgan matn².

Matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn mental tuzilmaning tilga transformatsiyasidir. Bundan ko'rinadiki, ushbu talqinga ko'ra, botiniy nutqdagi bo'lajak matnga ketma-ket joylashuvchi propozitsiyalar yig'indisi sifatida emas, balki butundan qismlarga qarab harakatlanuvchi yaxlit shakl sifatida qaraladi. Ma'lumki, tilshunoslikda matnning tashqi (leksik-grammatik) va ichki (semantik) tuzilishiga ega ekanligi e'tirof etiladi³. Matnning ichki tuzilishi o'zida semantik konsentrat, yadroviy mazmunni namoyon etadi. Kognitiv tilshunosning vazifasi ana shu mazmunga kognitiv asos bo'lgan mental tuzilmalarni aniqlashdan iboratdir.

Kognitiv tilshunoslik namoyandalaridan biri V.Z.Demyankov ma'lumotiga ko'ra, tanlangan kommunikativ strategiyadan kelib chiqib, bir axborot turli sharoitlarda har xil tarzda ifodalanishi mumkin. Inson xotirasidagi tartibga solingan axborot bilan uning verbal shakli orasida katta farq ham bo'lishi mumkin. Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o'ziga xos qoidalariga ham bo'ysunadi. Voqea-hodisalarni bayon qilish sxemalari turlicha bo'lib, matn bu voqea-hodisalarning o'zaro aloqadorligiga muvofiq ravishda yuzaga keladi⁴.

Nutq yaratilishi jarayonida so'zlovchi o'z nutqini tinglovchining

¹ Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии. Электронное научное издание. ISSN, 1990. – 4045.

² Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. Вып. 7. – М., 2004. – С.88-90.

³ Каранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 45.

⁴ Каранг: Демьянков В.З. Продукция, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 129-134.

reaksiyasiga qarab o'zgartirib boradi. Ta'kidlash lozimki, nutqni rejalashtirish hamda uning voqelanishi deyarli bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Inson har doim ham o'z nutqining qanday shaklda ifodalanishini oldindan bilavermaydi, chunki bir jumla yoki so'z boshqa jumla yoki so'zni aytishni taqozo qiladi. Kognitivistlar fikriga ko'ra, bu jarayon grammatik monitor qurilma (monitoring) nazorati ostida kechadi. Matn yaratilishi vaqtida shaxs tayyor lisoniy birliklar bilan bir qatorda nominatsiya strategiyalaridan ham foydalanadi. Odatda, matn yaratilishi jarayonida ikkita bosqich belgilanadi: matn tuzishni rejalashtirish (konseptual mazmuni tartibga solish); matn generatsiyasi (tabiiy tilga transformatsiya qilish)¹.

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym tahlili hisoblanadi. Lingvokognitologiyaga ko'ra, har qanday matn ma'lum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta'rif beradi: "...freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan bo'ladi"². Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo'lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Bu o'rinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv tuzilmalardan biri bo'lgan geshtalt ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi tilshunoslikda mavjud bo'lgan semantik geshtaltlar nazariyasi tilning lug'aviy sathini o'rganishga tatbiq etilgan³. Geshtalt hodisasini matn bilan bog'lab o'rganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholanki, har qanday matn yaratilishi "butundan – bo'lakka" jarayonini aks ettiradi. Prof. SH.Safarov fikriga ko'ra, geshtalt va matn yaratilishini uzviylikda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi⁴.

Psixolingvistik nuqtai nazardan matn yaratish va uning mazmuniy persepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviylikda tadqiq etiladi⁵.

Matn idrokini dekodlash sifatida talqin etish o'tgan asrning so'nggi

¹ Ўша ерда.

² Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII: Когнитивные аспекты языка. – М.: Энергия, 1988. – С. 289.

³ Қаранг: Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.

⁴ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.

⁵ Қаранг: Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С. 205-210.

choragida e'tiborni jalb qilgan qarashlardan biri bo'ldi. Mashhur psixolingvist L.S.Vigotskiy "Мышление и речь" ("Tafakkur va nutq") kitobida (Moskva, 1982) verbal tafakkur tabiatini keng miqyosda yoritib berdi. Dekodlash nazariyasini rivojlantirishda "Jinkin maktabi" deb nomlangan yo'nalish vakillari katta rol o'ynadilar.

N.I.Jinkin o'z tadqiqotlarida UPK (universal-predmet kodi) haqidagi nazariyani ilgari surdi. Bu qarashlarga ko'ra, inson nutqi dastlab uning ongida amorf – shaklsiz holatda bo'ladi. Bu verbal shakl emas, u tasavvur holatida bo'ladi. Bunday predmet kodi barcha millat vakillari uchun universal xarakterda bo'lib, uni barcha tillarga tarjima qilish mumkin¹.

N.I.Jinkin mazkur qarashini I.N.Gorelov o'z tadqiqotlarida rivojlantirib, UPK axborotni uzatish kommunikativ usullarining neyrofiziologik ko'rinishi ekanligini qayd etdi. I.N.Gorelovning fikriga ko'ra, aynan mana shu jarayon tafakkurning tilga aylanish bosqichida vositachilik vazifasini bajaradi².

XX asrning so'nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o'rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. O'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo'llangan *diskurs* so'zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda.

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o'ta jadallik bilan sodir bo'layotgan fanlar integratsiyasini o'zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitsiyaga ega bo'lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo'nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, *diskurs* (fr. Diskours – nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab *bog'lanma matn* tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik *suhbat*, *dialog* tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi³.

¹ Каранг: Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 157.

² Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 10-11.

³ Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 467-468.

Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida *diskurs* termini yanada kengroq ma'noga ega bo'lmoqda. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendensiyasi kuchayib bormoqda¹. SHu bilan birga, *diskurs* so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmasligi, bunda shaxs omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir².

Diskurs tushunchasining bu tarzda talqin etilishiga, shubhasiz, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Diskursiv tahlil, obrazli qilib aytganda, bir necha lingvistik tahlil yo'nalishlarining kesishgan chorrahasidir. Chunki diskursiv faoliyat, ya'ni ongli tarzda nutq yaratish va uni idrok etish³ jarayoni shaxs omilini o'rganishni taqozo etadi. Zero, har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir. Ayon bo'ladiki, diskursiv tahlil nutqni shaxs faoliyati sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayon esa lisoniy faoliyatga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazardan yondashish kerakligini bildiradi. Ko'rinadiki, nutqiy tuzilmani bu tarzda o'rganish tadqiqotchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga, uning *diskursiv tahlil* deb nomlanayotgan "chorraha"dan o'tishini ham taqozo qiladi.

Diskursiv faoliyat jarayonini o'rganmasdan turib diskurs hodisasini tushuntirib bo'lmaydi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog'liqdir. Bu o'rinda diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilning bir necha yo'nalishlari mavjud. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasidir. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini "ichdan" turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo'lgan tahlil ko'rinishlaridan biridir. Diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtai nazarini, ham retsipient nuqtai

¹ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 7-8.

² Бу ҳақда қаранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.

³ Седов К.Ф. Қўрсатилган асар. – С. 7-8.

nazarini e'tiborga olishni talab qiladi.

Diskurs interpretatsiyasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan biri, mashhur gollandiyalik tilshunos T.A.van Deyk matbuot materiallari ustida olib borgan tadqiqotlarida diskurs tahliliga oid bir qancha muhim nazariy qarashlarni yaratdi¹. SHulardan biri makropropozitsiya haqidagi ilmiy qarashdir. *Makropropozitsiya* termini matnda ifodalangan obyektiv mazmuni aks ettiruvchi hodisadir. T.A.van Deyk so'zlari bilan aytganda, "Makropropozitsiya... diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan propozitsiyadir.... u bir propozitsiyalar ketma-ketligining yana boshqa shunday yuqoriroq darajadagi propozitsiyalar ketma-ketligi bilan bog'lanishini aniqlaydi va buning natijasida diskurs yoki epizodning global ma'nosi kelib chiqadi"².

Olim matnda yonma-yon kelgan gaplarning mazmuni bog'lanishini *lokal aloqa*, diskursda ifodalangan obyektiv mazmuni keltirib chiqaradigan bog'lanishni esa *global aloqa* terminlari bilan nomlaydi va bu ikki hodisani farqlash lozimligini ta'kidlaydi³.

Darhaqiqat, matnda ifodalangan asosiy mazmun (tema, topik) alohida olingan gapdagi shunday mazmundan – propozitsiyadan tubdan farq qiladi. Makropropozitsiyani tadqiq etish tadqiqotchiga diskurs yaratilishida tafakkur va tilning munosabatini chuqurroq o'rganish, lisoniy shaxs fenomenini kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Makropropozitsiya matnda ifodalangan gaplarning mantiqiy sintezidir. Uning qanday verbal vositalar orqali ifodalanishi nutq yaratuvchi shaxsning diskursiv qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Olimning makropropozitsiya haqidagi qarashlari publitsistik uslub materiallari misolida asoslangan bo'lsa-da⁴, uni badiiy matn tahliliga ham tatbiq etish mumkin. Makropropozitsiya haqidagi bu qarash murakkab mazmuniy tuzilishga ega bo'lgan badiiy matnning tushunishning kognitiv-diskursiv jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday nutqiy tuzilma, shu jumladan, ko'p hollarda ikkilamchi nominatsiya bilan ish ko'ruvchi badiiy matnning asosida ham mantiqiy-kognitiv asos yotadi.

Alohida ta'kidlash joizki, eng so'nggi tadqiqotlarda matnga integrativ nuqtai nazardan yondashish fikri ilgari surilmoqda. Jumladan, E.YU.Bajenovaning fikriga ko'ra, matnga bir vaqtning o'zida

¹ Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 117.

² Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар. – Б. 42.

³ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

⁴ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

kommunikativ, kognitiv va funksional nuqtai nazar bilan yondashish natijasida bu borada jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritish mumkin¹. Mazkur fikrni bugungi kunda integrativ tahlil bo‘yicha yaratilgan ko‘plab tadqiqotlar ham isbotlamoqda. Zotan, integrativ tahlilning ustun jihati shundaki, unda matnni bir vaqtning o‘zida lingvistik va nolisoniy omillar nuqtai nazaridan tadqiq etish mumkin. Bu esa ayni hodisaning mohiyatini to‘lig‘icha yoritib berish imkonini yaratadi. Amerikalik tilshunos Eduard Sepir o‘zining “Lingvistikaning fan sifatidagi maqomi” nomli maqolasida shunday deb yozgan edi: “Lingvistik tadqiqotlar rivojlanishi jarayonida tilshunoslik inson haqidagi fanlarni egallashda muhim qurol ekanligini isbotlamoqda va, ayni vaqtda, o‘z mohiyatini chuqur yoritishga imkon beruvchi bu fanlarga ham ehtiyoj sezmoqda. O‘zining an’anaviy tadqiqot obyekti bilan chegaralanib qolgan tilshunos hozirgi davrda qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Agar unda ozgina tasavvur qila olish imkoniyati bo‘lsa, tilshunoslikning antropologiya, madaniyat tarixi, sotsiologiya, psixologiya, falsafa bilan, qolaversa, fiziologiya va fizika fanlari bilan mushtarak manfaatlarga ega ekanligini inkor eta olmaydi”².

Mashhur tilshunosning bu so‘zlari zamonaviy tilshunoslikning etakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan integrativ tahlil to‘g‘risidagi bashoratdek tuyuladi. Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, sotsiolingvistika, sotsiopsixolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator yo‘nalishlar qo‘lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko‘rmoqdalar. Bundan maqsad nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o‘rin tutishini aniqlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnning shaxs faoliyati bilan bog‘liq xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishdir.

Ayon bo‘ladiki, lisoniy faoliyatni namoyon etuvchi matn xususida kognitiv tilshunoslikda mavjud bo‘lgan qarashlar turli- tuman va o‘ziga xosdir. Ammo ularning barchasi murakkab mavjudot bo‘lgan inson (shaxs) fenomeni mohiyatiga chuqurroq yondashishga intilmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi mazkur nazariy ta’limotlardan foydalanib, ularni rivojlantirgan holda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi shaxs lisoniy faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini yoritib berish bugungi

¹ Баженова Е.Ю. Интегрированный подход к анализу процесса порождения текста // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №13 (54). – С.31.

² Сепир Э. Статус лингвистики как наука // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 260.

tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Konsept va uning matn orqali ifodalanishi. Konsept muammosi antropotsentrik paradigmaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Konseptning mohiyati, uning tiplari va til birliklariga munosabati haqida ishimizning avvalgi sahifalarida to'xtalgan edik. Tadqiqotimizning bu qismida biz konseptning matn orqali ifodalanishi haqida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, tilshunoslikda konseptlar, asosan, leksik hamda leksik-frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, degan fikr ustun. Keyingi davrlarda esa fanda sintaktik konseptlar haqidagi nazariy qarashlar, shuningdek, ushbu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yuzaga keldi¹. Ularning aksariyatida sintaktik konsept tipik propozitsiyaga tenglashtiriladi².

S.E.Kuzminaning fikriga ko'ra, sintaktik konsept "predmetlar yig'indisi va ularning munosabatini aks ettiruvchi tipik vaziyat haqidagi axborot bo'lib, u gapning struktur sxemasi orqali ifodalanadi hamda tipik propozitsiya (mazmunning strukturlashtirilgan yig'indisi) orqali namoyon bo'ladi"³.

S.E.Kuzmina o'z maqolasida ingliz tilidagi quyidagi gaplarni misol tariqasida keltiradi: *I don't give you the book.* (Men kitobni sizga bermayman.) *The doctor gave him some cough medicina.* (Doktor unga ba'zi yo'tal dorilarni berdi.) *I sent her a letter.* (Men unga xat jo'natdim.) *He sent her a greetings card.* (U unga taklifnoma jo'natdi).

Maqola muallifi ushbu gaplar uchun *Kimdir kimgadir nimanidir beradi* shaklini tipik propozitsiya sifatida belgilaydi. Demak, ko'rinadiki, tadqiqotchi yuqoridagi gaplarda ifodalangan konseptni belgilashda ularning mazmunini mavhumlashtirish yo'lidan borgan.

Sintaktik konseptlar mavzusida tadqiqot olib borgan yana bir tilshunos – L.A.Fursning qarashlari ham yuqoridagi fikrlarga hamohang. Jumladan, u shunday yozadi: "Sintaktik yo'l bilan ifodalangan konsept o'zida dunyo va til haqidagi strukturlashtirilgan bilimlarni siqiq holda namoyon qiluvchi va ularni propozitsional shaklda ifodalashni ko'zda tutuvchi, maksimal tarzda mavhumlashtirilgan mazmuniy uzvlarni namoyon etadi"⁴.

Ma'lumki, konsept – mental tushuncha. Uni bevosita kuzatish

¹ Кузьмина С.Е. Понятие "синтаксический концепт" в лингвистических исследованиях / Вестник ЧелГУ. – 2012. – № 17 (66). Филология. Искусствоведение. – С. 87-90.

² Қаранг: Кузьмина С.Е. Кўрсатилган мақола.

³ Кузьмина С.Е. Кўрсатилган мақола. – Б. 90.

⁴ Фурс Л.А. Синтаксически репрезентируемые концепты: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тамбов: Тамбовский гос. ун-т им. Г.Р.Державина, 2004. – С. 42.

mumkin emas. Insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bu hodisani uning tildagi korrelyatlari orqali aniqlash mumkin. Sintaktik konsept haqidagi ilmiy qarashlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, til birliklaridan biri bo‘lgan gap ham konsept ifodachisi (uning tildagi korellyati) sifatida tan olinmoqda. Demak, bu qarashlarga binoan, gapda ham muayyan konsept o‘z ifodasini topadi va bu sintaktik yo‘l bilan ifodalangan konsept hisoblanadi. Sintaktik konseptlar gapning umumiy mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. SHuningdek, tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, nafaqat leksema yoki frazeologizm, balki propozitsiya (binobarin, asosan, gap – D.X.) ham konseptni ifodalash shakllaridan biri hisoblanadi, u voqelikni konseptuallashtirish va kategoriyallashtirish mahsuli bo‘lganligi uchun antropotsentrik mohiyat kasb etadi¹.

Nazarimizda, bu qarashlarda sintaktik konsept voqelikdagi bir turdagi munosabatlarning mantiqiy formulasiga teng kelib qolgan. Agar konseptda milliy mentallik, aksiologik modallik, lingvomadaniy omillar ham aks etishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, yuqoridagi qarashlar bir oz munozarali tuyuladi. SHunday bo‘lsa-da, konseptning gap orqali ham ifodalanishi haqidagi fikr, bizningcha, juda to‘g‘ri va u boshqa bir muammo – konseptning matn orqali ifodalanishi haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Bevosita matn va konsept masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, aytish mumkinki, matn, xususan, badiiy matn konsept ifodachisi bo‘la oladi. Bunda, yuqorida qayd etilganidek, individual-muallifiy yondashuv ham, milliy mentallik belgilari ham o‘z aksini topishi mumkin.

Ma’lumki, tilshunoslikda badiiy konsept konsept tiplaridan biri sifatida baholanadi. Rus tilshunosi I.G.Tkachenko konsept haqidagi maqolasida tadqiqotchilar tomonidan badiiy konseptga xos quyidagi belgilar qayd etilganini ta’kidlaydi: 1) mantiq qoidalariga bo‘ysunmaslik; 2) real voqelikka har doim ham mos kelmaslik; 3) potensial obrazga dinamik tarzda yo‘nalganlik; 4) obrazlilik; 5) estetiklik; 6) individuallik².

Tadqiqotchi I.Tarasovanning fikriga ko‘ra, badiiy konseptni izohlashda ikki yondashuvni kuzatish mumkin: 1) badiiy konsept individual – muallifiy, psixik hosiladir; 2) badiiy konsept milliy va

¹ Кузьмина С.Е. Понятие “синтаксический концепт” в лингвистических исследованиях / Вестник ЧелГУ. – 2012. – № 17 (66). Филология. Искусствоведение. – С. 89-90.

² Ткаченко И.Г. Подходы к трактовке текста и художественного концепта в современной лингвистике // И.Г.Ткаченко, Ю.Г.Мурка // Филологические науки в России за рубежом. Материалы международ.заоч.науч. конф. (г.Санкт-Петербург, февраль 2012 г.) – СПб.: Реноме, 2012. – С. 173-175.

adabiy an'analar hosilasidir¹. Bizningcha esa, badiiy konsept yuqorida qayd etilgan har ikkala xususiyatni o'zida mujassam etadi. Zero, konseptning o'zida ushbu belgilar mavjuddir.

Bu o'rinda yana bir fikrni aytish joizki, matn orqali konseptning ifodalanishi masalasini yoritish uchun ilmiy tadqiqotning bitta qismi, hatto bitta bobi ham kamlik qiladi. Bu – alohida monografik tadqiqot mavzusi bo'lib, unga keng aspektda yondashuv lozim. SHu boisdan biz tadqiqotimizning ushbu qismida badiiy matnda konseptning ifodalanishiga oid kuzatishlarimizdan kelib chiqqan ayrim mulohazalarni bayoni etish bilan chegaralanamiz.

Fikrimizcha, badiiy asarlarda, xususan, nasriy asarlarda lingvokulturologiyada asosiy konseptlar hisoblangan *hayot, o'lim, ona, Vatan, muhabbat, yaxshilik, adolat, ayol* kabi tushunchalar ifodasi ko'p uchraydi. Badiiy asar ijodiy faoliyat mahsuli bo'lganligi sababli, muayyan konsept ifodasi bu kabi matnlarda, tabiiyki, birinchi navbatda individuallik, obrazlilik belgilarini namoyon etadi. Quyidagi matnga e'tibor bering: *Katta yo'l bo'yida daraxt o'sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo'lovchi keldi. Kun issiq, yo'lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o'tirib dam oldi...*

Yo'lovchi ochiqqan edi. Qarasa, daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtga chiqishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to'kildi. Yo'lovchi to'ygunicha edi ...

Manzil olis edi. Yo'lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi...

Keyin... zahar tang qilib qoldi. Yo'lovchi daraxt panasiga o'tdi...

So'ng... yo'liga ketdi...

Daraxt boshqa yo'lovchini kuta boshladi... Bu daraxtning nomi YAXSHILIK edi... (O'.Hoshimov. "Yo'l bo'yidagi daraxt")

O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan olingan mazkur matnda YAXSHILIK konsepti o'z ifodasini topgan. Matnda bu konsept "daraxt" ramzi orqali ifodalangan bo'lib, muallifning kognitiv-diskursiv faoliyatida qo'llangan o'xshatish amali matnning metaforik mazmun kasb etishiga olib kelgan.

F.M.Dostoevskiy va M.A.Bulgakov romanlarini lingvokognitiv tahlil qilgan O.A.Aktisova o'z ishida tavsifiy xarakterdagi mikromatnlarda konsept matn yaratuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi,

¹ Тарасова И.А. Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения // Лингвистика. Вестник Нижегородского ун-та. – 2010. – № 4(2). – С. 742-745.

degan fikrni ilgari suradi¹. O‘zbek yozuvchilari asarlaridan olingan mikromatnlar ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi.

O‘.Hoshimovning yuqorida tilga olingan kitobidagi bir necha matnda AYOL konsepti o‘z ifodasini topgan. Ular tavsifiy xarakterdagi mikromatnlar bo‘lib, AYOL konsepti maydoniga kiruvchi turli mikrokonseptlarning verbal ko‘rinishlaridir. Masalan:

“Ayol kishini ipidan ignasigacha bilaman”, deysizmi? O-o-o, siz daho ekansiz!

Ayting-chi, sharqdan sekundiga besh-etti metr tezlikda esayotgan shamol o‘n daqiqadan keyin shimolga buriladimi, janubgami? YArim soatdan keyin izg‘iringa aylanadimi, bo‘rongami?..” (O‘.Hoshimov. “Daho” ekansiz!”)

Ayol mehri - asaldek totli. Ayol makri – zahardek xavfli. (O‘.Hoshimov. “Mehr va makr”)

Ayollar! Yig‘lab ko‘nglingizni bo‘shatishdek ne‘matni ato etgani uchun YAratganga shukronalar qiling. (O‘.Hoshimov. “Ne‘mat”)

Ayol kishiga avvalo Ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi. (O‘.Hoshimov. “Mo‘‘tabar zot”)

Ayol shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o‘qiy olgan emas. (O‘.Hoshimov. “Abadiy jumboq”)

Mikromatnlardan ko‘rinadiki, ularda ayol shaxsiyatiga xos bo‘lgan mehribonlik, sirlilik, makkorlik, onalik sifatleri aks etgan. Bu har bir mikromatnda AYOL konsepti bilan bog‘liq assotsiatsiyalarning faollashuviga sabab bo‘lgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, mikromatndagi badiiy konsept ifodasida konseptning ijodkor shaxs uchun muhim hisoblangan muayyan qirrasigina o‘z ifodasini topadi.

Badiiy asarlarni kuzatish shundan dalolat beradiki, o‘zbek tilida yaratilgan mikromatnlarda HOLAT konsepti ham rang-barang ifodalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu, avvalo, badiiy adabiyotning bosh maqsadi inson va u bilan bog‘liq fenomenlarni tasvirlash ekanligi bilan izohlanadi. HOLAT konsepti superkonsept maqomida bo‘lib, bu maydonga kiruvchi shodlik, qayg‘u, sog‘inch, iztirob kabi tushunchalarning matn orqali ifodalanishi tasvirning to‘laqonli bo‘lishini ta‘minlaydi. Quyida misol sifatida keltirilgan mikromatnlar ana shunday HOLAT konsepti maydoniga kiruvchi konseptlar ifodachisi sifatida namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin.

¹ Актисова О.А. Синтаксические средства реализации концептов в аспекте эволюции типов повествовательной речи: На материале описаний в романах “Преступление и наказание” Ф.М.Достоевского и “Мастер и Маргарита” М.А.Булгакова: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград: Волг. гос. ун-т, 2006. – С. 29.

Sog'inch konsepti. *Birdan allaqaysi musicha cho'zib ku-kuladi. SHu qadar nola qildiki, musichaning tovushida shu qadar mung, shu qadar sog'inch, shu qadar dard borligini birinchi bor ilg'ashim... Sizni esladim... Musicha yana ku-kuladi, azbaroyi hovli jaranglab ketdi, beozor parrandaning bo'g'iqroq tovushi mening ichimdan eshitilayotgandek bo'ldi... Bu tovush Sizni chaqirayotgan, Sizni chorlayotgan edi... Sezyapsizmi, Sizning so'zingizdan chiqmay ortiqcha iztiroblarga berilmaslikka uringanim sayin Sizni o'ylamaslik, Sizni xayoldan quvib chiqarish epini topolmadim. (X.Do'stmuhammad. "Hijronim mingdir mening" qissasi)*

Hayrat konsepti. *Bu juda go'zal manzara edi, buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina ko'rish mumkin, biroq eng zo'r musavvir ham uning qo'shig'iga bo'yoq topolmagan bo'lardi. Qizning ovozida bani dunyo o'zaro uyg'unlashib jaranglar, go'yo xayol ham, go'zallik ham, orzu ham qizning qiyofasiga kirib qo'shiq aytardi. Qo'shiqni tinglayotgan odam bahorni, yasharish faslini, sollanib turgan gullarni, shabadadan to'kilay-to'kilay deyayotgan qizg'aldoq bargidagi shudringni, tuman qoplab olgan bog'ni, varrak uchirayotgan bolalarni, yuksak-yuksaklarda parvoz qilayotgan, jilvalanayotgan bolalik xayolini ko'z oldiga keltirishi mumkin edi. Bolalik kabi go'zal, tiniq va orzumand bu ovoz quyoshning issiq taftidek o'z ohangi bilan odamni eritib yuborar, ko'ngilga yoqimli shabadaday esib kirardi. To'rt hasharchi shunday taassurotlarni boshidan kechirar, ular qo'shiqni oxirigacha eshitmoqchiday dong qotib turishardi. (N.Eshonqul. "Momoqo'shiq" qissasi)*

Qo'rquv konsepti. *YAna vujudini dahshat bosdi. Nazarida eri azroildek, kela solib, jonini oladiganday, yuragi qo'rquvdan dukillab ura boshladi. Qo'llari, bo'g'inlari, butun jismi titrab-qaqshab, ichi yaxlaganday, tuyg'usiz bir maxluqqa o'xshab o'tirardi. Ayniqsa, Aziz ishdan qaytadigan vaqt yaqinlashgan sari battar vosvosga tushib, o'zidan-o'zi yig'lagisi kelar... elga sovurilgan qadri, nomusining alamiga chidolmaganidanmi, Azizning qahridan qo'rqqanidanmi, o'ksib-o'ksib, borgan sari o'zini to'xtatolmay yig'lay boshladi... U irodasi va aqlini yo'qotgan edi, bamisoli o'pqonga tushgan xassimon, o'zini butkul majruh tuyg'ular qo'liga topshirgan edi... (O'.Usmon. "Girdob" romani)*

YUqorida keltirilgan mikromatnlardan ko'rinadiki, HOLAT konseptining turli ko'rinishlarini ifodalash uchun turli vaziyatlar

munosabatidan foydalanilgan. Jumladan, birinchi matnda musichaning ku-kulashi vaziyati ifodasi sog‘inch holatini ifodalashda vosita bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi matnda qo‘shiq aytayotgan ayolni eshitib turgan hasharchilarning qalbidagi to‘lqinlanish, hayrat hislari tabiat manzaralari tasviri vositasida namoyon bo‘lgan. Uchinchi matnda esa asar qahramonining qo‘rquvga tushgan holati, asosan, uning vujudida ro‘y berayotgan jismoniy o‘zgarishlarni ifodalovchi birliklar (*yuragi qo‘rquvdan dukillab ura boshladi; qo‘llari, bo‘g‘inlari, butun jismi titrab-qaqshab, ichi yaxlaganday*) orqali berilgan. Bu esa badiiy konsept ifodasi ko‘p hollarda implikativ xarakterga ega bo‘lishidan dalolat beradi.

Ma’lumki, metaforalar haqidagi nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq mavjud bo‘lgan. “Metafora hosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma’no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘zaro o‘xshash kelishiga asoslanadi”¹.

XX asrning so‘nggi choragida ma’no ko‘chishining usullaridan biri hisoblangan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatiga ham xos ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surila boshladi. Bunday qarashlarning shakllanishida, xususan, o‘z tadqiqotlarida metaforaga antropologik nuqtai nazardan yondashgan M.Osborn, J.Jeyns, E.Kassirer, N.F.Alefirenko, J.Lakoff, M.Jonson kabi olimlarning fikrlari asosiy o‘rinni egallaydi.

Amerikalik tadqiqotchi J.Jeyns mavhum konseptlar konkret metaforalar yordamida shakllanishini ta’kidlab, noma’lum va notanish predmetni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo‘lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan obrazni tanlay olish o‘rinli metaforani yuzaga keltirishini ta’kidlagan edi².

O‘tgan asrning so‘nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo‘lgan J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to‘g‘risidagi tadqiqot³ bu boradagi qarashlarning tub burilishiga sabab bo‘ldi. Mazkur tadqiqotchilar kognitiv (konseptual) metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo‘libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar. J.Lakoff va M.Jonson: “Metaforalar nafaqat

¹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010 – Б. 94.

² Қаранг: Будаев Э.В. Становление когнитивной теории метафоры // Лингвокультурология. Выпуск 1. – Екатеринбург, 2007. – С.16-32.

³ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforikdir”, – deb ta’kidlagan edilar¹.

“Blending nazariyasi” deb nomlanuvchi qarashni yaratgan olimlar – M.Terner va J.Fokone fikriga ko‘ra, kognitiv metaforalar murakkab dinamik va integratsion jarayonni namoyon etib, yangi – qorishiq mental maydonlar yaratilishiga sabab bo‘luvchi hodisadir².

Rus olimi N.S.Valgina esa metaforalar biridan-biriga o‘tib boruvchi uch xil ma’nolar yig‘indisidan iborat, deb hisoblaydi: 1) to‘g‘ri ma’no – faktual axborotni ifodalaydigan ma’no; 2) ko‘chma ma’no – konseptual axborotni ifodalaydigan ma’no; 3) qayta anglangan ma’no (ramz) – ichki axborotni ifodalaydigan ma’no; tagma’no³.

Kognitiv metaforalar nazariyasiga ko‘ra, metaforalashtirish asosida bilim tuzilmalari (freym va ssenariylar) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa jarayoni yotadi. J.Lakoff hamda M.Jonson fikriga ko‘ra, verbal tuzilmada eksplitsit ifodalanmagan mazmun freymilar haqidagi bilimlar asosida keltirib chiqariladi⁴.

Hozirgi vaqtda kognitiv metaforalar nazariyasi ko‘plab sohalarga tatbiq etilgan bo‘lib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Kognitiv metaforalar haqidagi nazariyalarga asoslanib, bu hodisaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: kognitiv metafora – shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo‘lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim tuzilmalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni konseptuallashtirishdir. Masalan: *Matvey Semyonovich yal-yal yonayotgan qip-qizil, yirik yoqutni ta’zim bilan olar ekan, uning qiymati juda baland ekanini sezdi* (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar” romani) gapidagi *baland* so‘zining metaforik ma’noda qo‘llanishiga matn tuzuvchining tezaurusida uzual holatda mavjud bo‘lgan NARX BU – VERTIKAL UZUNLIK tuzilishidagi kognitiv metafora asos bo‘lgan. Buni nutqimizda qo‘llanuvchi *narxi pasaydi, narxi o‘rtacha, narxi baland, narxi osmonda* kabi birikmalar ham isbotlaydi.

J.Lakoff va M.Jonson tadqiqotida tahlil etilgan *vaqt bu – pul, vaqt bu – cheklangan zaxira, vaqt bu – qimmatbaho buyum* kognitiv metaforalari o‘zbek tilida so‘zlashuvchi nutq egalari tezaurusida ham

¹ Лакофф Ж, Жонсон М. Кўрсатилган асар. – Б.387.

² Қаранг: Будаев Э.В. Когнитивная теория метафоры: генезис и эволюция // www.pglu.ru / vestnik / detail / php? /

³ Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2004. – 424 с.

⁴ Будаев Э.В. Кўрсатилган мақола.

mavjudligi (Masalan: *Bu ishga ko'p vaqt sarfladim; Vaqtim tugay deyapti; Behuda ishlar vaqtini o'g'irlyaydi*) bir qator kognitiv metaforalarning kognitiv-semantik universalisiya ekanligidan dalolat beradi.

Bu o'rinda quyidagi savolning paydo bo'lishi tabiiy: tafakkurga xos bo'lgan bu jarayonni o'rganish tilshunoslikka nima beradi? Nazarimizda, bu savolga E.S.Kubryakovaning quyidagi so'zlari juda o'rinli javob bo'la oladi: "Har qanday til hodisasi kognitsiya va kommunikatsiya kesishgan nuqtada tadqiq etilsagina o'rinli tavsiflangan va izohlangan deb hisoblanishi mumkin"¹. Zero, lingvokognitologiyaning asosiy maqsadlaridan biri ham tilni axborot uzatish va uni idrok etish tizimi sifatida tadqiq etishdir.

Kognitiv metaforalar implikatsiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida so'z, so'z birikmasi, jumla yoki matnda o'z "izi"ni qoldiradi. Metafora asosida ma'nosi (mazmuni) ko'chgan birliklar "kognitiv aysberg" (Fakkonier iborasi) ning yuzasi qismi bo'lib, uning asosiy qismi bizning lisoniy ongimiz tubida yashirin holda mavjud bo'ladi. Aytish joizki, yuqoridagi kabi holatlarni o'zida namoyon etuvchi kognitiv fon hodisasi o'zbek tilshunosligida hali tadqiq obyekti bo'lgan emas. Kognitiv fon hodisasini metafora, metonimiya, o'xshatish, jonlantirish kabi hodisalar bilan bog'liq holda o'rganish antropotsentrik tilshunoslikning zaruriy muammolaridan biridir.

7-MAVZU. O'ZBEK TILINING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI MUAMMOLARI

Reja:

1. Tilshunoslikda psixolingvistik yo'nalishning yuzaga kelishi
2. Psixolingvistikaning vazifaviy-struktur aspekti
3. Psixologik komponentlar va uning tilga aks etishi

Tilshunoslikda psixologik yo'nalish bilan bog'liq muammolar naturalistik va logik ta'lim egalarining xatti-harakatlari bilan bog'liq ravishda kirib kelgan. Bu borada V. fon Gumboldt konsepsiyasiga e'tibor bergan holda, semantik qurilishda nutqiy ijodiy yondashuv lozimligini ta'kidlashida kuzatiladi. Bu holat psixolingvistika bilan shug'ullangan barcha maktab a'zolarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Qariyb yuz yildirki, psixologiyaning turli xil aspektlarida nutq

¹ Кубрякова Е.С. Образы мира в сознании человека и словообразовательные категории как их составляющие // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 2006. – Т.65. – №2. – С.11.

o‘stirishning nutqiy ijodiy yondashuvdagi suhbat me‘yorlari faoliyatiga aloqadorligi alohida o‘rganilgan.

Ma‘lumki, psixolingvistika asoschisi nemis tilshunos olim G.SHteyental (1823-1899) hisoblanadi. Uning eng muhim asarlari sifatida «Tillarni tasnif etish va ularning taraqqiyot qonuniyatlarining maqsadi» deb nomlangan bo‘lib, 1850 yilda yozilgan. Undan keyin 1851 yilda yozgan «Tillarning kelib chiqishi», 1855 yilda yozilgan «Grammatika, logika va psixologiya», 1860 yilda yozgan «Muhim tipdagi tillarning tuzilishi xarakteristikasi» asarlarini sanab o‘tish lozim. SHuni alohida ta‘kidlamoq joizki, lingvistik biologizmning o‘ziga xos xususiyatlari SHleyxer ta‘limotida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, logik grammatizm Bekker ta‘limotida jonlantirildi. SHteyental esa o‘z ijodiy o‘qishlarida bu jaryonni individning xatti-harakati va xalq psixologiyasi taraqqiyotiga tayanib o‘rganadi. Tilshunoslik-faqat individning psixologik xarakteri bilan chegaralanmaydi, balki uning nutqini o‘rganadi, ayni zamonda xalqning psixologiyasini, uning tilini ham o‘rganadi.

SHteyental ilmiy qarashlariga Potebnya va Paul, Boduen de Kurtene ham Sossyur, Sepira va SHerbalar e‘tibor qaratadi. Biroq psixolingvistika bir xalq misolida rivoj topgan emas.

Potebnya va Paul qarashlarida psixologik asosi gapning semantik qurilishi, grammatik kategoriyalari, tilning leksik ma‘nolari uchun xizmat qiladi. Psixologik tushunchalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog‘liqligini, shuningdek, tilning tarixiy-madaniy faktor ekanligini ifoda etadi.

Boduen de Kurtene va F.Sossyur nutqiy ijodiy yondashuvning ijtimoiy xarakter kasb etishini alohida ta‘kidlashadi. Bu konsepsiya turli xil individual-leksik birliklarning paydo bo‘lish omillarini, ijtimoiy-grammatik assotsiatsiyasining esa uzviy aloqadorligini anglatadi. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, til va nutq muammosiga doir tilning funksional (vazifaviy) belgilarini, shuningdek, til qurilishini va nutqiy-ijodiy yondashuvni o‘rgangan edi.

Ma‘lumki, vazifaviy-struktur yo‘nalish psixolingvistika, ya‘ni lingvistik psixologiya uchun muhimdir. A.Marti o‘z ishlarida, jumladan, 1908 yilda yozgan «Umumiy grammatika va falsafiy tilni tekshirishning isbotlanganligi», A.Gardineraning 1932 yilda yozgan «Til va nutqning nazariyasi», K.Byuleraning 1934 yilda yozgan «Til nazariyasi» asarida aynan vazifaviy-struktur yo‘nalish masalasida ilmiy izdanishlar olib

borishgan. Ta'kidlash joizki, psixologik idealar lingvistik yo'nalishlar uchun muhim bo'lib, psixologizm va nutqiy faoliyatni tushunishni idrok etishda simvolik alomat kasb etadi. Buni logik-ma'noviy tahlilda lingvistik yo'l bilan amalga oshiriladi.

Psixologik komponentlar strukturalizm, etnolingvistik nazariyalar, semiotika yo'nalishlarida o'rganilgan va tadqiq etib kelinmoqda. SHunga ko'ra, psixologik yo'nalishlarning muhim ko'rinishlari til uchun xarakterli bo'lib, psixolingvistikaning yuzaga kelishini ta'minlagan. 1954 yilda shu masalaga bag'ishlangan, ya'ni psixologlar va tilshunoslar hamkorligida AQSHning Blumington shahrida seminar bo'lib o'tgan edi. 1957 yilda esa CH.Osgud «Ma'nolar o'zgarishi» 1961 yilda esa o'zining psixolingvistikaga doir muhim bo'lgan ishi «Psixolingvistika»ni yaratdi. Amerikalik psixolingvistlar ana shu ishlarga tayanib deskriptiv va transformatsion tekstlarni yuzaga keltirishgan hamda xulq-atvor psixologiyasi, ayniqsa, «ongdagi xalq-atvor modeli»ni Osguda va uning informatsion nazariyasi hamda matematik nazariyasiga bog'liq ekanligini isbot qildilar.

Semantik-psixologik qarashlarda nutqiy jarayoni aynan nutqning qurilishi, nutqning vaziyati, shuningdek, nutqning kontekstda tutgan o'rni masalalari to'laqonli ravishda o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Rus tilshunosligida bu muammolar bilan L.SHerba, L.Vo'gotskiy kabi olimlar mutnazam shug'ullanib kelishgan. Bir qancha psixolingvistlarni A.Leontev boshqarib kelgan. Natijada 1967 yilda «Psixolingvistika», 1969 yilda «Psixolingvistik birliklar nutqiy vaziyatning muhim vositalari», 1969 yilda «Til, nutq, nutqiy faoliyat» deb nomlangan asarlarini yaratgan. Angliyada Fyors Xolideya boshchiligida kontekst vaziyati, nutqiy vaziyat, nutqiy kontekst masalalari bilan bevosita shug'ullanuvchi maktab yaratilgan. YAponiyada esa bevosita «tilning paydo bo'lishi»ni o'rganuvchi maktab mavjud bo'lib, u asosan, til va uning inson faoliyatiga aloqadorligini, til va nutqiy jarayonni o'rganish asosida nima beradi, degan masalalar ustida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Ko'rinadiki, til jamiyatning asosiy aloqa-aralashuv vositasi sifatida tushuniladi, shuning uchun tilni har tomonlama o'rganish va tahlil etib berish lozim bo'ladi. Insonning ijtimoiy-siyosiy qarashlarda tildan va uning elementlaridan foydalanish muhimdir. Bunda til elementlari yordamida osil qilingan ma'nolar til belgilari yordamida ma'no hosil qilib, ular ayni zamonda inson 'atti-harkatiga xos tushunchalarni tushunish imkonini beradi beradi.


Lingvistik psixologizmning paydo bo'lishida naturalizm va logizmning alohida o'rni bor. Psixologiya ana shu jarayonlarning bir ko'rinishi bo'lib, psixologizm tilning boshqa xususiyatlarini, xususan, uning nutqiy faoliyati bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Psixologik jarayon bilan biz sotsiolingvistika va struktural tilshunoslikda, lingvosemiotika va matematik lingvistikaning bo'limlarida tanishib chiqamiz.

Nutqiy faoliyat jarayonini psixofizik aspektlarini tadqiq etish gapiruvchilar tomonidan nutqning fiziologik asosini o'rganishni taqozo etadi. Tomson bu haqda to'xtalib, quyidagilarni bayon etadi: «Biz hozirgi zamon tilini tushunish asosida uning, ya'ni tilning biz tomondan so'zlashuv jarayonida gapirish, fikr yuritish, eshitish, o'z navbatida bizning organizmimizda psixologik faktorlarni yuzaga kelishini ta'minlaydi, umuman til mavjudligi biz uchun psixologik va fiziologik jarayonlarda ma'lum bo'ladi».

Nutqiy faoliyatning fiziologik asosi haqida Blumfild va psixolingvistlar to'xtalib, ularni tarixiy transformatsion sharoit taqozosi bilan bog'lab, nutq tuzilishiga xos deb ta'kidlaydilar.

Lingvistik psixologizmning asosiy maktablarida etnolingvistika va psixologik sotsiolingvistika, semantik psixologizm, psixologiya, nutq va psixolingvistika masalalari muhim deb qaraladi. Ularning ilmiy qarashlari asosida turli- tuman psixologik maktablarda o'qishlar yuzaga kelgan. Muhimi shundaki, psixologik yo'nalishlarning barchasida psixolingvistikani psixologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida paydo bo'lgan fan sifatida e'tirof etiladi.

Psixolingvistika



Psixologiya

Tilshunoslik

Xullas, zamonaviy tilshunoslik tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. Buning asosini, shubhasiz, tilshunoslik va boshqa fanlar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlaydi. Psixolingvistika ham ana shunday jarayonning mahsulidir.

Matn psixolingvistik yondashuvlar talqinida. Matnning antropotsentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning **matn tuzuvchi – matn – retsipient**dan iborat uchlik¹ nuqtai nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, psixolingvistika sohasi XX asrning 50-yillarida psixologiya va tilshunoslik fanlarining hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. Psixolingvistikaning asosiy tadqiq obyekti nutqiy faoliyat sub'ekti bo'lgan shaxs, til sohibi hisoblanadi. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, "tilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish" ushbu sohaning asosiy maqsadi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi².

Psixolingvistikaga doir ko'plab tadqiqotlar yaratgan rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin "Основы психологической диагностики (модели мира в литературе)" nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi o'z konsepsiyasini yaratdi. Olimning mazkur kitobdan o'rin olgan, matn haqidagi qarashlarini aks ettirgan 6 banddan iborat fikrlarini to'liq keltirishni lozim, deb hisoblaymiz. Zero, ular tilshunosligimizda hali shakllanib ulgurmagan matnning psixolingvistik tadqiq tamoyillari uchun juda muhimdir.

1. V.P.Belyaninning fikriga ko'ra, nutq ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham turadi. (Ayonki, bunda olim nutq yaratilishi jarayonini nazarda tutgan).

2. Har xil matn ortida har xil psixologiya turadi. (Bunda V.P.Belyanin matn tuzuvchining matnda aks etuvchi sub'ektiv xususiyatlarini nazarda tutgan).

3. Badiiy matn tuzilishi aksentuallashtirilgan ong tuzilishiga muvofiqdir. (Bunda Belyanin ong psixik tuzilishining matn tuzilishiga ta'sirini nazarda tutadi. Uning bu fikri keyingi bandda yanada ravshanroq namoyon bo'ladi).

¹ Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

² Залевская А.А. Введение в психоллингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 1999. – С. 25.

4. Hissiy-mazmuniy dominanta¹ badiiy matnning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, shuningdek, uning uslubiyati namoyon bo‘lishida asosiy rolni bajaradi.

5. Matn voqelik – ong – olam manzarasi – til – matn tuzuvchi – retsipient – matn proeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi. (V.P.Belyanin ushbu bandda matn yaratilishi va idrokining barcha lisoniy va nolisoniy omillarini qayd etgan).

6. Retseptantning badiiy asar haqidagi o‘z talqini bo‘lishi mumkin. Bu talqin matn bilan birga retseptantning psixologiyasiga ham bog‘liq bo‘ladi². (Bu bandda V.P.Belyanin matn idrokining xususiy hodisa ekanligini ta’kidlagan).

Nazarimizda, V.P.Belyanin tomonidan keltirilgan ushbu qarashlar faqat badiiy matnni emas, boshqa uslubdagi matnlarni ham psixolingvistik tahlil qilish uchun asos bo‘la oladi. Xususan, 5-bandda bayon etilgan matnning obyektiv voqelik, ong, olam manzarasi, nutq yaratilishi va uning idroki bilan bog‘liq bo‘lgan serqirra va murakkab hodisa ekanligi haqidagi qarashlar matnning psixolingvistik mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi ham markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. “Lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo‘lgan ichki jarayondir”³. U, xususan, muloqotning eng oliy birligi bo‘lgan matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnning psixolingvistik tadqiqida eng muhim bo‘lgan obyektlardan biri til sohibi – matn tuzuvchi va retsipient faoliyatidir. Ma’lumki, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Bu matn yaratilishi va uning idrokidan iborat faoliyat zanjirining antropotsentrik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Psixolingvistik tahlilda muallif-retseptant munosabatlarida amal qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar borki, ularni o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarni olishga imkon yaratadi.

Tilshunoslikda matn mohiyati, unga xos bo‘lgan asosiy belgilar haqida mavjud bo‘lgan fikrlar⁴ matnni psixolingvistik aspektda o‘rgangan tadqiqotchilar tomonidan ham e’tirof etiladi. Jumladan,

¹ Хиссий-мазмуний доминанта ҳақида 3-бобда алоҳида тўхталамиз.

² Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М: Тривола, 2000. – С. 8-9.

³ Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

⁴ Бу ҳақда қаранг: Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – Б. 49-70.

yaxlitlik, informativlik, bog‘lanishlik kabi xususiyatlar matnning asosiy belgilari ekanligi bir qator psixolingvistlarning ishlarida ham qayd etib o‘tilgan¹. SHu bilan birga, ushbu tadqiqotchilar matnning psixolingvistik o‘ziga xosligi haqida ayrim qarashlarni ham ilgari surdilar. Jumladan, matnni psixolingvistik aspektda o‘rgangan YU.A.Sorokin uning bog‘lanishlik va yaxlitlikdan iborat belgilariga quyidagi tarzda yondashadi: “Matn yaxlitligi psixologik nuqtai nazardan retsipient va matnning o‘zaro munosabati jarayonida yuzaga keluvchi yashirin proeksion (konseptual) holatdir, shuningdek, bog‘lanishlik til / nutq qurilishi unsurlari barobarida uning qurilish unsurlari bo‘lmagan qismlarning o‘zaro hamkorligi natijasi hamdir². YAna bir tilshunos A.I.Novikovning fikriga ko‘ra esa matn yaxlitligi faqat uning mazmuniy tuzilishiga xosdir³. A.I.Novikovning ushbu xulosasi psixologik va kognitiv nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘lsa-da, matnning tashqi tuzilishi – sintaktik-struktur jihatini e‘tiborga olmaganligi bilan munozaralidir. Zero, matn yaxlitligini uning ichki tuzilishigina ta‘minlamaydi.

A.I.Novikov matnning psixolingvistik belgilari qatorida axborot siqqligi (kompressivnost)ni ham qayd etadi⁴. Axborot verbal shaklining siqqligi N.A.Jinkinng har bir matnni bitta gap shakliga keltirish mumkinligi haqidagi g‘oyasiga asoslangan.

A.I.Novikov yuqorida qayd etilgan maqolasida matnni tahlil qilishning yangi bir yo‘nalishi haqidagi qarashlarini ham bayon etgan. Uning fikricha, psixolingvistik va kognitiv tilshunoslikda til turli nuqtai nazarga ko‘ra tahlil qilinsa-da, ular bir nuqtada kesishadi. U mana shu nuqtani “lingvopsixologiya” deb atashni taklif qiladi⁵.

Matnni psixolingvistik tahlil etish haqidagi ayrim tadqiqotlarda uning kreollashtirilganlik, shakliy uzilish hamda interpretativlik xususiyatlari ham e‘tiborga olinishi lozimligi ta‘kidlanadi⁶.

Kreollashtirilganlik (rus tilida: kreolizovannost) *kreol*⁷ so‘zidan

¹ Белянин В.П. Основы психологической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 8-13; Пешкова Н.П. Психолингвистические аспекты типологии научного текста: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2002. – С. 15; Новиков А.И. Текст как объект исследования лингвопсихологии // Методология современной психолингвистики: Сб. статей. – Москва; Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003. –С.10.

² Сорокин Ю.А. Текст: цельность, связность, эмотивность // Аспекты общей и частной теории текста. –М., 1982. – С. 61-73.

³ Новиков А.И. Кўрсатилган мақола.

⁴ Новиков А.И. Кўрсатилган мақола. – Б. 9-17.

⁵ Новиков А.И. Кўрсатилган мақола.

⁶ Каранг: Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психолингвистика. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

⁷ *kreol* – Африка мамлакатларида африкаликларнинг тубжойли бўлмаган, келгинди халқ вакиллари билан бўлган никоҳларидан туғилган авлодлар / Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 416.

hosil qilingan bo‘lib, retsipientga ta’sir o‘tkazish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uyg‘unlashtirilishi tushuniladi. Rus tilshunosi M.B.Voroshilovning ma’lumotiga ko‘ra, bu tushuncha psixolingvistikaga YU.A.Sorokin hamda E.F.Tarasovalar tomonidan kiritilgan¹. Kreollashtirish natijasida “verbal va noverbal unsurlar yagona vizual, tuzilmaviy, mazmuniy va funksional yaxlitlikni hosil qiladi”². Bunday matnlar sirasiga tadqiqotchi reklama matnlari, kinomatnlarni kiritadi.

Biz ruscha *kreolizovannyi tekst* terminini o‘zbek tilida *uyg‘un matn* termini bilan ifodalash ma’qul, deb o‘ylaymiz, chunki bunday matnlarda bir necha nolisoniy va lisoniy faktlarning uyg‘unlashuvidan iborat jarayon hosil bo‘ladi. Fikrimizcha, uyg‘un matnlar nafaqat psixolingvistikada, balki lingvokulturologiyada ham o‘rganilishi lozim. Sababi – uyg‘un matnlarda turli madaniy-semiotik maydonlar o‘zaro aloqaga kirishadi. Masalan, g‘azallar to‘plamidan iborat kitoblarda ko‘pincha CH.Ahmarov miniatyuralari ham beriladi. Bunda she’riy matn mazmuni hamda suratlardagi tasvir o‘zaro uyg‘unlashadi. Bunday usulni ertaklar to‘plamida ham ko‘rish mumkin. Reklama matnlari ham uyg‘un matnga tipik misol bo‘la oladi. Teleekranda namoyish etiladigan reklamalarda uch turdagi madaniy-semiotik maydon: tasvir, musiqa va matn uyg‘unlashuvini kuzatish mumkin. Kinomatnlarda ham og‘zaki matn, tasvir va musiqa uyg‘unligi tomoshabin ruhiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

YUqorida aytilganidek, bu kabi matnlar funksional yaxlitlikni hosil qiladi. Psixolingvistikada retsipientlarning ana shu yaxlitlikni qabul qilish qobiliyatlari tadqiq qilinadi.

Psixolingvistikaga doir adabiyotlarda qayd etilgan shakliy uzilish (rus tilida: *skvajnost*) ham matnga oid qiziqarli hodisalardan biridir. Ma’lumki, matnda ketma-ket kelgan jumlar mazmunan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ana shu bog‘liqlik kutilmaganda uzilib qolishi mumkin. O‘.Hoshimovning “O‘zbek ishi” deb nomlangan hikoyasidan olingan quyidagi parchada mana shu hodisani ko‘rish mumkin: *Yo‘q, Jumanov Koryaginga emas, deraza tomon intildi. Soqchi eshikdan kirguncha bir hatlab deraza rahiga cho‘kkalab oldi. SHu alpozda bir soniya, atigi bir soniya Koryaginga qaradi. Hozirgina ko‘zlarida yonib turgan g‘azab ifodasi o‘rnida shu qadar chuqur, unsiz nafrat, nochorlik, iztirob... shu*

¹ Ворошилова Н.Б. Креолизованный текст: аспекты изучения // Политическая лингвистика. Вып. 20. – Екатеринбург, 2006. – С. 180-189.

² Ворошилова М.Б. Кўрсатилган мақола.

qadar teran hayrat bor ediki, Koryaginning yuragi orqaga tortib ketdi.

– Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov ...

Gapini tugatmasdan derazadan yana g'ira-shira oqshom yorug'i ko'rindi.

Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi. CHuqurlikdagi hovlida, hovuz chetidagi simyog'ochda lampochka yonib turar, Jumanov yaproqlarini chang bosgan archa tagida g'ayritabiiy yonboshlab yotar edi: boshi hovuzning sement qirrasida, gavdasi qirg'oqda... Koryagin uning jon taslim qilayotib, oyog'ini uch-to'rt silkitganini ko'rdi.

Berilgan mikromatnda xalqimiz kechmishidagi fojiali davrlardan biri – paxta yakkahokimligi vaqtida “o'zbek ishi” deb atalgan mash'um harakatning qurboniga aylangan shaxs, ya'ni sovxoz direktori Jumanovning tergovchining ma'naviy va jismoniy qiynoqlariga chidolmasdan, o'zini tergov bo'layotgan binoning yuqori qavatidan pastga tashlab halok bo'lishi epizodi tasvirlangan. Agar matndagi jumlalarga mantiqiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, uning ikki o'rnida muayyan jumlar tushirib qoldirilganini ko'rishimiz mumkin: bu – *Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov...* jumlasidan keyingi ***Jumanov deraza rahidan o'zini pastga otdi*** hamda ***Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi*** jumlasidan oldingi ***Koryagin va soqchi yuqori qavatdan pastga tushib, hovliga chiqishdi*** jumllaridir. Axborot izchilligi ushbu jumlarni taqozo etsa-da, ularni matn tarkibida qo'llamaslik matnning mazmuniy yaxlitligiga ta'sir etmagan: retsipient muallif nazarda tutgan propozitsiyalarni matnda ifodalangan vaziyatdan kelib chiqib, o'zi tiklashi mumkin. Implikatsiyaning bu usuli badiiy matnlarda ko'p uchraydi. Demak, shakliy uzilish, aytish mumkinki, matn va retsipient munosabatlariga, ya'ni matnning mazmuniy idrokiga oid hodisa bo'lib, aborot siqqligining yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Matnning psixolingvistik xususiyatlaridan biri interpretativlik hisoblanadi. V.P.Belyanin fikriga ko'ra, har bir retsipient muayyan matn haqida o'z interpretatsiyasiga ega bo'lishi mumkin. Matn idroki natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, retsipientning ham psixologik xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Muallif bilan retsipient psixologik jihatdan qanchalik yaqin bo'lsa, ularning matn

haqidagi interpretatsiyasi shunchalik muvofiq bo‘ladi¹.

¹ Беянин В.П. Основы психоллингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 8.

Foydalaniladigan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент, 1981.
2. Актисова О.А. Синтаксические средства реализации концептов в аспекте эволюции типов повествовательной речи: На материале описаний в романах “Преступление и наказание” Ф.М.Достоевского и “Мастер и Маргарита” М.А.Булгакова: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград: Волг. гос. ун-т, 2006. – С. 29.
3. Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С.
4. Будаев Э.В. Становление когнитивной теории метафоры // Лингвокультурология. Выпуск 1. – Екатеринбург, 2007. – С.16-32.
5. Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2004. – 424 с.
6. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.
7. Воҳидов Р., Ньматов Ҳ. Сўз бағрида маърифат. -Т.: Ёзувчи, 2001.
8. Галперин Р.И. О понятии текст // Вопросы языкознания. – Москва, 1974. – №6. – С.22.
9. Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие. – М.: Лабиринт, 2001. – С. 4.
10. Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты : монография – Тамбов : Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007.
11. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 117.
12. Демянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.35-47.
13. Лузина Л.Г. /Под общ. ред. Э.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134.
14. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982.-157с.

15. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 1999. – С. 25.
16. Зикриллаев Ғ. Назария - куруқ оғоч // Истиклол ва она тили курилиши, талқини ҳамда таълими. -Т., 2000
17. Зоркина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С. 205-210.
18. История лингвистических учений. Средневековый Восток. Отв. ред. А. В. Десницкая. -Л.:Наука. 1983.
19. Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.
20. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.
21. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2007.
22. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрел, АСТ, 2007. – 318 с.
23. Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии. Электронное научное издание. ИССМ, 1990. – 4045.
24. Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск: ИГУ, 2001. – №1. – С.60.
25. Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова э.С., Демянков В.З., Панкратс Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Э.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 47.
26. Краткий словарь когнитивных терминов э.С. Кубрякова, В.З. Демянков, Ю.Г. Панкратс, Л.Г. Лузина. – М. 2007.
27. Кубрякова э.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – М., 2001. – Т.1. – С.72-81.
28. Кубрякова Э.С. Образы мира в сознании человека и словообразовательные категории как их составляющие // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 2006. – Т.65. – №2. – С.11.
29. Кузмина С.Е. Понятие “синтаксический концепт” в лингвистических исследованиях / Вестник ЧелГУ. – 2012. – № 17 (66). Филология. Искусствоведение. – С. 87-90.

30. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.
31. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов.энциклопедия, 1990. – С. 136-137.
32. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
33. Менглиев Б. Фалсафа нечанчи ўринда туради? // Маърифат, 2004 йил 10-март
34. Маслова В.В. Лингвокультурология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243; Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.
35. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.
36. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
37. Маҳмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. -Т., 1992
38. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, 1995, 10-бет.
39. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Маматов А. ва бошқ. Миллий тилшунослик мустақил ривожланиш йўлида // Маърифат, 2007 йил 21 май.
40. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Маҳмудова Н., Сувонова Х. Она тили таълимининг долзарб муаммолари // Тил ва адабиёт таълими, 2008 йил, -№ 9.
41. Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII: Когнитивные аспекты языка. – М.: Энергия, 1988. – С. 289.
42. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010 – Б. 94.
43. Навоий А. Лисонут тайр. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
44. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Т.:Ўқитувчи, 1993.
45. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 467-468.
46. Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган

асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40.

47. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Т.:Шарқ., 2002.

48. Пименова М.В., Кондратчева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.

49. Рыбникова В.А. Языковая концептуализация социума (на материале английских дидактических текстов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2011. – 20 с.

50. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.

51. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – С. 25.

52. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.

53. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 245.

54. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. –Самарқанд – 2007.

55. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.

56. Сепир Э. Статус лингвистики как наука // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 260.

57. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

58. Тарасова И.А. Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения // Лингвистика. Вестник Нижегородского ун-та. – 2010. – № 4(2). – С. 742-745.

59. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

60. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 512.

61. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. ЎУМ, ЎЗМУ 2011. Ўзбек филологияси факултети кутубхонаси.

62. Усмонов С. Умумий тилшунослик. -Т.: Ўқитувчи, 1972.

63. Фалсафа. Қомусий луғат. –Т, 2004.

64. Фурс Л.А. Синтаксически репрезентируемые концепты: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тамбов: Тамбовский гос. ун-т им. Г.Р.Державина, 2004. – С. 42.
65. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантқиқ. -Т.:Ўқитувчи, 1993. -Б. 92-95.
66. Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. Вып. 7. – М., 2004. – С.88-90.
67. Шарофиддинов О. «Адабиёт тилдан бошпанади». Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1987. 34-бет.
68. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.
69. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М: Тривола, 2000. – С. 8-9.
70. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрел, АСТ, 2007. – 318 с.
71. Юлдашев М.М. Бадиий матнинг лингвопоетик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – Б. 49-70.
72. Белянин В.П. Основы психологической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 8-13;
73. Сорокин Ю.А. Текст: цельность, связность, эмотивность // Аспекты общей и частной теории текста. –М., 1982. – С. 61-73.
74. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психолингвистика. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрел, АСТ, 2007. – 318 с.
75. Ворошилова Н.Б. Креолизованный текст: аспекты изучения // Политическая лингвистика. Вып. 20. – Екатеринбург, 2006. – С. 180-189.
76. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 8.

A. Primov, X.Qodirova

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

Nashriyot litzenziyasi AI № 271. 04.07.2013.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Times New Roman garniturasida terildi.

Shartli bosma tabog‘i 5,75.

Buyurtma № 38. Adadi: 100 nusxa..

“Adabiyot uchqunlari” MCHJ nashriyotida bosmaga tayyorlandi va chop etildi. Toshkent shahri, Bunyodkor shoh ko`chasi, 28-uy.

